


# GOLDEN BRAIN

Scientific Journal

ISSN: 2181-4120



Volume 1, Issue 4



2023/4  
February

ISSN 2181-4120  
VOLUME 1, ISSUE 4  
FEBRUARY 2023



<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/issue/view/57>

**“GOLDEN BRAIN” SCIENTIFIC JOURNAL****VOLUME 1, ISSUE 4, FEBRUARY, 2023****EDITORIAL BOARD****G. Kholmurodova***Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University***A. Madaliev***Professor, Doctor of Economics, Tashkent State Agrarian University***G. Sotiboldieva***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***U. Rashidova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Philological Sciences, Samarkand State University***D. Darmonov***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***X. Abduxakimova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***U. Ruzmetov***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Chemical Sciences, National University of Uzbekistan***M. Yusupova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Fergana State University***M. Kambarov***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Namangan State University***S. Sadaddinova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Physics and Mathematics Sciences, Tashkent University of Information Technologies***M. Fayzullaev***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) Geographical Sciences, Karshi State University***Z. Muminova***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine***B. Kuldashov***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Samarkand Institute of Veterinary Medicine***Kh. Askarov***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Fergana Polytechnic Institute***S. Nazarova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Bukhara State University***O. Rahmonov***Doctor of Philosophy (Phd) in Technical Sciences, Fergana Polytechnic Institute***G. Tangirova***Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University***Z. Koryogdiev***Doctor of Philosophy (Phd) in Historical Sciences, Bukhara State University***S. Ubaydullaev***Doctor of Philosophy (Phd) in Agricultural Sciences, Andijan Institute of Agriculture and Agrotechnology***R. Yuldasheva***Associate Professor, Doctor of Agricultural Sciences, Tashkent State Agrarian University***M. Yuldashova***Doctor of Philosophy (Phd) in Biological Sciences, Namangan State University***EDITOR-IN-CHIEF: M.YUSUPOV**

## СИНТЕТИК ПОЛИМЕРЛАР КОНЦЕНТРАЦИЯСИНИНГ КАЛАВА ИПЛАР ФИЗИК-МЕХАНИК ХУСУСИЯТЛАРИГА ТАЪСИРИ

**Шокиров Лазиз Бахтиёрович**

ассистент

Бухоро муҳандислик технология институти, Бухоро, Ўзбекистон

[laziz.shakirov.85@mail.ru](mailto:laziz.shakirov.85@mail.ru)

**Хасанов Баходир Кимсанович**

техника фанлари номзоди, доцент

Фан ва технологиялар университети,

Ўқув бўлими бошлиғи

### **АННОТАЦИЯ**

*Оҳорловчи компонентлар табиатининг калава иплар физик- механик хоссаларига таъсири ўрганилди. ПААни крахмал пардаларининг сорбцион ва эрувчанлик хоссаларига таъсири ўрганилди. Оқшоқ крахмали, ПАА ва КМЦ асосидаги оҳорловчи компонентларнинг қулай таркиби аниқланди. Таклиф этилган оҳорловчи компонентларнинг таркиби калава ипларга ишлов беришда тўқши цехида ип узилишлигини камайтиради, шунингдек газлама ипларнинг механик ва технологик хоссалари кўрсаткичларини оширади.[1.2.3.4]*

**Калит сўзлар:** крахмал, натрий силикат, хлорамин препаратлари, модификация, оқшоқ крахмали, оҳорлаш, композиция, калава ип, синтетик полимер, маккажўхори.

### **АННОТАЦИЯ**

*Изучено влияние природы красящих компонентов на физико-механические свойства калавных нитей. Изучено влияние ПАК на сорбционные и растворяющие свойства крахмальных пленок. Определен благоприятный состав смягчающих компонентов на основе кукурузного крахмала, ПАА и КМЦ. Состав предлагаемых смягчающих компонентов снижает обрыв нитей в вязальном цехе при переработке калавных нитей, а также повышает механические и технологические свойства газовых нитей. .[1.2.3.4]*


**Ключевые слова:** крахмал, силикат натрия, препараты хлорамина, модификация, рисовый крахмал, илихтование, композиция, калавная пряжа, синтетический полимер, кукуруза.

Оҳорловчи препаратлар сифатида қўлланиши мумкин бўлган, кимёвий таркиби бўйича хилма-хил оҳорловчи моддалар ва уларнинг модификациялари келтирилган. Кимёвий таркиби бўйича оҳорловчи препаратлар икки йирик синфга бўлинади:

- табiiй полимерлар ва уларнинг модификациялари,
- синтетик полимерлар ва уларнинг композициялари.


ПАА ва КМЦ оҳорловчи компонентларнинг иккинчи синфига киради, улар қўлланиш соҳаларининг ғоят хилма-хиллиги билан фарқланади. Олдинги бўлимларда аниқланганидек, ПАА эритмаларини оҳорловчи препарат сифатида модификацияланган крахмал таркибида катта мувоффақият билан қўллаш мумкин. Шу борада, оҳорловчи материаллар таркибига кирувчи ПАА концентрацияларининг оҳорланган газлама ишлар физик-механик хусусиятларига таъсири хусусан узилиш юкланмаси, узилиш чўзилувчанлиги, елимланиш ва оҳор рН муҳитини ўрганишга қизиқиш пайдо бўлди. [1.2.3.4]

Крахмал, ПАА ва КМЦ миқдоридан узилиш юкланмаси, узилишдаги чўзилиши, елимланиш ва рНнинг ўзгариши 1-расмда келтирилди.



**1-расм. Узилиш юкланмаси ўзгаришининг ПАА концентрация-сига бўлиқлиги. Крахмал концентрацияси, %.**

Олинган натижалардан кўришиб турибдики, (1-расм), крахмал елими таркибига 20 % гача ПААни киритилиши узилиш юкламасининг 27 % гача ортишига олиб келади, яъни 64 сНга ошади, ПААни оҳор таркибидаги крахмал миқдорини кейинги оширилиши узилиш юкламасининг пасайишига олиб келади. Бу ҳолат ортиқча эришда макромолекулалар чоқланиши билан тушунтирилади, натижада эритма қовушқоқлиги яхна ҳосил бўлгунга қадар ошади, бу эса ўз навбатида ПААнинг сувда эрувчанлигининг пасайишига олиб келади. Олинган натижалардан кўришиб турибдики, ПААнинг крахмалли оҳордаги оптимал концентрацияси тайёр оҳорнинг умумий массасини 0,3-0,5 % ини ташкил этади. Шундай қилиб, биз узилиш юкланмасига КМЦ таъсирини ўрганилди, натижалари 2-расмда кўрсатилган. 4.5.6.7.8.]



2-расм. Узилиш юкламаси ўзгаришининг КМЦ концентрациясига боғлиқлиги. Крахмал концентрацияси, %.

Модификацияланган крахмал таркибидаги ПАА ва КМЦнинг концентрацияси тегишлича 0,4% ва 0,05%ни ташкил этади. Модификацияланган крахмал таркибига КМЦнинг кам миқдорда киритилиши ип узилиш юкланмасининг кескин ошишига ёрдам беради. КМЦ концентрациясининг таркибда 0,015%гача ошириш ип узилиш юкланмасининг ортишига олиб келади, КМЦ концентрациясининг кейинги оширилиши узилиш юкланмасига кам таъсир этади. Шунинг учун, модификацияланган крахмал таркибидаги КМЦнинг энг қулай концентрациясини 0,01-0,015 % да бўлиши лозим эканлигини аниқланди. [3.4.7.8.]

ПАА ва КМЦ концентрацияларининг физик-механик хусусиятларига таъсири тўғрисидаги тадқиқот натижалари асосида ПАА ва КМЦнинг модификацияланган крахмал таркибига киритилиши калава ипнинг мустаҳкамлик кўрсаткичларини янада оширишга олиб келиши аниқланди.

Хулоса қилиб айтганда крахмал ишлаб чиқариш жараёни мураккаблигини, техник ҳамда иқтисодий жиҳатдан самарадорсизлигини эътиборга олиб соддалаштирилган технология ишлаб чиқилди.

Оҳорловчи адгезив таркибнинг сирт таранглигига таъсирини ўрганиш крахмалли оҳор учун тизим сирт таранглигини максимал пасайишига олиб келувчи КМЦнинг қулай миқдори 0,1 %, ПАА дан 0,1% қўшилганда эса сирт таранглиги бир оз пасайишига олиб келади.

Крахмалнинг елимланиш даражасига фақат электролитлар концентрациясигина эмас, балки фойдаланилган электролит тури ҳам таъсир кўрсатади. Масалан,  $\text{Na}_2\text{CO}_3$  6 г/кг концентрациясида елимланиш даражаси 43% бўлса, ўша концентрацияда  $\text{Na}_2\text{SiO}_3$  қўлланилганда елимланиш даражаси 82%гача етди.

Оҳорланган калава ипларнинг узилиш юкланмаси ва чузилишнинг оҳор таркибига боғлиқлигини ўрганиш шуни кўрсатдики, оҳорловчи композициялар таркибида ПАА ва КМЦ миқдорининг ортиши толалар юзасида анча мустаҳкамроқ парда ҳосил бўлиши ҳисобига оҳорланган калава иплар узилиш

юкланмасининг ортишига ва узилиш чўзилишининг камайишига олиб келади.  
.[1.2.3.4.9.]

Модификацияланган гуруч крахмалини Республикамиз тўқимачилик комбинати ҳамда турли МЧЖ ҳиссадорлик жамиятларида қўллаш технологик ва иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқдир. Ушбу ишнинг иқтисодий самараси четдан валюта ҳисобига олиб келинувчи қиммат баҳо маккажўхори крахмални анча арзон модификацияланган оқшоқ крахмали билан алмаштириш ҳисобига эришиш мумкин, бу тўқув дастгоҳларида ип узилишлигини камайишига олиб келади, натижада ишлаб чиқариш самарадорлигини кескин ортади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Шокиров Л.Б., Фозилов С.Ф., Мавланов Б.А. Маҳаллий хом ашё крахмал асосида оҳорловчи ва қуюқлаштирувчи композициялар яратиши ва уларни енгил саноатда қўллаш. Монография. –Бухоро: Умид наширети, 2020. - 105 б.

2. Шокиров Л.Б., Фозилов С.Ф., Мавланов Б.А., Пўлатова С.Н. Применение композиции рисового крахмала и поливинилацетата для повышения эффективности шлихтования хлопчатобумажной пряжи. *Universum: технические науки: научный журнал*. – № 6(75). Часть 2. М., Изд. «МЦНО», июнь 2020. – С. 81-83.

3. Shokirov Laziz Bakhtiyorovich, Ubaydov Qodir Zokirovich, Kazakov Farkhod Farmonovich. To study the effect of filling parameters on the efficiency of the cotton yarn spinning process. *European Journal of Research Development and Sustainability (EJRDS)* Available Online at: Vol. 2 No. 4, April 2021, ISSN: 2660-5570. 40-43 p.

4. Salokhiddin Mardonov, Laziz Shokirov and Khakim Rakhimov. Development of technology for obtaining starch gluing modified with uzkhitan and hydrolyzed emulsion. *APITECH III 2021*. IOP Publishing. *Journal of Physics: Conference Series* 2094 (2021) 042070. doi:10.1088/17426596/2094/4/042070.



5. Шокиров Л.Б., Фозилов С.Ф., Мавлонов Б.А., Нурбоев Р.Х. *Сувда эрувчан пластик полимер тизимларини яратишнинг физик-кимёвий хусусиятларини ўрганиш. Современные инновационные технологии в легкой промышленности: проблемы и решения материалы международной научно-практической конференции*. Бухара 19-20 ноября 2021. 101-105 стр.

6. Шокиров Л.Б., Фозилов С.Ф., Мавлонов Б.А., Убайдов Қ.З. *Пахта толасидан олинган иплар учун металлорганик полимерлардан оҳор тайёрлашда қўлланишнинг афзалликлари. Современные инновационные технологии в легкой промышленности: проблемы и решения материалы международной научно-практической конференции*. Бухара 19-20 ноября 2021. 106-110 стр.

7. *Research of increase the strength of warp yarns for knitting strong fabrics International conference mip: engineering-2021: advanced technologies in material science, mechanical and automation engineering. 2021. Гиясова Д.Р., Д.А.Садуллаева, Д.С.Казакова*

8. *Improving the drawing mechanism of a drawing frame machine for forming threads by preliminary estimate fabric quality indicators Journal of Critical Reviews, Том 7, Номер 5, D.R. Giyasova, D.A. Sadullayeva, D.S. Kazakova.*

9. *Salokhiddin Mardonov and Khasan Saidov 2021 Structural and mechanical properties of new sizing compositions based on natural and synthetic water-soluble polymers Modern Innovations, Systems and Technologies 1(3) 65-9.*

## IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA O‘ZBEK AYOLI OBRAZI

**Abdumo‘minova Dildora Oybek qizi**

Termiz davlat universiteti O‘zbek tili va  
adabiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada o‘zbek yozuvchisi va shoiri Iqbol Mirzo qalamiga mansub, 2016-yilda yozilgan “Bonu” romani qisman tahlil etilgan. Asosiy e’tibor undagi ayol obraziga qaratilgan va bugungi o‘zbek ayollari bilan asar qahramonlari solishtirilgan. Asar qahramonining boshidan kechirgan kunlari, voqealar ochib berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Qanotsiz farishta, o‘zbek ayoli, sabr, qiyinchilik, kechirimli, iffat, yolg‘on, yor.*

Inson zoti bu dunyoga kelar ekan, Alloh taolo unga onani qanotsiz farishta timsolida yuboradi. Ayol bizning dinimizda azal-azaldan hurmat-e’tibor qozonib kelgan va adabiyotda ham yetarlicha o‘rin egallagan. Qadimgi va hozirgi o‘zbek adabiyotida ayol obrazi yuksak mahorat ila tasvirlangan. Masalan, Iqbol Mirzoning “Bonu” romanini oladigan bo‘lsak, asarda bir ojiza tasviri manaman degan alp yigitdanda mag‘rur, or-nomusni birinchi o‘ringa qo‘yadigan holda ifodalangan. Asarda bosh qahramon Bonu ismli qiz bo‘lib asar davomida uning hayoti, boshidan kechirgan qiyinchiliklari, zavqli onlari adib tomonidan o‘zgacha mahorat bilan jonlantirilgan. Romanning yozilish uslubi umuman boshqacha, asar Bonu tilidan yozilgan. Bosh qahramon shu darajada vijdonli edi-ki, ana o‘sha vijdoni sabab ishidan ayriladi. Bilasizmi, Bonuning hayoti juda oz fursatda qiyinchiliklarga qo‘shilib ketadi. Avvaliga u Yusuf ismli bir nomardni deb nomi yomonga chiqadi, otasi vafot etadi va eng alamlisi uning ishongani Olmos uni yarim yo‘lda, dardga

chalingan holida tashlab ketadi. Ishonasizmi, yozuvchi Bonuning naqadar oqila va haqiqiy o'zbek ayoli ekanligini Olmos unga soxta uzuk olib kelganda yomon gumonga bormay, balki sotuvchi aldagandir deya, yigit uyalmasligi uchun o'zi haqiqiyini olgan jarayonda tasvirlagan edi. Bonu juda ko'plab qiyinchilikni faqatgina o'zbek ayollariga xos sabr bilan yengdi. To'g'ri Olmosdan ayrilgach, xuddi bu dunyoda hamma suyangan, ishongan insonlarini yo'qotgandek his qildi o'zini, yashashdan ma'no qolmaganday dunyo ko'ziga qorong'u ko'rindi, biroq uning onasi tirikligini, dardga chalingach shifo topishi uchun jon-jahdi bilan kurashgan inson faqatgina onasi ekanligini, dunyoda onasi uchungina kerakligini tushunib yetdi. Iqbol Mirzo Bonuning onasi obrazida ham o'zbek ayolining farzandi uchun naqadar yonib kuyishini, hech kim qabul qilmasada ona farzandi sog'mi, nobopmi qabul qilishini tasvirlagan. O'zbek ayoli, ayniqsa, onalar farzandi uchun hech narsasini ayamasi Bonuning onasi u Rossiyadan yuborgan pullarni farzandlari so'raganda, qiynalishganida chiqarib berishi orqali tasvirlagan. Bu holat ba'zan o'quvchi ko'zida yoshni qalqitadi. Asarda yozuvchi tomonidan o'zbek ayolini boshqa millat ayolidan ajralib turishi ham yuksak mahorat bilan tasvirlangan, ya'ni Bonu Alisher topib bergan uyda (lo'lilarning uyida) oddiy xizmatkor bo'lib yurgan kezlari, jajji qizaloqlarni kuchukdan himoya qilish maqsadida o'z jonini xavfga qo'yadi. Voqea vaqtida boshqa millat vakili bo'lgan tarbiyachi ayol ham bo'ladi, afsuski undan bu kabi jasorat chiqmaydi. Bu holat o'zbek ayollarini naqadar mehribon ekanliklaridan dalolat bersa ajabmas. Bonu ushbu holatdan so'ng asta-sekinlik bilan oilaning suyukli a'zosiga aylanadi. Bilasizmi, o'zbek ayollarida shunaqangi kechirimlik, kimdir uning dilini og'ritsa, to'g'ri, nafratlanadi biroq uning qiyin kunida tashlab qo'ymaydi. Bu xarakter, deyarli barcha o'zbekning iffatli ayollarida bor va asarda yozuvchi bu holatni e'tibordan chetda qoldirmagan. Ishonasizmi, Olmos Bonuni kasal holida tashlab ketdi, bemalol sevgisidan kechib o'zgasini yor deya qabul eta oldi, biroq Bonu uning og'ir dardga chalingan degan yolg'onlarga ishondi. Xo'sh nega ishondi? Sababi u bir Allohdan qo'rquvchi, oqila, rostgo'y edi va o'zgalarni xuddi o'zidek qabul qilgan edi. Olmosdan gina saqlamadi, aksincha, tuzalishi uchun pul yubordi.

Olmos aslida Bonuni hech qachon sevmagan, aksincha, uning soddaligidan, oz bo'lsada uning chiroyiga uchgani va boy oilaning qizi deb o'ylaganidan o'zini go'yo Bonuni sevadigandek qilib ko'rsatgan. Aslida, Yormuhmmad ham, Sulton-u Abdusattor ham, Qamariddin ham, "olim", "fermer", "tabib", "advokat", "bemor" ham mana shu Olmosning o'zi edi. Uning soxta "tabib"ligi ortida Bonu va u kabi ko'plab bemorlarning azob chekishi, terisi yara bo'lib, kunning jazirasida haddan ortiq qiynalganlari, Bonuning sevgisidan foydalanib, o'zini "bemor" qilib ko'rsatib, uning pullarini rosa shilganlarini, bular ham mayli, Ikromiddinni qamoqdan chiqarib beraman deb, soxta advokatlik qilib, bechora norasida bolalarning pullarini ham shilganligi kitobxonni albatta ta'sirlantiradi. Asarda Bonu uchun or-nomus birinchi o'rinda turishini ikki holatda kuzatish mumkin. Birinchisi, Yusuf unga tashlanganda, u o'zini himoya qilib ertalabgacha mashina eshigini ochmasligi bo'lsa, ikkinchi holat Dilbarning tuzog'iga tushib qolgan mahal, tan jarohati yetkazib bo'lsada o'z nomusini asraganidir. Roman haqiqatdan ham o'quvchini o'ziga jalb etadigan, hajmi katta bo'lsada, tez fursatda o'qiydigan darajada qiziqarli va sevimli kitobxonlariga egadir.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, bu hayotda Bonu qilgan mardliklarni, qiyinchiliklarga sabr ila dosh bera olishga har kim qodir emasdir. Iqbol Mirzo yaratgan Bonu obrazi o'quvchilarga ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR***

1. *Iqbol Mirzo – "Bonu" romani. Toshkent-2016 y.*
2. @mutolaa\_sehri

## ARMONGA AYLANGAN BOLALIK

**Abdumo‘minova Dildora Oybek qizi**

Termiz davlat universiteti O‘zbek tili va  
adabiyot yo‘nalishi 2-kurs talabasi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada adib Tohir Malikning “Alvido bolalik” qissasidagi qahramonlar hayoti, turmush tashvishlari, dunyoqarashi haqida fikr yuritiladi. Qissaning bugungi kun yoshlar tarbiyasida tutgan o‘rni va kitobxonlik masalasi qissa qahramonlarining ma’naviyatiga nechog‘li ta’sir ko‘rsatgani ko‘rib chiqilgan.*

***Kalit so‘z:** Detektiv, yetishmovchilik, jinoyat, ehtiyoj, professor, xursandchilik, e‘zozlash, “Baxtli bolalik”*

Inson bu yorug‘ olamga kelar ekan, hech qachon qotil, o‘g‘ri yoki jinoyatchi bo‘lishni istamaydi. Aslida noto‘g‘ri berilgan tarbiya yoki oilaviy yetishmovchilik kishini bu yo‘lga boshlaydi. Buyuk yozuvchi Tohir Malik qalamiga mansub “Alvido bolalik” qissasi detektiv asar hisoblanib, qahramonlari ham yetishmovchiliklar va ko‘ngli yarimligi sababli o‘zlari bilmagan holda jinoyat yo‘liga kirib qolishadi. Asardagi Qamar, Salim, Sanjar, Axbor, Asror obrazlari shular jumlasidandir. Bu qissani o‘qigan ko‘pchilik kitobxon Qamar obrazini salbiy deb hisoblashadi, biroq u sari ham boradigan bo‘lsak, unda ham insoniylik tuyg‘ulari bor, jinoyatchi bo‘la turib jinoyatga qo‘l urmagan insonlardan ortiqroq edi.

Qamar birinchi marotaba nega qamalgan edi? Agar u asarni o‘qigan bo‘lsangiz, u kottej uylarda turadigan bolalardan eshitgan gaplariga dosh bera olmaydi. Avvaliga indamaydi, ikkinchi bor ularning pisanda gaplarini ko‘tara olmaydi va ularga musht tushirgani evaziga axloq tuzatish koloniyasiga jo‘natiladi. Agar o‘sha bolalar uni yetim deya ustidan kulishmaganida edi muammo bo‘lmasdi. Ikkinchi marta

qamalganida esa ayb hamma uchun mo'tabar bo'lgan zot ya'ni onada, Qamarning noinsof onasida edi. Axir Qamar hali voyaga yetmagan, onasi esa uning ko'z o'ngida begona erkak bilan "bu otangning do'sti" deya aysh-ishrat qilib o'tirar edi. Qamar nega u odamni o'ldirdi? Uning maqsadi bitta, ya'ni u o'zi ko'rgan xiyonatni o'sha erkakning farzandlariga ravo ko'rmaslik edi. Aslida Qamar yomon inson emas. Uning pok niyatli ekanini Dilfuzaning otasiga yangi aravacha olish uchun bergan puli, Salim og'ir yotib, oilasiga pul yetkaza olmagach uning nomidan ehtiyojlari uchun oilasiga pul jo'natishi, o'zi o'qiyolmagach, kelajagini porlashiga ko'zi yetmagach Asrorni professor qilish uchun hatto hofiz otasi bermagan mablag', e'tiborni berishidan bilish mumkin.

Asrorchi, to'g'ri u o'ziga to'q oilaning farzandi, moddiy tomondan hech narsaga muhtoj emas, aksincha, unga bular kerak ham emas edi. U shunchaki mehrga, e'tiborga va uning xohishlariga qarshi chiqmasliklariga muhtoj edi. Biroq u otasining ko'ziga tik boqqanda shaytonni ko'rgandek bo'lardi. Agar maishatparast hofiz otasi unga cheklovlar qo'yaganida u jinoyat yo'liga kirib, suvda cho'kkan murda emas, balki, kuchli professor bo'lar edi.

Bu qissaga nisbatan "Bir kami to'lmagan dunyo" iborasini qo'llasak bo'ladi, ya'ni "Baxtli bolalik" inshosini yozish topshirilganda, "asar qahramonlarining hayoti, bolaligi baxtli o'tayaptimi, yo'qmi" shu haqida fikr yuritiladi:

Turob. U baxtlimidi? Bechora onasi afg'ondan keltirilgan o'g'lining jasadini ko'rib aqldan ozgan, otasi esa 7 bolani o'zi boqar edi.

Manzurachi? U baxtlimidi? Otasi ketib qolgan, onasi bilan yolg'iz yashardi, yuragi kemptik edi.

To'g'ri, Otaullo boy. Biroq gap pulda emas-ku. Hatto u bu pullarni o'zi xohlaganicha ishlata olmasdi ham.

Ergashchi? Bechora bola aravakash otasiga qo'shib oilasini pul bilan ta'minlash uchun kun-u tun ishlaydi. "Xo'sh bular baxtli bolalikmi? Bugungi kundagi insonlarning dunyoqarashi bilan fikrlaydigan bo'lsak baxtli bolalik bu bolaning sog'lom bo'lishi, shinam uyda oila a'zolari bilan birga ovqatlanishi, ota-onasi

navbatlashib ularni bog'chaga, maktabga olib borishi, birgalashib dars tayyorlatishidir. Biroq bu asarda deyarli hech kimning hayoti shularga yaqin emasdi. Asarda Keldiyorov obrazi ham bor bo'lib, bu obrazni qolganlarning aksi desak mubolag'a bo'lmaydi. Sababi ular yetishmovchilik, pulsizlik, e'tiborsizlik sabab jinoyat qilishgan bo'lsa, Sanjar Keldiyorov mehrning ko'pligidan bu yo'lga kirgan edi. Otasi farzandining kelajagi uchun uni bir necha bor himoya qildi, biroq o'z kasbining sodiq egasi mayyor Soliyevga qarshi chiqa olmadi va jazo hamma uchun muqarrar ekanligiga amin bo'ldi. Qissani o'qish davomida kitobxon ko'zidan yosh sirg'alishi hech gap emas. Sababi bu mehrga zor bolalar doimo qalbi kemptik bo'lib yashadi. Bu asarni o'qish kishini ayniqsa yosh avlodni oila davrasida xursandchilik bilan o'tayotgan har bir kunini e'zozlashi, shukrona aytishi, ota-onalarni esa farzand tarbiyasida doimo sergak bo'lishiga undaydi. Farzand hatto yosh jihatdan katta bo'lsada ota-onasi uchun doimo bola va ularga tegishli ne'matdir. Ota-onalarimiz bu ne'matni yoshligidan payvand qilishda adashishmasliklari zarur. Zero, o'ylamay bosilgan birgina qadam baxtli bolalikni armonga aylantirishi mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. *Tohir Malik. Nomi: «Alvido... bolalik» Nashriyot: «Yangi asr avlodi» 2019-yil.*
2. *[http://www.tohirmalik.uz/kitoblar/alvido\\_bolalik](http://www.tohirmalik.uz/kitoblar/alvido_bolalik)*

**TOPIC: PHYSICAL CULTURE AND SPORTS****Akmal Tajiddinovich Khalikov**senior teacher of the Department of Physical Culture and Sports  
Uzbekistan State University of World Languages**ANNOTATION***The article describes the importance of physical education in human life***Key words:** *physical education, human, life, being healthy, activity, running, exercise*

Physical culture is a part of general human culture, a sphere of social activity aimed at strengthening human health and developing physical abilities. The main indicators of the state of physical culture in the society: people's health and physical fitness, the degree to which physical culture is implemented in the field of upbringing and education, in life, achievements in sports, etc. Physical culture includes folk games, physical exercises, sports and forms of tourism that require active movement. Physical culture was formed and developed in connection with such sciences as medicine, ecology, pedagogy, psychology. It has a direct impact on the development of society, people's effective work, the development of mental abilities, moral purification, and the physical condition of future generations.

Physical education, physical education is an integral part of general education aimed at strengthening health and harmonious development of the human body. It is one of the indicators indicating the state of physical culture in society. The main means of physical education: physical training, physical training, work and life hygiene. Physical education is combined with intellectual, moral, work and aesthetic education.

Special attention has been paid to physical education since the elementary period. Initially, it represented various rituals, which existed in the form of physical exercises, various games, labor processes, hunting, competitions and trials similar to military operations. Later, training young people in swordsmanship, horse riding,



archery, and one-on-one combat became one of the main tasks of the society. During the renaissance, attention to physical education became even stronger. Humanists tried to include physical education in the curriculum. In medieval Europe, physical education was considered as an important part of family education and pedagogical process in school. J. J. Rousseau in his pedagogical treatise called "Emile, or About Education" emphasized the importance of J. t. in mental development and labor education of children. In the 18th century, mainly under the influence of Rousseau's ideas, the "schools of humanity and good behavior" - philanthropists, which appeared in Germany, led to the improvement of the forms and methods of physical education. Gymnastics takes a strong place in the school curriculum. At the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, France, Great Britain, etc. National systems of physical education were formed in the countries.

In Uzbekistan, physical education has long been regarded as the main means of strengthening health. Mahmud Koshgari's work "Devonu Lugotit Turk" contains information about more than 100 folk games. "Alpomish" Uzbek folk heroic epic, "Farkhod va Shirin" by Alisher Navoi, "Badoye ul-vaqaye" ("Rare events" by Zayniddin Vasifi), "Boburnoma" by Babur, etc. examples are told.

By the years of independence in Uzbekistan, physical education and sports have risen to the level of state policy. In 1992 (and in 2000 in a new version) the adoption of the Law "On Physical Education and Sports", in 1993 the development of the Healthy Generation State Program, the Cabinet of Ministers on the Development of Special Types of Sports, and finally in 1999 "Physical Education and Sports in Uzbekistan" The decision "On measures for further development of sports" created the legal basis of physical education.

Wide-ranging system of physical education: family-preschool period (from infancy to kindergarten age), school age, secondary special and higher education period, and adult (male and female) physical education. In Uzbekistan, physical education in secondary schools is considered a pedagogical process and is carried out through physical education classes and training in sports sections. 2 hours a week

physical education classes have been introduced in grades 1-9 according to the "State Education Standard of Physical Education for General Secondary Schools". Special tests were developed in 1999 in order to popularize physical education among students and strengthen their health. "Alpomish" and "Barchinoy" badges of 3 levels were established for those who successfully passed these tests. 1,588,298 students successfully passed these tests (2002). Also, public competitions "Umid nihollar" for schoolchildren, "Barkamol Avlod" for lyceum-college students, and "Universiade" for university students were held every 2 years. "Alpomish Games" festival and "Tomaris Games" are held every 2nd year in terms of folk games and mass sports.

The scientific and practical foundations of physical education and specialists in this field are trained at the State Institute of Physical Education of Uzbekistan, faculties and departments of higher educational institutions. In the republic, 6 schools of Olympic substitutes, 8 schools of higher sports skills and 369 schools for children and teenagers also provide physical education lessons to students. Sports societies such as "Yoshlik" volunteer sports organization, "Vatanparvar" defense support organization, and "Dinamo" sports club serve to attract different layers of the population to physical training.

The modern broad concept of "physical education" means an organic component of general education - an educational, pedagogical process aimed at mastering the personal values of physical culture by an individual. In other words, the purpose of physical education is the formation of a person's physical culture, that is, the aspect of human general culture that helps to realize biological and spiritual potential. Physical education, whether we realize it or not, begins from the first days after the birth of a new person.

Pyotr Franzevich Lesgaft (1837-1909), a Russian teacher, anatomist and doctor in Russia, is the founder of the scientific system of physical education (actually - education), which harmoniously supports the mental development and moral education of a young person. "Courses of Physical Education Teachers and Leaders" created by him in 1896 was the first higher educational institution for training

specialists in physical education in Russia and became the prototype of the modern St. Petersburg Academy of Physical Education named after P.F. Lesgaft . . Graduates of the academy receive higher physical education and become specialists in various fields of physical culture, including the field of physical education, that is, the development of physical culture values by people. In relation to working in higher educational institutions, such a specialist is called a physical culture teacher or a teacher of the physical education department. The terms "physical education" should be distinguished from vocational training in special educational institutions and "physical education" in its original (according to P.F.Lesgaft) meaning of physical education. In English, the term "physical education" can be used in both senses. It should also be remembered that the English term "en:physical culture" is not used abroad in the sense of our broad understanding of "physical culture". There, depending on the specific direction of physical activity, the words "en: sport", "uz: physical training", "uz: physical training", "uz: fitness" etc. are used. together. , moral, aesthetic and work education ensures comprehensive development of the individual. In addition, these aspects of the general educational process are manifested in the process of physical education organized accordingly.

### **REFERENCES**

1. Adizov B. R., Khamroev A. R. *MODELING ACTIVITIES OF TEACHERS WHEN DESIGNING CREATIVE ACTIVITIES OF STUDENTS //ILMIY XABARNOMA.* -C. 69.
2. Alisherovich M. N. *HEALTH AND PHYSICAL EDUCATION IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS TECHNOLOGY OF DEVELOPMENT MEASURES //Конференции.* - 2020.
3. Kh K. R., Shukurov R. S., Samadov S. S. *The Inquiry On The Changes Of Relations Towards The Basics Of The Culture Of Healthy Life In The Students Of Elective Courses //International Journal of Progressive Sciences and Technologies.* - 2021. - T. 25. - №. 2. - C. 112-118.

## **BUYRAKNI VAZIFASI, TEKSHIRISH USULLARI, SHAMOLLASH BELGILARI VA UNI DAVOLASH USULLARI**

**Aminova Mohinur Normurod qizi**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son

Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi

[aminovamohinur133@gmail.com](mailto:aminovamohinur133@gmail.com)

**Nurmatov Abdurauf Choriyevich**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 1-son

Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi

**Xudoyberdiyev Javoxir Esonqul o'g'li**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali 2-son

Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Buyrak patologiyasi bilan og'riqan bemorlarda kasallik o'z vaqtida aniqlansa, davolash ham samarali, ham arzonroq bo'ladi, shuning uchun yiliga bir marta buyraklar ultratovushli tekshiruvini o'tkazish, tegishli tahlillar topshirib turish tavsiya etiladi. Ayniqsa, xavf guruhida bo'lgan shaxslar, xususan gipertonik bemorlar, qandli diabet bilan kasallanganlar, semizlik va aterosklerozdan aziyat chekadiganlar bunga qat'iy rioya qilishlari kerak. Bizning bu maqolamiz ham buyraklarning vazifasi belgilari ya'ni buyrakning kasallanganida sodir bo'ladigan birinchi belgilari va uni davolash usullari haqida bo'ladi.*

**Kalit so'zlar:** *Buyrak, Vazifasi, Tekshirish usullari, Belgilari, Shamollash belgisi, Davolash.*

**Asosiy qism:** Buyraklar lomber mintaqada joylashgan juftlashgan organlardir. Ularning asosiy vazifasi siydik hosil qilishdir. Buyraklar qonni ushlab turadi va eritropoetin ishlab chiqaradi. Asosiy tuzilish birligi - nefron - qon tomir qismi (glomeruli) va tubulalardan iborat. Birinchisi qonni filtrlash va asosiy siydik hosil bo'lishi uchun javobgardir. Ikkinchisi - organizm uchun zarur bo'lgan moddalarning reabsorbtsiyasida ishtirok etish. Oxir-oqibat, qayta ishlangan chiqindi mahsulot - ikkilamchi siydik qoladi. Agar biron bir bosqichda to'siq bo'lsa, u zaiflashadi. Bu siydikning sifat yoki miqdoriy tarkibining o'zgarishida ifodalanadi. Buyraklarni o'zingiz qanday tekshirishni tushunish uchun deyarli barcha bemorlarda bo'lgan diurez kasalliklari haqida bilishingiz kerak. Bu siyish istagining kamayishi yoki kuchayishi, siydik rangining o'zgarishi, hojatxonaga tez-tez yoki kamdan-kam tashrif buyurishi mumkin.

Siydik chiqarish tizimining patologiyasini aniqlashga imkon beruvchi ko'plab usullar mavjud. Tibbiy muassasalarda buyraklar maxsus namunalarda yordamida tekshiriladi, masalan, Zimnitskiy, Nechiporenko, Amburg bo'yicha tahlillar. Bu usullarning barchasi uzoq vaqtdan beri qo'llanilgan, shuning uchun ularning samaradorligi isbotlangan. Har bir namuna ma'lum bir funktsiyani baholash uchun kerak, masalan, Zimnitskiy bo'yicha tahlil filtrlash qobiliyatining buzilishini aniqlashga imkon beradi, Nechiporenkoga ko'ra - yallig'lanish reaksiyasi va gematuriya mavjudligi. To'g'ri tashxis qo'yish uchun buyraklarni instrumental tekshirish qo'llaniladi. Ushbu usullar ekskretor urografiya va biopsiyani o'z ichiga oladi. Oltin standart buyrak ultratovushidir. Ushbu usullarning har biri, agar kerak bo'lsa, shifokor tomonidan belgilanadi va muayyan patologiyalarni aniqlash imkonini beradi.

Buyrak kasalligi bor yoki yo'qligini tushunish uchun bemorning shikoyatlari mavjudligiga e'tibor berish kerak, ayniqsa siyishning chastotasi va o'zgarishi, siydikda qon va tungi diurezning ko'payishi kabi belgilar kuzatilsa. Muhim alomat lomber mintaqada, o'ngda yoki chapda pastki qorinda og'riqdir. Asosiy alomatlardan tashqari, tana haroratining keskin oshishi, umumiy zaiflik bo'lishi mumkin.

Ko'pincha buyrak kasalligi tonzillit, SARS, hipotermiyadan oldin bo'ladi. Belgilari shish va qon bosimi ortishi bo'lishi mumkin. Bu alomatlar glomerulonefrit bilan namoyon bo'ladi - turli shakllarga ega bo'lgan glomeruliyadagi yallig'lanish jarayoni. Shu munosabat bilan, belgilarning faqat bir qismi yoki hatto ulardan biri ustunlik qilishi mumkin. Shish borligida buyraklar qanday tekshiriladi? Avvalo, simptomning paydo bo'lishiga nima sabab bo'lganini aniqlash kerak. Agar ertalab shish paydo bo'lsa va ular teginish uchun yumshoq va iliq bo'lsa, unda siz nefrolog bilan maslahatlashishga borishingiz kerak.

Buyraklaringizning sog'lig'iga e'tibor berishingiz kerak. Shoshilinch ravishda shifokorni ko'rish va tekshiruvdan o'tish kerak. Ammo og'riq har doim ham yagona belgi emas, ular ko'pincha yallig'lanish paytida ikkinchi darajali alevlenmeler paytida paydo bo'lishi mumkin.

### ***Kasallikning belgilari***

Agar siz quyidagi 17 ta alomatlardan xavotirda bo'lsangiz:

1. Tez-tez siyish, ayniqsa kechasi, kechasi 2 martadan ortiq.
2. Siz siyish paytida og'riqni boshdan kechirasiz
3. Siydikdagi qon
4. Turli xil rangdagi siydik
5. Qopqoq aralashmalar mavjud
6. Siydikning yomon hidi
7. Qon bosimi 140/90 atrofida
8. Suvsizlanish
9. Buyrak paypaslanadi (odatda u umuman bo'lmasligi kerak)
10. Shish, shish paydo bo'ldi
11. Umumiy zaiflik va zaiflik
12. Harorat 37,5 darajaga ko'tarildi
13. Ichish uchun to'yinmagan istak
14. Siydik miqdorining kamayishi
15. Ishtahaning pasayishi

16. Og'irlikning pasayishi

17. Anemiya, oldingi qon yo'qotishsiz

• Tuzli, achchiq, go'shtli mahsulotlar va hokazolarni iste'mol qiling (iste'mol qilinadigan protein miqdorini nazorat qilishni unutmang, kuniga u 1 kg odam vazniga 0,7 grammdan oshmasligi kerak)

• Agar siz spirtli ichimliklarni, giyohvand moddalarni iste'mol qilsangiz

• Agar sizda qandli diabet yoki qizil yuguruk bo'lsa

• Buyraklar faoliyatini inhibe qiluvchi dorilarni qabul qilishda (masalan, Acyclovir, Biseptol, Aspirin diuretiklari)

Agar yuqoridagi alomatlardan biri sizni bezovta qilsa, shoshilinch ravishda siz uchun vakolatli tekshiruvni tayinlaydigan shifokorga murojaat qilishingiz kerak

Davolash usullari:

Nefrit: Buyrak yallig'lanishi ibuprofen (ibux) kabi yallig'lanishga qarshi dorilar bilan davolanadi.

Buyrak infeksiyasi: Siydik yo'llari infeksiyalari va pyelonefrit uchun ko'pincha antibiotiklar muammoni engish uchun ishlatiladi.

Buyrak toshlari: Ba'zi hollarda buyrakdagi kichikroq toshlar bilan (diametri 5-6 mm gacha) zararlangan odam siydik chiqarayotganda toshni chiqarib yuborishi mumkin. Bu darhol yaxshilanishga olib keladi. Kattaroq buyrak toshlarida toshni ezish uchun tovush to'lqinlari (ultratovush) yoki bosim to'lqinlaridan foydalanish mumkin - ammo ba'zi hollarda bu etarli emas, keyin jarrohlik aralashuv (jarrohlik) zarur bo'lishi mumkin.

**Xulosa:** Buyraklar chiqindilarni olib tashlash va suyuqlikni ushlab turish uchun javob beradigan ikkita organdir. Shuningdek, ular qon bosimini tartibga solishga, qizil qon hujayralarini ishlab chiqarishga, kislotani tartibga solishga va kaltsiy, natriy, kaliy va boshqa elektrolitlarga ta'sir qiluvchi gormonlar ishlab chiqaradi. Bu shuni anglatadiki, ular organizmdagi tuz va elektrolitlar tarkibiga bevosita ta'sir qiladi - bu organizmning to'g'ri ishlashi uchun juda muhimdir. Agar sida buyrak oragningiz og'riyotgan bo'lsa tezda shifokorga murojat qilishingiz kerak bo'ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. <https://www.vondt.net/uz/qayerda-xafa-qilding/buyrak-buyragi-og%27rig%27i/>
2. <https://mymedic.uz/kasalliklar/uroplogiya/buyrak-kasalliklari/>
3. <https://fingernal.ru/uz/nail-care/kak-proveryayut-pochki-metody-issledovaniikotorymi-proveryayut/>
4. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/271>
5. <https://interonconf.org/index.php/ger/article/view/103>
6. <https://interonconf.net/index.php/ca/article/view/2786>



UDK 616.48-576.851.49

## ICHAK O‘TKIR YUQUMLI KASALLIKLARI BILAN KASALLANGAN BOLALARDA SHARTLI PATOGEN ENTEROBAKTERIYALARNING UCHRASHI

**Shaykulov Xamza Shodievich**

[hamzashayqulov@gmail.com](mailto:hamzashayqulov@gmail.com)

**Boboqandova Mexriniso Fazliddinovna**

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Samarqand, O‘zbekiston.

[boboqandovamexriniso55@gmail.com](mailto:boboqandovamexriniso55@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu ishda ichak o‘tkir yuqumli kasalliklari bilan kasallangan 1 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan 1987 nafar bola va ularning 412 nafar onalaridan ajratilgan ichak enterobakteriyalari o‘rganilgan. Bunda, ushbu urganilganlardan ajratilgan shartli patogen enterobakteriyalar: Escherichia, Citrobacter va Proteus oilasidagi bakteriyalarning ajralish chastotasi va klinik ahamiyati yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Ichak o‘tkir yuqumli kasalliklari, shartli patogen, enterobakteriya, dizenteriya, dispepsiya, gastroenterit, Salmonella typhimurium, Shigella, Escherichia, Citrobacter va Proteus.*

**Kirish.** Dunyoda har yili bir milliardga yaqin diareya kasalliklari ro‘yxatga olinadi [1,4,11]. Ichak o‘tkir yuqumli kasalliklari tobora muhim ahamiyat kasb etib JSST ma‘lumotiga ko‘ra yiliga taxminan 1,7 milliard odam turli xil etiologiyali o‘tkir diareyadan aziyat chekadi va 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning o‘limi yiliga 1,5 milliongacha etmoqda [1,5,11]. Shu sababli issiq iqlimli va rivojlanayotgan

mamlakatlarda bakterial etiologiyali ichak o'tkir yuqumli kasalliklari sog'liqni saqlash tizimidagi davlat ahamiyatidagi muammoga aylangan [3,9,11,13]. Rivojlangan mamlakatlarda kishi boshiga yiliga o'rtacha kamida 3 martagacha diareya to'g'ri kelib, 2,5-3,2 mln ga yaqin gastroenterit holatlari o'lim bilan yakunlanmoqda [7,9,11,14].

So'nggi yillarda bolalar ichak o'tkir yuqumli kasalliklarining sababchilari sifatida enterobakterialar oilasidan *Escherichia*, *Citrobacter* va *Proteus* infeksiyalari taxmin qilinmoqda [2,10,12]. *Escherichia*, *Citrobacter* va *Proteus* oilasidagi bakteriyalarning monokulturalarining morfologik belgilari va virulentlik omillari bo'yicha qiyosiy tavsiflash uchun ilmiy ma'lumotlar mavjud [6,8].

**Ishning maqsadi.** Ichak o'tkir yuqumli kasalliklari bilan kasallangan bolalarda shartli patogeni enterobakteriyalarning turlarini va ularning uchrash chastotasini aniqlash.

**Materiallar va uslublar.** Ichak o'tkir yuqumli kasalliklarida shartli patogen enterobakteriyalarning turlari va uchrash chastotasini aniqlash uchun bolalar shifoxonasida davolanayotgan 1 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 1987 nafar bolalar va ularning 412 nafar onalaridan ajratilgan ichak enterobakteriyalari o'rganildi. Patogen va shartli patogen ichak enterobakteriyalarini aniqlash uchun har bir urganiluvchilardan kamida 3 martadan 5 martagacha tekshirish materiallari olindi. Ajratilgan shartli patogen ichak enterobakteriyalarini xalqaro qo'mita tomonidan tavsiya etilgan Enterobacteriaceae larni identifikatsiya qiluvchi 12 xil testlarga muvofiq kultural-biokimyoviy tekshiruvlar asosida oila va turlarga bo'lindi.

**Olingan natijalar va muhokama.** Tadqiqotlar natijasida 965 bemorda (48,5%) bakterial etiologiyali ichak o'tkir yuqumli kasalliklari ekanligi aniqlandi. Tekshirilgan bemorlarning ko'pchiligidan (31,1%) *Salmonella typhimurium* ajratildi. Boshqa bemorlarning 18,9 % holatida *Shigella* oilasiga, 8,4 % holatida enteropatogen *Escherichia* oilasiga, 1,5 % holatida ularning o'zaro kombinatsiyalashgan ko'rinishidagi bakteriyalar ajratildi.

Bakterial etiologiyali ichak o'tkir yuqumli kasalliklari bilan kasallangan 163 ta (19,9%) bemorlarda, maxsus patogenlardan tashqari shartli patogen ichak enterobakteriyalarining vakillari aniqlandi: jumladan 23,7 ta holatda *Escherichia* oilasidagi, 17,3% ta holatda *Proteus* oilasidagi, 2,1% *Citrobacter* oilasidagi bakteriyalar, 6,2% holatda *Escherichia* va *Citrobacter* oilasidagi bakteriyalar birgalikda, 4,8% holatda *Escherichia* va *Proteus* oilasidagi bakteriyalar birgalikda aniqlandi. 1,5% holatda *Citrobacter* va *Proteus* oilasidagi bakteriyalar birgalikda ajratildi. Klinik dizenteriya va toksik dispepsiya bilan og'riqan bemorlarda oddiy dispepsiya va gastroenterit bilan og'riqan bemorlarga qaraganda *Proteus* oilasidagi bakteriyalar 4 marta yuqori; gastroenterit tashxisi qo'yilgan bemorlarda esa *Citrobacter* ko'proq aniqlandi. Qiyoslash uchun urganilgan 352 nafar sog'lom bola tekshirilganda 8 nafari (2,2%) dan shartli patogen ichak enterobakteriyalari aniqlanib, ulardan 4 nafari (3,8%)da enteropatogen *Escherichia*, 3 nafari (0,8%)da *Citrobacter* oilasidagi bakteriyalar ajratildi.

Etiologiyasi aniq va etiologiyasi aniqlanmagan ichak o'tkir kasalliklari bilan og'riqan bemorlarda va sog'lom bolalarda *Escherichia*, *Citrobacter* va *Proteus* oilasidagi bakteriyalarning aniqlanish chastotasi qiyoslanganda, salmonellyoz va dizenteriya bilan og'riqan bemorlarda shartli patogen ichak enterobakteriyalari 2,5 baravar ko'proq aniqlandi. Sog'lom bolalarga nisbatan noma'lum etiologiyali yuqumli ichak bakterial kasalliklari bilan kasallangan bemorlarda 9 baravar ko'p uchrashi va kasallikning aniqlanmagan turi bo'lgan bemorlarga qaraganda 3 baravar kam ajratilgan.

**Xulosa.** Tekshirilgan 386 nafar onalardan 16,6 foiz holatda shartli patogen enterobakteriyalar aniqlangan. Bemor bolalar va ularning onalaridan 12 ta holatda *Escherichia*, 3 ta holatda *Citrobacter* va 6 ta holatda *Proteus* bir vaqtda ajratildi.

Maxsus bakteriyalar yoki ular bilan birgalikda *Escherichia*, *Citrobacter*, *Proteus* kabi bakteriyalar ajratilgan salmonellyoz va dizenteriya kasalliklarida klinik simptomlar (najas turi, patologik elementlarning mavjudligi, rektoromanoskopdagi morfologik o'zgarishlar tahlili, koprogramma va boshqa belgilar) qiyosiy urganildi..

Aniqlandiki, salmonellyoz bilan kasallangan bolalarda shartli patogen ichak enterobakteriyalari (*Escherichia*, *Citrobacter*, *Proteus*) ning uchrashi najas turining o'zgarishiga, najasda patologik elementlarning paydo bo'lishiga va ichak shilliq qavatidagi patologik o'zgarishlarga ahamiyatli ta'sir etmadi. Biroq, bakterial ichburug' (dizenteriya) da klinik holatning og'irlashuviga sabachi bo'ldi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Мухамедов И. М., Юсупов М. И., Шайкулов Х. Ш. ДИФФЕРЕНЦИАЛЬНЫЙ ДИАГНОЗ ЭНТЕРОКОЛИТОВ У ДЕТЕЙ //Innova. – 2022. – №. 2 (27). – С. 35-39.
2. Одилова Г. М., Шайкулов Х. Ш., Хусанов Э. У. Ультрaструктура слизистой толстой кишки у больных острой дизентерией //Астана медициналық журналы. – 2022. – №. S1. – С. 62-68.
3. Шайкулов Х. Ш., Худаярова Г. Н. Развитие кишечных расстройств у детей грудного возраста, вызванных различными микроорганизмами и гельминтами //Педиатр. – 2017. – Т. 8. – №. S.
4. Юсупов М., Шайкулов Х., Одилова Г. Антигенное сходство *e. coli*, выделенных от матерей и их детей //Журнал вестник врача. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 130-133.
5. Gadaevich K. A., Fazliddinova B. M. Morphofunctional State of The Reproductive System in Mature Intact Rats in the Arid Zone //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 511-516.
6. Karabaev A., Bobokandova M. REACTIVITY OF THE REPRODUCTIVE SYSTEM IN MATURE INTACT RATS IN THE ARID ZONE //International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research. – 2022. – Т. 2. – №. 10. – С. 50-55.
7. Sh S. H., Mamarasulova N. I. O 'TKIR DIAREYALARDA ESHERIXIYALARNING AJRALISHI. – 2023.
8. Vaxidova A. M. et al. KATTALARDA TILLARANG STAFILOKOKK INFEKSIYASI VA UNING ANTIBIOTIKKA SEZGIRLIGI

//AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 170-175.

9. Azimovich A. U. B., G'iyosovna S. D., Zokirovna M. M. XLAMIDIYANING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRINI MIKROBIOLOGIK TAHLILLI VA DIOGNOSTIKASI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 153-161. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7305057>

10. Dildora S., Mekhriniso B. APPLICATION AREAS OF BIOLOGICALLY ACTIVE METABOLITES PRODUCED BY ENDOPHITE BACTERIA //E Conference Zone. – 2023. – C. 92-95.

11. Boboqandova Mexriniso, & Shodiyeva Dildora. (2023). ENDOFIT BAKTERIYALARNING BIOLOGIK FAOL METABOLITLAR SINTEZ QILISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING QO'LLANILISH SOHALARI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7574844>

12. Giyosovna, S. D. (2023). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O'SIMLIK QISMLARIDAN ENDOFIT BAKTERIYALARNING SOF KULTURALARINI AJRATISH USULLARI. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(6), 387-393. <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/3573>

13. Shodiyeva, D. (2023). BIO-MORPHOLOGICAL CHARACTERISTICS, GEOGRAPHICAL DISTRIBUTION AND USE IN TRADITIONAL MEDICINE OF CICHORIUM INTYBUS. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 252-256. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1337>

14. Shodiyeva, D. (2023). SANOAT MIKROBIOLOGIYASINING BIOTEXNOLOGIYADAGI AHAMIYATI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 116-120. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1310>

15. Shodiyeva, D. (2023). INDOLIL SIRKA KISLOTA MIQDORINI ANIQLASH. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 321-324. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1361>

16. Dildora, S. (2023). CICHORIUM INTYBUSDAN OLINGAN BACILLUS AVLODIGA MANSUB BAKTERIYALARINING BIOTEXNOLOGIK POTENSIALI VA

MIKROBIOLOGIYADAGI ISTIQBOLLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(15), 726-732.

<https://bestpublication.org/index.php/ozf/article/view/3359>

17. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. O. S. (2022). O'SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB Olish.

18. G'iyosovna, S. D., & Muxriddin G'iyos o'g, A. (2023). DOMINANT MICROORGANISMS IN CICHORIUM INTYBUS.

<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1492>

19. Boltayev, K. S., & Jamalova, F. A. (2023). MIKOZLARGA MIKROBIOLOGIK MIKROSKOPIK TASHXIS QO'YISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(3), 35-40.

<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1466>

20. Жамалова, Ф. А., Болтаев, К. С., & Шодиева, Д. Г. (2023). ВОЗБУДИТЕЛИ МИКОЗОВ СЛЕПНЕЙ НА ТЕРРИТОРИИ РАЗЛИЧНЫХ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА. GOLDEN BRAIN, 1(3), 28-34.

<https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1465>

21. Jamalova, F. A., & Boltayev, K. S. (2023). BACILLUS THURINGIENSIS BAKTERIYALAR ASOSIDA YARATILGAN BIOPREPARATLAR. GOLDEN BRAIN, 1(3), 23-27. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1464>

22. Hamza, S., Muzaffar, A., Dildora, S., & Ulugbek, A. (2023). BACILLUS THURINGINGIENSIS BAKTERIYA SHTAMMLARINING PHASEOLUS VULGARIS OSIMLIGI BIOMETRIK KORSATKICHLARIGA VA RIVOJLANISHIGA TASIRI. Scientific Impulse, 1(6), 327-332.

<http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4355>

23. Dildora, S., & Mekhriniso, B. (2023). APPLICATION AREAS OF BIOLOGICALLY ACTIVE METABOLITES PRODUCED BY ENDOPHITE BACTERIA. World Bulletin of Public Health, 18, 112-114.

<https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/2073>

24. o'g'li Shernazarov, F. F., & qizi Tohirova, J. I. (2023). BAKTERIYALARNING

IKKILAMCHI BIOLOGIK FAOL METABOLITLAR SINTEZ QILISH XUSUSIYATLARI VA ULARNING FARMASEVTIKADA QO‘LLANILISHI. RESEARCH AND EDUCATION, 2(1), 269-276.

<https://researchedu.org/index.php/re/article/view/1455>

25. Vahobovna, M. Z., & Dildora, S. (2023). BIOLOGY AND BIOTECHNOLOGY OF ENDOPHITE MICROORGANISMS. *World Bulletin of Public Health*, 18, 115-117. <https://scholarexpress.net/index.php/wbph/article/view/2074>

26. Azimovich, A. U. B., & G‘Iyosovna, S. D. (2023). O‘SIMLIK O‘SISHI VA RIVOJLANISHIDA FOYDALI MIKROORGANIZMLARNING AHAMIYATI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(17), 257-260.

<https://cyberleninka.ru/article/n/o-simlik-o-sishi-va-rivojlanishida-foydali-mikroorganizmlarning-ahamiyati>

27. Azimovich, A. U. B., G‘Iyosovna, S. D., & Akmalovich, M. A. (2023). ANTIBIOTIKLAR TA‘SIR DOIRASIGA KO‘RA KLASSIFIKATSIYASI. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(17), 245-251.

<https://cyberleninka.ru/article/n/antibiotiklar-tasir-doirasiga-kora-klassifikatsiyasi>

28. Annayeva, D. (2022). CICHORIUM INTYBUS LISOLATION OF ENDOPHYTIC MICROORGANISMS FROM PLANTS AND IDENTIFICATION OF BIOTECHNOLOGICAL POTENTIAL. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 2(6), 54–61. *извлечено от* <https://www.in-academy.uz/index.php/EJMNS/article/view/1755>

29. Annayeva, D. G. Y., Azzamov, U. B., & Annayev, M. (2022). ODDIY SACHRATQI (CICHORIUM INTYBUS L) O‘SIMLIGIDAN ENDOFIT MIKROORGANIZMLAR AJRATIB OLIISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 963-972.

<https://cyberleninka.ru/journal/n/oriental-renaissance-innovative-educational-natural-and-social-sciences>

30. Gadaevich, K. A., & Fazliddinovna, B. M. (2022). Morphofunctional State of The Reproductive System in Mature Intact Rats in the Arid Zone. *Central Asian*

*Journal of Medical and Natural Science*, 3(5), 511-516.  
<https://cajmns.centralasianstudies.org/index.php/CAJMNS/article/view/1121>

31. Fazliddinova, B. M., Olimova, O. P., & Abduhakimovich, X. D. (2022). Innovative technologies in the training of future doctors. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 12(4), 594-597.  
<https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=12&issue=4&article=096>

32. Орипова, П. О., Бобоқандова, М. Ф., & Шомуродова, Г. Т. (2021). КЛИНИКО-ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ГНОЙНОГО ПНЕВМОКОККОВОГО МЕНИНГИТА У ДЕТЕЙ В САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ (САМАРКАНДСКИЙ МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ). *Экономика и социум*, (5-2), 139-150. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=46392508>

33. XUDJAQULOV, D., ORIPOVA, P., & BOBOQANDOVA, M. SURUNKALI BRUSELLOZ KASALLIGIDA FIZIOTERAPIYA MUOLAJALARINI QOLLASH XUSUSIYATLARI. *ЭКОНОМИКА*, 154-160.  
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=48177363>

34. Хусанов, Э. У., Расулова, М. Р., & Шайкулов, Х. Ш. (2022). Особенности повреждений подъязычно-гортанного комплекса при тупой механической травме. *Астана медициналық журналы*, (S1), 262-265.  
<https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-povrezhdeniy-podyazychno-gortannogo-kompleksa-pri-tupoymehanicheskoy-travme>

35. Шайкулов, Х. Ш., Исмаилов, Ю., & Махсудова, О. (2021). Клинико-лабораторная характеристика сальмонеллезной инфекции у детей. *Биология*, (5), 130. <http://pbim.uz/web/upload/1639035434.pdf>

36. Юсупов, М. И., Шайкулов, Х. Ш., Жамалова, Ф. А., & Очилов, У. У. (2021). Иммунный статус детей с коли инфекцией, вызванной гемолитическими эшерихиями до и послелечения бифидумбактерином и колибактерином. *Биомедицина ва амалиёт. Самарқанд*, 6, 272-276.

37. Sh, S. H., & Mamarasulova, N. I. (2023). ANTIBIOTIKLAR VA



*ANTIBIOTIKOREZISTENT LAKTOBAKTERIYALARNI BIRGALIKDA  
BOLALARDAGI ESHERIXIOZ KASALLIKLARNI DAVOLASHDA QO 'LLANISHI.*

38. Шодиевич, Ш. Х., & Нарзиев, Д. У. (2023). БОЛАЛАР ИЧАК ЭШЕРИХИОЗИНИ ДАВОЛАШДА АНТИБИОТИКОРЕЗИСТЕНТ ЛАКТОБАКТЕРИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ САМАРАДОРЛИГИ. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 1(17), 236-244.

39. Нарзиев, Д., & Шайкулов, Х. (2023). Чувствительность к антибиотикам *salmonella typhimurium*, находящихся в составе биопленок. *Eurasian Journal of Medical and Natural Sciences*, 3(1), 60-64.

40. Одилова, Г. М., Рустамова, Ш. А., Мамарасулова, Н. И., & Болтаев, К. С. (2019). Клинические особенности течения ветряной оспы у взрослых в современных климатических условиях. *Вопросы науки и образования*, (28 (77)), 70-78.

41. Sultonovich, B. K., Isrofilovna, M. N., Abdusalomovna, J. F., & Olimovna, O. P. (2022). A comparative study of nematoda facilities of shortage plants and trees in zarafshan forest biotopes. *Academicia Globe: Inderscience Research*, 3(5), 1-5.

## MAIN PROBLEMS CAN BE FOUND WHILE TRANSLATING LITERARY TEXTS

**Khalmuratova Manzura Khoshmatova**

Master's student at the National University of Uzbekistan  
named after Mirzo Ulugbek Faculty of Foreign Philology

Department of English linguistics

### **ABSTRACT**

*Proper name translation is one of the most challenging challenges that might arise when translating a literary text. This is because of two factors. To begin with, philosophers of language disagree on whether proper names are meaningful or not. There are also the offered translation theories that are inconsistent. In this essay, we shall examine the significance of proper name translations in English literature.*

**Keywords:** *Culture, proper names, literary texts, linguoculture.*

### **ANNOTATSIYA**

*Atoqli ot (ismlar) tarjimasi - badiiy matnni tarjima qilishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan eng qiyin muammolardan biri. Buning sababi ikki omil hisoblanadi. Birinchisi, til foydalanuvchilarining o'ziga xo'surf-odatlariga atoqli otlar tarjimasi jarayonida turli qaramaqarshiliklarga sabab bo'ladi. Ikkinchidan, taklif qilinayotgan bir-biriga zid bo'lgan tarjima nazariyalari ham mavjud. Ushbu inshoda biz ingliz adabiy adabiyotida tegishli atoqli nom tarjimalarining ahamiyatini hamda yuzaga kelyotgan muammolarini ko'rib chiqamiz.*

### **АННОТАЦИЯ**

*Перевод имени собственного – одна из самых сложных задач, которые могут возникнуть при переводе художественного текста. Это связано с двумя факторами. Начнем с того, что философы языка расходятся во*

*мнениях относительно того, значимы имена собственные или нет. Существуют также предлагаемые теории перевода, которые противоречивы. В этом эссе мы рассмотрим значение переводов имен собственных в английской литературной литературе.*

**INTRODUCTION.** The interpretation of proper names is one of the most difficult challenges in literary translation. This complication derives from two issues: the lack of a specific theory about name translation and the current trend force. The ambiguity over what to do stems from differing perspectives on the meaning of proper names. It may appear that we are not dealing with a significant issue; but, it becomes more complicated when the names in a literary work have a crucial meaning inside that work. In this situation, the translator has several possibilities; in certain cases, choosing one is practically impossible. The next article will address this issue: the appropriate translation of proper names in Uzbek in literary English texts. The translation of proper names in literature is fraught with uncertainty. This is why we will combine existing trends to determine which one is best suited for translating our corpus of samples. The goal is to demonstrate a consistent theory in the translation of proper names is required. To achieve the aforementioned goal, we must first develop a theoretical framework that allows us to understand all of the many patterns in proper name translation. This theoretical framework is divided into two parts: the first deals with the meaning of proper names, and the second with the delimitation of the many translation alternatives. After we've established the theoretical framework, we'll need to deal with a set of proper names.

Proper names are typically classified into four categories. In the literary realm, they can be used to create names for persons, places, objects, and animals. We will concentrate on people's names and examine how distinct literary universes are established based on the invention of specific names that contribute to making that universe more genuine.

**The conflict between culture and translation of proper names.** Interaction between language and culture, especially foreign language teaching is evident in the process. A person while learning his mother tongue gradually assimilates his national culture, traditions, and customs perceive. But it is different in learning a foreign language perfectly understands the worldly view of the people and other nations. Today, one of the main goals of language teaching is language formation of communicative language skills in the learner and their enrichment of the socio-cultural outlook, and culture the level of opinions expressed in dialogues is to increase. The complex relationship between culture and language. One of the psycholinguistic processes - translation is an important profession enough. The translation is linguistic in conveying the original meaning of information. The goal is to find the appropriate units and use them effectively will do. It interacts with the foreign language culture of our own culture related to attitudes and individual differences and understanding of the world prioritize certain cognitive processes.

Language lexicon as a means of expressing human culture specifically reflected in the different peoples of the world to define cultural conceptual concepts and reveal their essence helps to give. Proper names are important in certain cultures and are of great importance in revealing concepts. Along with cultural dominants, famous nouns are a nation a symbol of enlightenment and spirituality, and humanity itself in society's special place and formation, its direct and inseparable connection with society, also describes the influence of society on human life. Along with cultural dominants, proper names are a nation a symbol of enlightenment and spirituality, and humanity itself in society's special place and formation, its direct and inseparable connection with society, also describes the influence of society on human life. The translation of common nouns from one language to another is somewhat different and is a complex and multifaceted process. The reason is that famous proper names as a carrier of information about the nation's national culture have properties, including that they have a second figurative meaning can be. In addition, the specific semantics

of noun structures determine the complexity of the translation process. The problem of translation of proper nouns is studied with the following aspects is done: first, in terms of their referentiality, secondly, their connection with nominative and connotative aspects, thirdly, in terms of intercultural communication. T.A. Kazakova's separate lexical methods of translation of nouns emphasize. The main function of nouns is individual identification, they perform their task in the translation process along with comparative autonomies that do not depend on the context participants. Common nouns are important because they are translations to be able to reinforce the text being made in different directions has the ability. How to translate them into a foreign language depends on the translator's choice. These are two of the famous proper names bias feature, to them as non-standard language units specify the approach. In such cases, translation from an interpreter There is a need to create special translation methods in the target language will be done. Translation, transcription, transliteration, and semantics a wide range of ways to modify, describe, copy, and interpret is used.

Literature Analysis and Methods. Language and culture also have their functions in society: 1. Cognitive task. This function of linguoculture is manifested in science. Language is a carrier of cultural knowledge. Through language, we become aware of the universe and ourselves. 2. Representative task. Language and culture help people consolidate the results achieved in the course of their spiritual and material activities. It serves to transmit the subject and information to subsequent generations. 3. Semiotic task. In other words, a function of symbols. Based on generally accepted ideas, we can say that language is a system of signs. They also include cultural symbols. 4. The task of communication. Language is not only a means of communication between people but also a carrier of cultural information between them. 5. Axiological function. Evaluation is a function that teaches you to distinguish between what is good and what is bad. 6. Normative function. Moral norms related to customs and traditions. This includes national, religious, and universal values. One of the

topical issues is the correct use of linguistic and cultural aspects in translation. We have set a goal to consider the point of view of this direction in literary translation and how to convey in the correct form words and thoughts related to linguoculture. To form the ability to engage in communication. This principle means increasing the level of readiness of translation personnel for a realistic approach in situations arising in various cross-cultural communications. That is, it is necessary to ensure the correct coverage of the translation text without difficulty in any difficult situation that requires a translator to have rich knowledge in various fields. A principle that requires both the role of a professional informant and the holder of academic social knowledge. Be able to use disparate data. This principle implies the ability to develop the ability to use one's knowledge in various fields, from translator to translator, precisely on the basis of translation. The acquisition of linguistic and cultural knowledge by specialists in the field of translation should be formed through the disciplines of translation theory, and their correct practical use in the process of translating materials of different genres should be a priority. Of great importance in the process of linguistic and cultural analysis is a thorough study of the linguistic units of foreign languages selected for work in the field of translation. In addition, in order to be able to perceive cross-cultural differences, it is also necessary to understand and study the mentality of the people in the language of the original text. Mastering lexical, grammatical, and stylistic techniques on the spot in accordance with the norms of translation improves the quality of translation.

The task of the translator when translating literary texts is to fully convey the author's purpose of the translated language. In fiction, colors are also widely used to denote the names of heroes. Names are given using colors depending on the behavior of the hero. American writer Joel Heller in "Catch 22" has Captain Black (Captain Black). In the Russian translation of this work (translated by A. Kistyakovsky), the translator calls this character Captain gnus, personifying the negative in the work, stemming from dark, evil, ugly,

and ugly meanings of black in English. Gnus can reveal the meanings of the sourcetext in

Russian in excess. If the name Black in the original text was taken in this form in translation, then for the Russian-speaking reader it would be considered just a noun expressing the character of the character and having no meaning. Coloring in English would lose its relevance in Russian. Although the author uses such names precisely in order to give additional information and enhance the emotional coloring. That is why the translation of eminent nouns chosen using colors is a serious matter that a translator must fulfill. In Rowling's novel Harry Potter and the Secret Chamber, the phrase salmon-pink is used to indicate the color of clothing when depicting the jacket of one of the characters. We can see the source text and one of the variants of its translation. She was already wearing a Salmon-Pink cocktail dress. An Evening plate of light salmon was already beating on her. with a literal translation into Russian, a very rude and disproportionate phrase would have turned out. Because none of the languages have exactly the same color. Therefore, the phrase denoting color, when translated grammatically turns into another fragment of the sentence

**Conclusion.** Instead of a conclusion, we can say that the role of linguoculture is invaluable in artistic translation. In general, without linguistic and cultural knowledge and skills, the translator will not be able to achieve results. It's natural. But the main thing we should pay attention to is the training of qualified translation specialists. Because the concept of culture continues to change as society develops. Consequently, the concept of linguoculture will also continue to be updated. It affects fiction as well as other fields. There is fiction that will definitely be in demand and needs translation. Thus, we must support translators, and create conditions for them to acquire both theoretical and practical knowledge in order to provide a worthy replacement for our translation schools in the future.

**REFERENCES**

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология (Теория и методы). – М., 1997. – 313с.
2. Ермолович Д.И. Имена собственные на стыке языков и культур/ Д.И. Ермолович.–М.:Издам. «Р. Валент», 2001// <http://e-repa.ru/files/translation/ermolovich-names-pt1.pdf>
3. Казакова Т.А. Практические основы перевода / Т.А. Казакова. – СПб.: Союз,2001.—320 с
4. Cronin, M. (2000). “History, Translation, Postcolonialism.” In *Changing the Terms: Translating in the Postcolonial Era*, edited by Sherry Simon and Paul St-Pierre, 33–52. Ottawa: University of Ottawa Press. [[Crossref](#)], [[Google Scholar](#)]
5. Davies, E. E. (2003). *A Goblin or a Dirty Nose? The Translator Studies in Intercultural Communication* 9 (1): 65–100. [[Taylor & Francis Online](#)], [[Google Scholar](#)]
6. Dunne, É. 2010. *J. Hillis Miller and the Possibilities of Reading: Literature after Deconstruction*. London: Continuum. [[Google Scholar](#)]
7. Fernandes, L. (2006). “Translation of Names in Children’s Fantasy Literature: Bringing the Young Reader into Play.” *New Voices in Translation Studies* 2: 44–57. Retrieved May 27, 2016 from <http://www.iatis.org/newvoices/issues/2006/fernandes-paper-2006.pdf> [[Google Scholar](#)]
8. . Timko N.V. *Linguocultural aspects of the translation of color designations*. Kursk-20127.Rustamov, I. (2020).



**O‘ZBEK XALQI MILLIY URF-ODATLARIDA MEHMON KUTISH ODOBI****Tovbekova Durdona**

O‘zbekiston Milliy universiteti

Tarix fakulteti “Antropologiya va etnologiya”

yo‘nalishi 2-kurs talabasi

**ANNOTASIYA**

*Ushbu maqolada o‘zbek xalqi milliy urf-odatlarida mehmondorchilik, mehmon kutish odobi mavjud manbalar, tarixiy-etnografik, diniy adabiyotlar hamda etnologik dala materiallari asosida yoritilib berilgan.*

Insoniyat tarixini dastlabki bosqichlarida shakllangan mehmondorchilik odati hayotiy zaruratlar bilan bog‘liq va tarixni turli bosqichlaridan o‘tib, hozirga qadar yetib kelgan. Ma‘lum sabablar bilar tarqalib ketgan urug‘-aymog‘lar, bir-birlarini axtarib topgach, ular ulug‘ mehmon tarzida izzat-ikrom bilan kutib olingan. Sharq xalqlarida, jumladan o‘zbek xalqida mehmondorchilik odati ham keng tarqalgan udumlardan.

Madaniyatimizning ko‘hna manbalarida mehmondorchilik insonning, oilaning qabila va xalqning odamiylik saxovati, madaniy va ma‘naviy aloqasi-muloqoti mezoni sifatida juda katta qadr bilan tilga olinadi. Bora-bora mehmondorchilik xalqlarning udumiga aylangan; mehmonga nafaqat urug‘doshlar va qarindoshlarni, hatto begona kishilar, yo‘lovchilarni ham taklif qilishgan. Mehmoni qabul qilish uchun mahalla va qishloq jamoalari xonodonlarida maxsus xonalar- mehmonxon qurilgan. Mehmonni odat bo‘yicha mehmonxonada qabul qilgan. Mehmonxonasi bo‘lmagan xonadon uni yashab turgan uyiga taklif qilgan. Jizzaxda kelgan mehmoning oldiga dasturxonga juft non qo‘yiladi. Jizzaxda nonning bug‘doy non, arpa non, oq jo‘xori non, jizzali non, qaymoqli non, lochira non, sutli non, kulcha non,

kadili non, piyozli non, sedanali non, kunjutli non, qat-qat patir, qozon patir, qatlama, qotirma kabi turlari bo‘lgan.

Mehmonnovozlik odatlari orasida jizzaxliklarning mehmondorchilik an‘analari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Jizzaxda uyga mehmon odatda to‘riga o‘tkaziladi. Ulug‘ mehmon oyog‘i tagiga poyonoz tashlab, ba‘zan qo‘y so‘yib kutib olingan. To‘kin dasturxon yozilib, non va choy keltiriladi. Keyinroq so‘yilgan hayvon go‘shidan taom pishirilib, ko‘pincha sho‘rva, jiz, palov tortiladi. Mehmoning minib kelgan uloviga ham pichan-yem berilgan. Mezbon iloji boricha uyning mehmonga saxovat ko‘rsatishi shart bo‘lgan. Mehmon imkon darajasida kutib olinmasa xonodon sohibi jamoa nazaridan qolgan.

Dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadigan aholining dasturxon bezashida va mehmon kutishida umumiy o‘xshashlik bo‘lsada, lekin o‘ziga xoslik yaqqol ko‘zga tashlanib turgan. Masalan, dehqonchilik bilan shug‘ullangan o‘troq aholida dasturxon bezatishning o‘ziga xosligi shundaki, dastavval daturxonga issiq taomlardan oldin turli oziqlar, jumladan har xil shirinliklar, yaxna gazaklar, meva-chevalar, murabbolar, shinnilar dasturxonga bezab qo‘yilgan, dasturxonga turli oziqlarning birdaniga qo‘yilishi, mehmonlarning taomlarni xiliga qarab, tegishli ishtaha saqlay olishlari va ovqatlarining to‘g‘ri tashkil qilinishlariga imkon yaratib bergan. Chorvodor aholi esa mehmon dasturxoniga qaymoq, saryog‘, quruq mevalar qo‘yishgan. Shinni, murabbo chorvodor aholi dasturxonida deyarli bo‘lmagan. Mehmon kelganida qo‘y so‘yilsa, dastlab qo‘yning go‘shidan jigar, o‘pka-buyraklari, dumbasidan qora qovurdoq qilib mehmoning oldiga qo‘yilgan. Keyin qaynatma sho‘rva osilib, go‘shiti alohida laganda dasturxonga tortilgan. So‘yilgan qo‘yning kallasi, poychalari, ichak-chavoqlari ham pishirilib, dasturxonga keltirilgan, qo‘yning kallasi solingan lagan eng aziz, yoki yoshi ulug‘ mehmonning oldiga qo‘yilgan. Shu tariqa mehmonlarga izzat-hurmat qilingan.

O‘zbek milliy odatiga binoan, mehmoni dasturxon atrofiga chorlab joylashtirish asosan ularning yoshiga va el oldidagi hurmatiga qarab to‘rdan boshlanadi. Fotiha o‘qilgach, dastavval non ushatilib, mehmonga choy beriladi. Choyda har bir

mehmonga bittadan piyola, Xorazmda esa har bir kishining o'ziga choynak piyola qo'yiladi. Mehmondorchilikda "oling oling" ga o'rgangan kishi xorazm tomonlarga borib qolsa, ajablanishi mumkin. Ularda mehmonga "oling-oling" demaydilar. Bu odatni mehmonga nisbatan hurmatsizlikni ko'rmaslik kerak. Ko'pchilik joylarda choyni mezbonning o'zi quyib beradi yoki bu vazifa mehmonlar orasida eng yoshiga topshiriladi. Odat bo'yich, o'zbeklarning xonodonga kelgan kishi dasturxoniga, bir piyola choyga yoki non-tuz totishga taklif qilinadi. "Qobusnoma" asarining Mehmon chaqinch va mehmon bo'lish haqidagi bobida yosh mezbon uchun shunday nasihat yozilgan; "Ey farzand, mehmonga minnat qilmagin, ochiq yuz bilan gapirgan. Har bir kishi sening mehmoning bo'lsa, shodlik bilan taomingni yesin. Lekin o'zing sharobni kam ichgil, mehmondan ilgari mas bo'lmagil va hamma vaqt ochiq yuzli bo'lgil, kulib turgil. Ammo behuda kulma, ko'p kulish bir nav devonalikdir." O'zbek mehmondorchilik taomilidan yana biri mehmon kimning xonadonga kelishidan qa'tiy nazar, uni zudlik bilan borib ko'rishga oshiqqanlar. Chunki mehmon ayni vaqtda qishloq yoki mahalla jamoaning ham mehmoni hisoblangan. Uni borib ko'rishni o'zlariga sharaf deb bilganlar. Mehmonni navbati bilan boshqa xonadon sohiblari ham uylariga taklif qilish odat bo'lgan. Ziyofatga qo'shnilar, mahalladoshlar yoki qishloq oqsoqollari, hurmatli kishilar taklif etilgan. Mehmonni kuzatish oldidan sarpo kiydirish odati ham bo'lgan. O'zbek xalqining mehmondorchilik taomillari ajdodlardan avlodlarga o'tib, hozirgacha saqlanib kelmoqda.

Biz o'zbeklarda umuman, musulmonchilikda mehmon hatto g'arazli maqsadda yurtga, qabila yo oilaga yomon niyat, dushmanlik maqsadi bilan kelgan bo'lsa ham, mezbon buni sezsa, yaxshi bilsada, mehmondorchilik odatiga keltirmagan. Albatta, mehmon sharafiga, uning qutlug' poyi qadamiga atab jonliq-qo'yliq so'yilgan, to'kin dasturxon bezatilgan. Chunki bu nafaqat o'sha oila balki, qabila, qishloq, millatning sha'ni sanalgan. O'zbek dasturxoniday jannatliy noz-ne'matlarni boshqa joyda uchratish qiyin. Non-u choy, nisholda-yu murabbo, asal-u qand-qurs, mayiz-u yong'oq, danag-u no'xot, behi-yu nok, xurmo, olma-uzum, qovun-u tarvuz, ovqatlardan moxoro-yu qobuliy sho'rva, norin-u shilpildoq, qazi-yu qarta, chuchvara-

yu manti, kabob-u palov... O'zbek dasturxonida mehmondorchilik eng obro'li milliy taom- palov iste'moli bilan xotimalanadi. Ana shundan keyin dasturxon haqiga fotiha o'qilib, izzatli mehmon bilan xayrlashuv oldidan, unga chopon, belbog', do'ppi kiygiziladi.

Eng muhimi, bulardan tashqari o'zbek xalqining o'ziga yetar xonadonlarida, deyarli har bir hovlida maxsus mehmonxonalar bo'lgan. Ko'proq bunday mehmonxonalar ichkari-tashqari hovlining tashqarisida, ko'chadan kiraverishda ko'ndalang uydan iborat bo'lgan. Bunday uylar kamida 9, bo'lmasa 11 bolorli, keng va katta xonalardan iborat bo'lgan. Mehmonxona maxsus jihozlangan bo'lib, unda mehmonlar uchun barcha sharoitlar taxt qilib qo'yilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yuqorida qayd etilgan ma'lumotlarni umumlashtirgan holatda shuni aytishimiz mumkinki, o'zbek elining eng ajoyib an'alaridan, g'ururlanadigan milliy fazilatlaridan biri mehmondorchilikdir. Qadimgi davrlardan mehmon kutish va unga dasturxon yozib bezatish katta sa'nat hisoblangan.

#### **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR**

1. *Sattorov M. O'zbek udumlari. –T.,2007.*
2. *Jabborov I. O'zbeklar (an'anaviy xo'jaligi, turmush tarzi va etnomadaniyati). "SHarq nashriyoti". T.,2008*
3. *Tohir Malik. Odamiylik mulki. T.,2005*
4. *Dala yozuvlari Jizzax viloyati Zomin tumani. 2023.*

## CHIGITLI PAXTANI YIRIK VA MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASH

**Beknazarova Nozima rustam qizi**

Guliston Davlat Unversiteti

**Xidirova Durdona Olim qizi**

Guliston Davlat Unversiteti

**Abdushukurova Ma'mura Abdulla qizi**

Guliston Davlat Unversiteti

### ANNOTATSIYA

*Chigitli paxtaning mayda va yirik iflosliklarini tozalovchi uskunalar bular 1XK mayda ifloslikdan tozalaydi. 4X-5, 4X-3M2, turlari mavjud. Ushbu maqolada chigitli paxtani iflosliklardan ajratish tozalash haqida.*

***Kalit so'zi:** Paxta tozalash jarayoni, mayda va yirik iflosliklardan tozalaydigan uskunalar, havo sarfi, ish unumdorligi, texnik tasnifi, aylanish tezligi, sarflanadigan quvvati.*

Chigitli paxtaning tolasini chigitidan ajratish jarayonida uning iflosini va begona qo'shimchalarning tola sifatiga ta'sir qilmasligi uchun ularni qurutish va tozal uskunalari o'rnatilgan. Paxta xom ashyosi qo'l bilan terilganda uning ifloslik darajasi oshadi. Paxta xom ashyosiga mayda qurugan barglar va yirik xas chop bo'lgan iflosliklar oshadi. Iflos aralashmalar chigitli paxtaga ilashish jihatdan passiv va aktiv xillariga kiradi. Chigitli paxtani har xil iflosliklardan tozalash uchun kerakli uskunalar turlarini tanlashda uning fizik- mexanikaviy xususiyatlarini nazarga olish ahamiyatga ega. Chigitli paxtani xas-cho'plardan tozalash mashinalari qoziqchali barabanlar seksiyasi va arrachali barabanli seksiyasidan iborat bo'ladi. Mayda xas-cho'plar qoziqchali barabanlar seksiyasida, yirik aralashmalar esa, arrachali barabanli

seksiyada yaxshi tozalanadi. Uskunaning tozalash samaradorligi uskunaga tushgan paxtadan ajratilgan aralashma massasining chigitli paxtada bo'lgan barcha aralashma massasiga nisbati bilan foiz hisobida aniqlanadi.

$$K_M = C_1 - C_2 / C_1 * 100\%$$

Chigitli paxtaning tozalashdan oldin va tozalashdan keyingi ifloslik darajasi, % Uskunalarning tozalash samaradorligiga ularning ish unumdorligi, chigitli paxtaning namligi va iflosligi katta ta'sir qiladi. Uskunalarning ish unumdorligi ularning eng yuqori tozalash samaradorligiga moslab oshiriladi. Chigitli paxtaning namligi normal darajagacha kamaytirilganda tozalash samaradorligi ko'payib, iflos aralashmalarning chigitli paxtadan ajralishi osonlashadi va ko'payadi.

Namligi normal darajadan yuqori bo'lgan chigitli paxtani tozalaganda uskunalarning tozalash samaradorligi kamayishidan tashqari shu chigitli paxtaning tolasida qo'shimcha nuqsonlar ham ko'payadi. Buni ilmiy tekshirish instituti ma'lumotidan ko'rish mumkin. Chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalash uchun ishlatiladigan uskunalar paxta tozalash korxonasi quritish-tozalash bo'limida, tozalash bo'limida va har bir jinning ta'minlagichiga o'rnatiladi. Chigitli paxtadan mayda iflosliklarni ajratish uskunalari pnevmatik, pnevmamexanik va mexanik sistemalarga bo'linadi. Mayda iflosliklarni ajratish uskunalari texnologik qatorda o'rnatilish joyiga qarab individual va batareyali, ish organlarining chigitli paxtaga ta'siri jihatidan bir ta'sirli va qayta ta'sirli, ish organlarining soniga qarab bir barabanli va ko'p barabanli, tuzilishi bo'yicha esa barabanli va shnekli xillarga bo'linadi. Paxta tozalash sanoati korxonalarida chigitli paxtani mayda iflosliklardan tozalashda asosan 8-qoziqchali barabanli CЧ-02; 1XK rusumli tozalagichlar va EH178 qoziqchali bloklar ishlatilmoqda. Ishlash jarayoni quyidagicha: Chigitli paxta ta'minlash valiklari ustiga o'rnatilgan shaxtaga tushiriladi. Bir-biriga qarshi aylanuvchi ta'minlash valiklari chigitli paxtani qoziqchali barabanga bir meyorda uzatadi. qoziqchali baraban o'z navbatida chigitli paxtani titkilab to'rtli sirt ustidan olib o'tadi va ikkinchi barabanga uzatadi. Shu tartibda chigitli paxta hamma barabanlarda takrorlanib tozalash natijasida mayda iflosliklardan ajratiladi. Ajratilgan

iflosliklar barabanlar tagidagi to'rtli sirt teshiklari orqali iflosliklar bunkerlarining qiya devorlari bo'ylab pastga tushadi va pnevmatransport bilan so'rib olinadi. Tozalangan chigitli paxta esa uskunadan chiqarilib keyingi texnologik jarayonga uzatiladi.

**1XK (C4-02) tozalagich uskunasining asosiy texnik ko'rsatkichlari:**

**1. Ish unumdorligi, t/soat.....5,0÷7,0**

**2. Tozalash samaradorligi % .....4550**

**3. Aylanish tezligi, ayl/da?**

**a) ta'minlovchi valik.....0÷14**

**b) qoziqchali baraban.....480**

**4. Texnologik masofa (to'rtli sirt bilan qoziqchali baraban oraliqi), mm.....14÷20**

Chigitli paxtani har xil aralashmalardan tozalash uchun, ularning (aralashmalarning) fizik-mexanikaviy xususiyatlarini nazarga olish hisobiga texnologik uskunalar turi tanlab olinadi. Masalan: yirik iflosliklarni chigitli paxtadan ajratishda arrali barabanlar seksiyasidan foydalaniladi. Chigitli paxtani iflosliklardan tozalash samaradorligi uskuna ish organlarining chigitli paxtaga ta'sir etish usuliga: to'rtli sirt yoki kolosnik ustida chigitli paxtani silkitish, tozalash vaqtida havo oqimining aralashishi, arrali barabanlarning chigitli paxta bo'laklarining qanday titkilab tarashiga bog'liq. Tozalash uskunalarini ish organlarining chigitli paxtaga ta'siri o'z navbatida bir qator sabablarga: uskunaning ish unumdorligiga, ishchi qismlarining aylanish tezligiga, ish organlari orasidagi texnologik masofalarga (zazorlarga), ularning tuzilishiga, chigitli paxtaning nechanchi marta tozalanishiga bog'liq. Arrali barabanli tozalagich uskunalarining asosiy ish organlari arrali baraban (1) bilan uning tagiga ma'lum bir masofada (zazor) qatorlab qo'yilgan kolosniklardan (2) iborat. Bu ish organlari chigitli paxta bo'lakchalarini arra tishlariga bosish cho'tkasi (3) va ajratib oluvchi cho'tkali baraban(4) bilan birgalikda chigitli paxtadan yirik iflosliklarni ajratish texnologik jarayonini tashkil etadi.

**ЧX-5 tozalagichning texnologik xarakteristikasi:**

- 1. Chigitli paxta bo'yicha ish unumdorligi, t/coat.....1-:-6,0**
- 2. Tozalash samaradorligi, % .....65-:-85**
- 3. Ish organlarining aylanish tezligi, min-1:**
  - a) ta'minlash valiklari.....0-:-16**
  - b) pichoqchali baraban.....500**
  - v) arrali barabanlar.....315**
  - g) cho'tkali barabanlar.....1000**
- 4. Ish organlarining texnologik tirqishlari, mm:**
  - b) arrali baraban bilan kolosniklar orasi.....12-:-18**
  - v) arrali baraban bilan cho'tkalar orasi.....1gacha**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *Jabborov G'.J. va boshqalar «Chigitli paxtani ishlash texnologiyasi», Darslik. Toshkent - «O'qituvchi» 1987- 400 b.*
2. *Tillaev M.T. Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi va jixozlari fanidan paxtani jinlash hamda chigitni linterlash qismidan talabalarda amaliy malaka ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha qo'llanma. Toshkent, TTESI, 2009, 96 b.*
3. *Xojiev M.T., M.T.Tillaev, K.O.Otajonov. "Paxtani dastlabki ishlash" ga oid izoxli tayanch iboralar. Toshkent-2001 y.43b*
4. [www.cottonusa.org](http://www.cottonusa.org)
5. [www.powerrollginstand.com](http://www.powerrollginstand.com)



## TALABALARNI ISTISNOLARNI QAYTA ISHLASHNI O‘RGATISHDA JAVA DASTURLASH TILIDAN FOYDALANISH

**SH.SH.Mirzanova**

Samarqand temir yo‘l texnikumi maxsus fan o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Java dasturlash tilida istisno tushunchasi, ular bilan ishlash, istisno turlari, Java dasturlash tilida istisnolarni “tutish”, istisnolarni qayta ishlash.*

**Kalit so‘zlar:** *Java, istisno, ob’jekt, try, catch, throw, throws va finally.*

Yaratilgan dasturlarning ishlash jarayonlarida ba‘zan kutilmagan xatolar vujudga kelishi mumkin. Bunday hollarda dasturda favqulotda to‘xtash jarayoni yuz beradi, bu esa dasturdan foydalanishni ancha qiyinlashtiradi. Kutilmagan xatolar bilan ishlash uchun ko‘pchilik dasturlash tillarida istisnolarni qayta ishlash mexanizmi kiritilgan. Dasturlashtirishni o‘rganayotgan talabalarga bu mexanizm ancha tushunarsiz bo‘ladi. Biz bu yerda Java dasturlash tili orqali istisnolarni qayta ishlash mexanizmini qarab chiqamiz. *Istisno* – dasturning bajarilishida kodlar ketma-ketligida kelib chiqadigan halokatli holat (buzilish holati) dir. Boshqacha aytganda, istisno – bajarilish vaqtidagi xatolik. Istisnolarni qayta ishlashni qo‘llab-quvvatlamaydigan mashina tillarida odatda xatoliklar kodi yordamida sun‘iy tarzda tekshirilishi va qayta ishlanishi kerak bo‘ladi. Bunday yondashuv yetarlicha murakkab va ko‘p ish hajmini oladi. Java dasturlash tilida bu muammolar qarab chiqilgan, bajarilish vaqtida xatoliklar kelib chiqqanda boshqaruv istisnolarni qayta ishlash oqimiga uzatiladi.

Java dasturlash tilida istisno – bu kodning biror qismida kelib chiqqan istisno (ya’ni xatolik) holatini tavsiflovchi obyekt. Istisno holati kelib chiqqanda, shu istisnoni tasvirlovchi obyekt yaratiladi va xatolikni chaqirgan usulga uzatiladi. O‘z

navbatida usul shu istisnoni o‘zi qayta ishlashi yoki boshqa usulga uzatishi mumkin. Har qanday holda biror nuqtada istisno “tutiladi” va qayta ishlanadi.

Java dasturlash tilida istisnolar beshta – try, catch, throw, throws va finally kalit so‘zlari bilan boshqariladi. Istisno holatlarga nisbatan nazorat qilinishi kerak bo‘lgan operatorlar try bloki ichiga yoziladi. try bloki ichida istisno holati yuz bersa, u holda bu istisno holat shu blok tomonidan yuborilgan deyiladi. Kod bu istisnoni tutib oladi (catch operatori yordamida) va biror ratsional usulda qayta ishlaydi. Javaning bajaruvchi tizimi yordamida generatsiya qilingan istisnolar avtomatik tarzda yuboriladi. Istisnolarni “qo‘lda” tutish uchun throw kalit so‘zidan foydalaniladi. Usuldan yuborilgan har qanday istisno shu usulning aniqlanishidagi sarlavha satridagi throws kalit so‘zi yordamida aniqlanishi kerak. try-blokidan qaytishdan oldin bajarilishi kerak bo‘lgan har qanday kod try{...}-catch{...}-finally{...} blokli konstruksiyada ko‘rsatilishi kerak bo‘lgan finally-blokiga yoziladi.

```
try{
// xatolik ustida nazorat uchun kod bloki
}
catch(ExceptionType1 exOb) {
// ExceptionType1 uchun istisnolarni qayta ishlash
}
catch(ExceptionType2 exOb) {
// ExceptionType2 uchun istisnolarni qayta ishlash
}
//. . .
finally{
// try blokidan qaytgandan keyin qayta ishlash bloki
}
```

Bu yerda *ExceptionType* – yuz bergan istisno holati turi; *exOb* – shu istisnoning obykti, finally-blok – shart bo‘lmagan parametr.

Masalan, quyidagi kichik dasturda nolga bo‘linish xatoligini chaqiruvchi ifodani

o‘z ichiga oladi.

```
class Yexs0{
    public static void main(String args[]){
        int d=0;
        int a=42/d;
    } }
```

Javaning bajaruvchi tizimi nolga bo‘linish belgisini topsa, u yangi turdagi obyekt yaratadi va uni qayta ishlashga uzatadi. Bu Yexs0 ning bajarilishini to‘xtashga majbur qiladi, u istisnoni qayta ishlovchi tomonidan tutib qolinishi kerak. Ko‘rsatilgan misolda istisno Java ning bajaruvchi tizimi qayta ishlovchisi tomonidan tutib qolinadi va qayta ishlanadi. Dastur tomonidan ushlab qolinmagan har qanday istisno nihoyatda jimlik holatidagi qayta ishlovchi tomonidan ushlab qolinadi. Bu qayta ishlovchi istisnoni tavsiflovchi satrni (ekranga) chiqaradi, istisno yuz bergan nuqta chop etiladi va dasturni tugatadi.

Quyida standart JDK ning Java-interpretatorida bajarilganda quyidagi natijani generatsiya qiladi:

```
Java.lang.ArithmeticException:/byzero//xatolik haqidagi xabar
atexs0,main(Yexs0.Java:4)
```

Natijada quyidagi elementlarning qanday qo‘shilganligiga e‘tibor bering: sinf nomi (Exc0), usul nomi (main()), fayl nomi (Yexs0.java) va satr nomeri. Bunday tashqari yuz bergan xatolikni yanada ochiqroq tavsiflaydigan istisno turi ArithmeticException kabi nomlangan Exception ning qisman sinfi ekanligini ko‘rish mumkin.

```
class Exc1{
    static void subroutine(){
        int d=0; int a=10/d; }
    public static void main(String args []){
        Exc1.subroutine();
    } }
```

Natijada (jimlik holatidagi istisnolarni qayta ishlovchi tomonidan olingan)

quyidagilar aks etadi:

```
Java.lang.ArithmeticException:/byzero//(soobsheniyeoboshibke)
atExcl.subroutine(Excl.Java:4)/(trassapolnogosteka
atExcl.main(Excl.Java:7)//vizovov)
```

Java ning bajaruvchi tizimining jimlik holatidagi istisnolarni qayta ishlovchisi otladka uchun foydali bo'lsa-da, dasturchi ba'zan istisnolarni o'zi mustaqil qayta ishlashni hohlaydi. Bu esa ikki afzallikni ta'minlaydi: birinchidan, xatolikni fiksirlashga imkon beradi, ikkinchidan, dasturning avtomatik tugallanishidan saqlaydi. Agar dasturingiz har safar xatolik kelib chiqqanida tugallansa va bir qancha istisno tavsiflarini chop etsa, u holda dasturingizdan foydalanuvchilar norozi bo'ladilar.

Bu holatni bartaraf etish juda ham sodda!

Bajarilish vaqtidagi xatolarni kuzatish va qayta ishlash uchun shunchaki kodga try blokini qo'shish yetarli. try blokidan keyin tutilishi va qayta ishlanishi kerak bo'lgan istisno turini aniqlaydigan catch-bloki qo'shiladi.

Quyidagi dasturda try va catch bloklaridan foydalanish naqadar sodda ekanligini ko'rish mumkin, dasturda "nolga bo'linish" xatoligini generatsiya qiladigan ArithmeticException istisno turi qayta ishlanadi.

```
class Yexs2{
public static void main{String args []}{
intd b,a;
try{                               //kod blokini nazorat qilish
d=0;
a=42/d;
System.out.println("Bu chop etilmaydi");
}catch(ArithmeticException){
System.out.println("Nolga bo'linish.");
}
System.out.println("catch operatoridan so'ng,");
} }
```

Bu dastur quyidagi natija beradi:

Nolga bo‘linish.

Catch operatoridan so‘ng.

try bloki ichidagi println()operatoriga murojaat hech qachon murojaat qilinmasligiga e’tibor bering. Istisnoli holat kelib chiqqach, dastur boshqaruvi try blokidan catch blokiga uzatiladi. Shunday qilib, “Bu chop etilmaydi” satri ekranga hech qachon chiqarilmaydi. catch operatori bajarilishi tugallanishi zahoti boshqaruv try/catch ning to‘liq mexanizmidan keyingi satrga uzatiladi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1.*Bryus Ekkel. Filosofiya Java. 3-e izd. SPb.: Piter, 2.Jerzdev S.V. Java 2 Micro Edition. IITLab, NNGU, VMK.*

## EYFORIYA KASALLIGI

### **Aminova Mohinur Normurod qizi**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
1-son Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi  
[aminovamohinur133@gmail.com](mailto:aminovamohinur133@gmail.com)

### **Soatmurodova Hamida Baxtiyor qizi**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
1-son Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi  
[dilfuza0675@gmail.com](mailto:dilfuza0675@gmail.com)

### **Shukurova Barchinoy Abdulhofiz qizi**

Toshkent Tibbiyot akademiyasi Termiz filiali  
2-son Davolash fakulteti 2-bosqich talabasi  
[barchinoyshukurova018@gmail.com](mailto:barchinoyshukurova018@gmail.com)

## ANNOTATSIYA

*Ruhiy kasalliklarda eyforiya kayfiyat buzilishining alomati sifatida ham qabul qilinadi. Tuyg‘ular insonning o‘ziga yoki uning atrofidagi voqelikka munosabatining ko‘rinishlaridan biridir. Shu bilan birga, u yoqimli yoki yoqimsiz soyalar bilan barcha tajribalarni boshdan kechirishi mumkin. Ko‘rinishlari tashqi dunyoga qaratilgan bo‘ronli his-tuyg‘ular ta’sirlar deb ataladi.*

***Kalit so‘zlar:*** Eyforiya, Kelib chiqish sabablari, Alomatlar, davolash usullari

**Asosiy qism:** Eyforiya (qadimgi yunoncha: tildan olingan bo‘lib yaxshi va qabul qilaman)—o‘z-o‘zidan quvonish, dimog‘chog‘lik. Atrof-muhit va o‘zining og‘ir holatiga mos tushmagan holda bemor kayfiyatining ko‘tarilib ketishi. Bosh miyaning turli organik kasalliklari (o‘smalar, avj oluvchi falaj) da, spirtli ichimliklar ichganda, giyohvand moddalar qabul qilganda va boshqalar da kuzatiladi. Eyforiyada bemor beg‘am, betashvish, xursand, shu bilan birga kamgap, kam harakat bo‘ladi, bir joyda jilmayib yotaveradi. Eyforiya ateroskleroz, epilepsiya va boshqalar ko‘pgina ruhiy

kasalliklarning belgisi tarzida ham namoyon bo'ladi. Bundan tashqari eyforiya barometrik bosim ta'sirida yani balandlik kasalligining chala kompensatsiya davrida ham kuzatiladi.

Sog'lom odam oshiq bo'lganida yoki, masalan, o'z maqsadiga erishganida, qoniqish, xotirjamlik, xotirjamlik hissini boshdan kechirganda eyforiyani boshdan kechiradi. Bu holat nihoyatda yoqimli, osoyishta, beparvo.

Ruhiy kasalliklarda eyforiya kayfiyat buzilishining alomati sifatida ham qabul qilinadi. Tuyg'ular insonning o'ziga yoki uning atrofidagi voqelikka munosabatining ko'rinishlaridan biridir. Shu bilan birga, u yoqimli yoki yoqimsiz soyalar bilan barcha tajribalarni boshdan kechirishi mumkin. Ko'rinishlari tashqi dunyoga qaratilgan bo'ronli his-tuyg'ular ta'sirlar deb ataladi.

Kayfiyat nisbatan barqaror hissiy fon bo'lib, unda inson faoliyati sodir bo'ladi. Kayfiyatning buzilishi eyforiya, quvonch va shodlik holatida ma'lum tuyg'ularning nisbatan uzoq vaqt davomida hukmron bo'lib, real sharoitlarga mos kelmasligi bilan ifodalanadi.

Bunday ta'sir bir qator og'ir somatik kasalliklarda - sil, yurak kasalliklarida, insonning jismoniy va ruhiy holati o'rtasidagi nomuvofiqlik shaklida kuzatilishi mumkin. U baxtli va beparvo bo'lishi mumkin, uning jismoniy holati ob'ektiv ravishda juda achinarli bo'lishiga qaramay, ko'plab yorqin rejalarga ega.

Eyforiya manik holatlar shaklida yuzaga keladigan barcha ruhiy kasalliklarga xosdir. Masalan, dumaloq psixozning manik bosqichi yoki progressiv falajning kengaygan shakli.

Eforiya mastlik holatiga o'xshaydi va turli psixoaktiv moddalar yoki spirtli ichimliklarni iste'mol qilish natijasida yuzaga kelishi mumkin. Amaldagi moddaga va tananing individual xususiyatlariga qarab, giyohvand moddalar ta'siri ostida bo'lgan odam turli xil yoqimli his-tuyg'ularni boshdan kechirishi mumkin.

Yoqimli tajribalar nafaqat kayfiyat va hissiy fonda, balki jismoniy hissiyotlar darajasida ham o'zini namoyon qilishi mumkin. Eyforiya yoqimli letargiya, mistik tajribalar, derealizatsiya hissi, parchalanish, atrofidagi dunyoning nazoratsizligi bilan

birga bo‘lishi mumkin. Boshqa hollarda, odam ko‘tarilgan kayfiyat fonida g‘ayrioddiy aqliy ravshanlikni, kuch, ilhom va faoliyatga ehtiyojni his qiladi.

Eforiya, patologik quvnoqlik yoki faollik sifatida, sog‘lom odamda ham bo‘lishi mumkin. Bunga miyada sodir bo‘ladigan fiziologik jarayonlar yordam beradi, ular psixostimulyator dorilarni qo‘llash bilan ham qo‘zg‘atiladi. Butun olam yorug‘, mehribon bo‘lib ko‘rinib, odamni baxt, shodlik, zavq, ilhom va g‘ayrat bilan to‘ldiradigan holat ko‘pchilikka tanish. Odatda, bu holat qisqa vaqt davom etadi.

Shuningdek, yuguruvchining eyforiyasi ham mavjud bo‘lib, ko‘pincha velosiped sporti bilan shug‘ullanadigan sportchilarda uchraydi: uzoq masofalarga yugurish, eshkak eshish, chang‘i sporti, velosipedda yurish. Ba‘zi ilmiy tadqiqotlar bu hodisaning ko‘rinishini fiziologik jarayonlar bilan izohlaydi. Tez nafas olish bilan birga uzoq muddatli intensiv mashqlar bilan odamning miyasida quvonch gormonlari - endorfinlar ishlab chiqariladi, bu esa unga charchoqni his qilmaslik, chidamlilik va stressga qarshilikni oshirish imkonini beradi. Bu jismoniy charchoqning eng yuqori cho‘qqisida, biologik stress kuchaygan holatlarda sodir bo‘ladi. Bu vaqtda sportchi quvonch, xotirjamlik, xotirjamlik, maqsadlilikni his qilishi mumkin. Insonda “ikkinchi shamol” bor. Yuguruvchining eyforiyasi qisqa vaqt davom etadi, kamdan-kam hollarda u bir necha kungacha davom etishi mumkin.

#### Eyforiya sabablari

- Psixostimulyatorlar, spirtli ichimliklar, giyohvand moddalar va psixofaol moddalarga ta’sir qilish;
- Qon ta’minoti va kislorod bilan ta’minlashning kamayishi yoki ko‘payishi tufayli miya faoliyatini o‘zgartiradigan maxsus nafas olish texnikasi;
- Uzoq muddatli intensiv jismoniy faollikning kuchayishi (jogger eyforiyasi) paytida endorfinlarning chiqarilishi;
- Odatda - sevgi holati, ijodiy ilhom, g‘alabadan quvonch;
- Ruhiiy kasalliklar, masalan, manik sindrom, miyaning organik shikastlanishi, demansning ilg‘or bosqichlari, tanqidiylikni yo‘qotish bilan birga keladi.



**alomatlar**

Eyforiya - odamlarni gapirishga undashning eng yaxshi usuli qanday? Kuchli hissiy lager bilan yakunlash uchun g'alaba qozondi. Holatni ko'rishingiz mumkin bo'lgan belgilar:

Eyforiya nolga aylangandan so'ng, viklikanni ko'rish uchun qaytib kelish va kerak bo'lganda darhol tashrif buyurish kerak bo'ladi.

Eyforiya degan ma'noni anglatuvchi ismni tanlab, barcha mumkin bo'lgan namoyonlarni tasvirlab berish kerak. Ulardan biri - musiqiy eyforiya, unga musiqa tinglash kiradi. Tarkibi ritmik, kasal va teshuvchi butti uchun aybdor, qanday qilib odamlarni transga va zmusiti viprobuvati barcha loyli baxt oldida olib kelish.

Biz eshitish vositalarini "Bitlz" kichik lageriga tushirish uchun dumbadan foydalanamiz. G'ayrioddiy, guruh a'zolari iste'dodli musiqachilar edi va bundan ham ko'proq muvaffaqiyatlar va g'alabalar, ular sotsiologiya bo'yicha Amerika va ingliz ilmiy loyihalarining uzoq muddatli eksperimentida ham mutaxassislardir. Yorug'likdagi hamma narsa moddiy va raqamlarda darhol hamma narsani chizish mumkinligi haqidagi badbo'y hid hurmat qilindi. Bulning tebranishi va rezonansi to'g'risidagi qonun asosida "Bitlz" kompozitsiyalari yozildi, ular odamlarning guvohligini hidlaydi va odamlarni transga soladi;

**Xulosa:** Aql-idrok bilan bir qatorda, ko'plab yovuz odamlarning o'rtasida unga hujum qilish, siz juda ko'p amaliy va asosiy sabablarni ko'rishingiz mumkin. Inson psixikasining butun o'ziga xosligi va menimcha, butun oziq-ovqatda bu katta ish emas. Tibbiy qarashlar sohasiga ko'proq ko'rinish.

***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

<https://clione.ru/uz/violations/ispytyvat-eiforiyu-cto-takoe-eiforiya-i-skolkodlitsya-eiforiya-vlyublennosti-kak-dostich-eiforii/>

<https://eurodomik.ru/uz/foam-block/legkaya-eiforiya-cto-eiforiya---cto-eto-za-sostoyanie-sostoyanie.html>

<https://asab.uz/uz/jenciklopediya/1128-pik-kasalligi.html>

<https://uz.healthy-food-near-me.com/euphoria-in-schizophrenia-what-is-it-and-how-to-detect-it/>

## TILSHUNOSLIKDA MATN MUAMMOSI VA UNING O'RGANILISHI

**Jo'rayeva Mehriniso**

Termiz davlat universiteti

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada tilshunoslikda dolzarb muammolardan biri sanalgan matn muammosi va uning turli xil olim va tilshunoslar tomonidan o'rganilgan jihatlari ilgari surilgan.*

***Kalit so'zlar:** matn, gap, badiiy matn, nutq, nutqiy kommunikatsiya, kommunikativ mohiyat, matn nazariyasi, matn lingvistikasi.*

Insonlarning kishilik jamiyati sifatidagi alohida-alohida qavmlar tarzida birlashishi va birlikda ne-ne mushkulotlarni bartaraf etib, tamaddun deyiladigan taraqqiyot yo'llarida muntazam odim otmog'ida ular o'rtasidagi kommunikatsiya, muloqotning o'rni, shubhasizki, benihoya muhim. Kommunikativ faoliyatdab tamoman holi bo'lgan, a'zolari o'zaro muloqot imkoniyatidan butunlay mahrum bo'lgan kishilik jamiyatini tasavvur ham etib bo'lmaydi.

Ma'lumki, har qanday nutqiy kommunikatsiyaning yuzaga kelishi, voqelanishida uch asosiy unurning ishtiroki majburiydir, ya'ni so'zlovchi(yozuvchi) –axborot(matn)–tinglovchi(o'quvchi). Mazkur uch unsur nutqiy kommunikatsiyaning asosiy ustunlaridir, ularning birortasiz muloqot jarayoni voqe bo'lolmaydi va shular ichida eng muhim muloqot vositasi matn sanaladi. Matn atamasi to'g'risida turli xil nazariya va farazlar ilgari surilib, tadqiq etiladi.

“Matn” atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eski kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga teng ekanligiga ishora qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida tekst so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: 1.Yozilgan,

ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning parchasi; matn. 2. Muzika asariga, masalan biror kuyga, opera, romans va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z. 3. Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi[1,452]. Demak, ushbu ta'riflardan matnning faqatgina yozma shakldagi birlik ekanligi anglashilib turibdi. Yangi tahrirdagi izohli lug'atda ham yuqoridagi ta'kid saqlanib qolgan: matn [arabcha- yelka, nutqning yozuvdagi ifodasi, tekst] 1. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat. 2. Bosma nashrning rasm, chizma va izohlarsiz asosiy qismi[2,557]. Yuqoridagi fikrlardan shuni anglashimiz mumkinki, matn deganda biz faqatgina yozma ko'rinishga ega bo'lgan, ya'ni yozma shakldagi birlikni tushunimiz kerak ekan. Bilamizki, matn aloqa, kommunikatsiya vazifasini o'taydi. Kommunikatsiya esa nafaqat yozma shaklda bo'lishi, balki og'zaki shaklda ham amalga oshirilishi mumkin. Bu nazariyani ba'zi olimlar tasdiqlasa, ba'zi birlari inkor qilishmoqda. O'ylab qaraydigan bo'lsak, faqatgina yozuvda ifodalangan nutqni gap deb, matn deb atasak, og'zaki nutqdagi gapni, matn bo'la olmaydi deyishimiz, mantiqan noto'g'ri bo'lishi ham turgan gap. Chunki har ikkala shaklda ham matn hosil qilinib, har ikkala shaklda ham insonlar o'rtasida aloqa zanjiri yuzaga kelmoqda. Bu esa matnning vazifalaridan biri hisoblanadi.

“Matn” so'zini qo'llayotgan tilshunoslarning qariyb barchasi ushbu tushunchaga u yoki bu tarzda ta'rif berishga harakat qiladi. Matn – ko'p jihatli, murakkab tuzilishga ega bo'lgan qurilma, shuning uchun ham uni tavsiflashda unga xos bo'lgan semiotik, kommunikativ, strukturaviy, pragmatic, kognitiv, nominative, xususiyatlarini inobatga olish talab qilinadi[3,12]. Matn so'ziga ta'rif berish va unga har tomonlama to'g'ri tavsifni topa olish hozirgi kunda har bir matnshunos, tilshunosning oldida turgan muhim va dolzarb masalalardan biri sanaladi. Hozirga kelib ham olimlarimiz matn ta'rif va tavsifi bo'yicha ma'lum bir to'xtamga kelisholmagan. Bir xil olimlarimiz matn tavsifi bo'yicha o'zlarining ma'lum bir fikrini aytib o'tsa, boshqa biri ushbu fikrni inkor qilmoqda. Shuni ham inobatga olishimiz darkorki, har bir tadqiqotchining o'z yo'nalishi, uslubi bo'ladi. Matn

borasida ham o'zlarini qiziqtirayotgan tomondan, ya'ni faqatgina bir tomonlama tadqiqot olib borishlari natijasida matn borasida yakka emas, balki turli fikrlar yuzaga kelmoqda. Olimlar tomonidan berilayotgan hech bir ta'rif matnni mukammal tavsif eta olmaydi.

Matn nazariyasi, matn tavsifi, matn lingvistikasining umumiy shakllanishi va rivojlanishida chex (Praga lingvistik to'garagi vakillari), nemis, fransuz, ingliz, Amerika, golland, polyak, va boshqa tilshunoslik maktablari vakillarining xizmatlari dunyo tilshunosligida e'tirof etilgan va doimiy ravishda ilmiy tadqiqotlarda tilga olinadi. Ayniqsa, rus tilshunosligida О.И.Москальскаяning xizmatlari benihoya katta hisoblanadi.

Hozirgi kunga kelib esa matn lingvistikasi tarmog'i deyarli barcha tilshunoslik punktlariga yetib bordi va tadqiqot ishlari olib borilmoqda, matn sohasi bo'yicha yangidan yangi nazariyalar umumlashmalar kashf etilmoqda, yechilmagan, ochilmagan sirlar o'z yechimini topmoqda. Ammo shuni ta'kidlash lozimki, achinarlisi haligacha matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va ta'riflashda mutaxassislar o'rtasida yagona va yaxlit fikr mavjud emas, aksincha, bir-biriga qarama qarshi bo'lgan ikki xil qarsh mavjud. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Masalan rus tilshunosi Л.М.Лосева "matn" tushunchasini aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo'lgan belgilardan kelib chiqish lozimligini aytadi va bu belgilarning birinchisi sifatida uning yozma shaklda bo'lishini alohida qayd etadi. Matnni lingvistik tadqiqot obyekt sifatida rus tilshunosligida ilk o'laroq batafsil o'rganganlardan biri И.П. Галперин "matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlar" dan biri sifatida "yozma hujjat tarzida reallashadigan tugallanganlik"ni alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir. Ammo matnning yozma yoki og'zaki ekanligi uning ontologiyasi va funksiyasiga nechog'lik bog'liq yoki bog'liq emasligi muallif tomonidan aniq-tiniq qilib ko'rsatib berilmagan. Matnning mohiyati va kommunikatsiya jarayonida bajaradigan vazifasi

chegaralanadigan bo'lsa, bu yirik kommunikativ birlikning tildagi o'rni qanday belgilanishi haqidagi masala ochiq qolgan[4,42,43].

Yuqoridagi fikrlarga ko'ra shuni xulosa qilishimiz mumkinki, matn bu tarkibidagi birliklar orasida o'zaro bog'lanish, yaxlitlik bo'lgan, matn tarkibida joylashgan har bir gapda tugallik ma'nosi aks etgan, og'zaki va yozma shaklda bo'ladigan, shakl va mazmun jipsligiga ega bo'lgan, makon va zamon hamkorligida tuzilgan, tarkibida qo'llanilgan qismlar bir-biri bilan aloqaga kirishgan, ma'lum bir mavzu doirasi yoritilgan, bitta yaxlit gap yoki bir nechta gaplar tuzilmasi hisoblanadi. Shuningdek, matnning bosh va asosiy vazifasi sifatida kommunikatsiya(muloqot birligi) vazifasi qaraladi va ushbu muloqot birligi maqomiga ega bo'lishi uchun ham matn birligi yuqorida alohida ta'kidlab o'tganimday, nafaqat mazmun, balki strukturavuy(qurilish) jihatidan ham tugal ko'rinishga ega bo'lishi kerak. Shuningdek, yana matn tadqiqi olib borilayotganda matnni so'z birikmasi va gapdan farqlash kerakligi, matnning ham o'z kategoriya va qonuniyatlari bor ekanligi ilgari suriladi.

Tilshunos M.X.Hakimov matn haqida shunday yozadi: "Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalari borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchi yordamida birikishini o'rganish "Matn tilshunosligi" sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi[5,12;13].

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. – Moskva, "Русский язык", 1981, 452-bet.
2. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. – Toshkent, "O'zME" 5 jildlik, 2-jild, 557-bet.
3. M. Yo'ldoshev. *Badiiy matnning lisoniy tahlili*. – Toshkent, 2008.
4. M. Yo'ldoshev. *Badiiy matn lingvopoetikasi*. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, - Toshkent "Fan" nashriyoti, 2008.
5. M. Qurbonov., M. Yo'ldoshev. *Matn tilshunosligi*. – Toshkent "Universitet", 2014.

## O‘ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. CHIQISH KELISHIGI QIYOSI

Ilmiy rahbar: f.f.n.,dots. **M. Xudayarova**

**Usanova Qademay Muratbay qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti  
Turkiy tillar fakulteti “O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili”  
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada o‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida otlarning kelishik kategoriyasi, chiqish kelishigini qiyoslash, o‘xshash va farqli tomonlari tadqiq etildi.*

***Tayanch so‘z va tushunchalar:** Chiqish kelishigi, ish-harakat, payt, sabab, daraja-miqdor, hol, to‘ldiruvchi, undalma.*

### ANNOTATION

*This article examined the category of concordant nouns in Uzbek, Russian and Karakalpak languages, comparison of the coming out, similar and different sides.*

***Key words and concepts:** Exit agreement, work-action, moment, reason, level-quantity, case, complement, exclamation.*

O‘zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ot predmet ma’nosini bildiradi. Har 3 tilda ham otning ma’nosi turli-tuman bo‘lib, u jonli predmetlarni, narsa, predmet va hodisalarni bildiradi.

Ot (yoki otlashgan so‘zning) boshqa so‘zlarga bo‘lgan sintaktik munosabatini ko‘rsatuvchi ma’nolar va bu ma’nolarni ifodalovchi shakllar tizimiga kelishik kategoriyasi deyiladi. Kelishik kategoriyasi oltitda grammatik ma’no va uni ifoda etuvchi shakllarni o‘z ichiga oladi. Bularga bosh, qaratqich, tushum, jo‘nalish, o‘rin-

payt va chiqish kelishiklarining grammatik ma'nolari hamda bu grammatik ma'noni ifodalovchi -ning, -ni, -ga(-ka, -qa), -da, -dan kelishik shakllari kiradi. Har bir kelishik o'z nomi, ifoda shakliga ega, ma'lum so'roqlarga javob beradi<sup>1</sup>.

Chiqish kelishigi **-dan** affiksi bilan shakllanadi. Chiqish kelishigini o'zbek, rus va qoraqalpoq tillarida ko'rib chiqamiz.

O'zbek tilida chiqish kelishigidagi ot ish-harakatning kelib chiqish o'rni, manbai, payti, sababi, holati yoki ish-harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni anglatadi. Shu ma'nolariga ko'ra chiqish kelishigi shaklidagi ot *kimdan?*, *nimadan?*, *qayerdan?*, *qachondan?* kabi so'roqlardan biriga javob beradi. Chiqish kelishigi **-dan** affiksi bilan shakllanadi. Masalan: *Insonga bilimdan yaxshi narsa topilmaydi (Hikmatlar xazinasi)*.

Rus tilida chiqish kelishigiga mos keladigan kelishik yo'q. Bu kelishikdagi so'zlar predmetning chiqish, ish-harakatning boshlanish o'rnini, manbaini, vaqtini, sababini va grammatik ma'nolarini ifodalab keladi. Shuning uchun chiqish kelishigining grammatik ma'nolari rus tilida so'zlarning turli kelishik shakli bilan va boshqa grammatik vositalar bilan beriladi<sup>2</sup>.

Qoraqalpoq tilida chiqish kelishigi bor va u "shig'is sepligi" deb yuritiladi. Chiqish kelishigi **-dan/-den**, **-nan/-nen**, **-tan/-ten** affikslari bilan shakllanadi. Chiqish kelishigidagi otlar kimnen? neden? qaydan? qayaqtan? savollariga javob berib, asosan, ish-harakatning chiqqan o'rnini, narsaning nimadan ishlanganligini bildiradi. Gapda to'ldiruvchi va hol bo'lib kelishi mumkin. Masalan: *G'arrilardan ayrılıw menen aqlımızdan ayrılıp atırg'an ekenbiz (T.Q.)*. *Bobolarimizdan ayrilish bilan aqlimizdan ayrilayotgan ekanmiz*.

O'zbek tilida chiqish kelishigidagi otlar quyidagi sintikatik vazifalarda keladi:

1. Harakatning bajarilishida vosita bo'lgan predmetni, bir predmetni boshqa predmet bilan chog'ishtirish ma'nolarini anglatib, *kimdan?* *nimadan?* so'rog'iga javob beradi va gapda vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi: Masalan: *Ilmdan bir shu'la dilga tuishgan on, Shunda bilursankim, ilm bepayon (Firdavsiy)*.

<sup>1</sup> Hamroyev M. va boshqalar. Ona tili. – Toshkent, 2007. - B. 87-88.

<sup>2</sup> Azizov O. va boshqalar. O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B. 34.

2. Harakatning boshlanish o'rnini, payti, harakatning bajarilish holati, sababini anglatib qayerdan?, qanday?, nega? savollariga javob beradi va gapda o'rin, payt, sabab, holat holi vazifasida keladi. Masalan: *Kamoliddin Behzod hali yoshlikdan Hazrat Mirning tarbiyalari bilan ulg'aydilar (P.Q.)*.

3. Kimdan? va nimadan? so'roqlariga javob berib gapda kesim vazifasida keladi <sup>1</sup>. Masalan: *Shaxzoda zerikmaydigan bo'ldingiz, bu onangiz havaskor alpinistlardan ekan (S.Abdullayeva)*.

Endi rus tilida chiqish kelishigi qanday anglatilishini ko'rib chiqamiz.

1. Chiqish kelishigidagi so'z ish-harakatning boshlanish o'rnini, vaqtini manbaini bildiradi, rus tilida *из, с, от* old ko'makchilaridan biri hamda qaratqich kelishigi shakli yordamoda beriladi. Masalan: *Из Индии приехали туристы. – Hindistondan turistlar keldi. С девяти часов до четырех буду в институте. – Soat to'qqizdan to'rtgacha institutda bo'laman.*

2. Qaratqich kelishigidagi so'z predmetning nimadan ishlanganligini bildirsa, rus tilida *из* old ko'makchisi hamda qaratqich kelishigi shakli bilan beriladi. Masalan: *Рахима сшила себе платье из атласа. – Rahima o'ziga atlasdan ko'yulak tikdi.*

3. Qaratqich kelishigidagi so'z harakat predmetga qisman o'tganini, butunning bo'lagini bildirib kelsa, rus tilida biror kelishikdagi ot so'z bilan beriladi. Masalan: *Мехмонlardan biri Saidani tabrikladi. – Один из гостей поздравил Саида.*

4. Chiqish kelishigidagi so'z chog'ishtirayotgan predmetni bildirib kelsa, rus tilida qaratqich kelishigidagi so'z bilan yoki bosh kelishikdagi so'zni *чем* so'ziga biriktirib ishlatish bilan beriladi. Masalan: *Дети пришли раньше, чем вы. – Bolalar sizlardan oldin keldi.*

5. Qaratqich kelishigidagi so'z vosita, sabab ma'nolarini bildirib kelsa, rus tilida ko'pincha *но* old ko'makchisi hamda jo'nalish kelishigi shakli bilan beriladi. Masalan: *Машина прошли но узкому мосту. – Moshina tor ko'priktan o'tdi.*

6. Qaratqich kelishigidagi so'zning ma'nolari rus tilida turli grammatik vositalar bilan ifodalanadi.<sup>1</sup> Masalan: *Я доволен вами. – Men sizdan hursandman.*

<sup>1</sup> Hamroyev M. va boshqalar. Ona tili. – Toshkent, 2007. - B. 93.



Qoraqalpoq tilidagi chiqish kelishigidagi otlar quyidagi o‘rinlarda va ma’nolarda keladi:

1. Ish-harakatning chiqqan o‘rnini ko‘rsatib, o‘rin holi vazifasida keladi. Masalan: *Atuzdan kettik (K.S.). – Daladan ketdik. Teatrdan qaytti (K.S.). – Teatrdan qaytdik.*

2. Narsa yoki predmetning nimadan ishlanganligini bildirib, vositali to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Masalan: *Paxtadan islengen (K.S.). – Paxtadan ishlangan. Temirden sog‘ilg‘an (K.S.). Temirdan yasalgan.*

3. Bir predmet bilan ikkinchi predmet chog‘ishtirilganda, chog‘ishtirilgan so‘z chiqish kelishigida kelib, vositali to‘ldiruvchi bo‘lib keladi. Masalan: *Tastan qatti (K.S.). – Toshdan qattiq. Ko‘mirden qara (K.S.). – Ko‘mirdan qora.*

4. Voqea-hodisaning chiqishiga sabab bo‘lgan narsani bildirib, vositali to‘ldiruvchi vazifasida keladi. Masalan: *Awrtw astan, daw qarindastan (Maqol). – Kasallik ovqatdan, janjal singildan.*

5. Narsaning, biror belgining hissasini bildirib, vositali to‘ldiruvchi bo‘lib keladi. Masalan: *Bul da sol xan no‘kerlerinen biri edi (T.Q.). – Bu ham shu xon navkarlaridan biri edi.*

6. Payt ma‘nosidagi so‘zlar chiqish kelishigida ish-harakatning boshlanish vaqtini bildirib, payt holi vazifasida keladi. Masalan: *Maqset tan‘ sa‘ha‘rden oyanip, jumisqa ketti (Sh.S.). – Maqset tong sahardan uyg‘onib, ishga ketdi.*

7. Pul birliklarining, o‘lchov birliklarining nomini bildiradigan chiqish kelishigidagi otlar bilan taqsim sonlar birga kelib, daraja-miqdor holi bo‘ladi.<sup>2</sup> Masalan: *Ele ku‘nler keledi, bizin‘ siyirlar da 20 litrdan su‘t beredi (K.S.). – Hali kunlar keladi, bizning sigirlar ham 20 litrdan sut beradi.*

Xulosa qilib aytganda, chiqish kelishigining ma‘nosi o‘zbek va qoraqalpoq tillarida deyarli bir xil. Rus tilida bunaqa kelishik yo‘q. Rus tilida chiqish kelishigining o‘rniga old ko‘makchilar, qaratqich va boshqa kelishiklar yordamida hosil qilinadi. O‘zbek tilida chiqish kelishigi ish-harakatning o‘rni, payti, holati,

<sup>1</sup> Azizov O. va boshqalar O‘zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent, 1965. – B.34-35.

<sup>2</sup> Da‘wletov A va boshqalar. Ha‘ziri qoraqalpoq a‘debiy tili. – No‘kis, 2010. - B. 105-106.

sababi va boshqa ma'nolarini anglatsa, qoraqalpoq tilida asosan, ish-harakatning chiqqan o'rnini va nimadan yasalganligini bildiradi. O'zbek tilida chiqish kelishigi, vositali to'ldiruvchi va ba'zi hollarda kesim vazifasida kelsa, qoraqalpoq tilida ham ko'pgina hollarda vositali to'ldiruvchi va yana o'rin holi, payt holi vazifasida keladi. Bularning hammasi o'z navbatida, o'zbek va qoraqalpoq tillaridani qiyoslashda ozgina qiyinchilik tug'dirmasa ham, rus tili bilan bu tillarni qiyoslashda bir qancha tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)***

- 1. Azizov O va boshqalar O'zbek va rus tillarining qiyosiy grammatikasi Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti.1965.*
- 2. Da'wletov A va boshqalar Ha'zirgi qaraqalpaq a'debiy tili. No'kis: "Bilim" nashriyoti.2010.*
- 3. Anorbekova A, Mirzayeva Sh Hozirgi o'zbek adabiy tili Toshkent: "Noshir" nashriyoti.2011.*

**MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY****Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Moliya va buxgalteriya fakulteti talabasi

[xonshams@gmail.com](mailto:xonshams@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada Muqimiy taxallusi ostidagi buyuk mutafakkir, zabardast davlat arbobi bo‘lmish Muhammad Mirzaxo‘ja Aminxo‘ja o‘g‘lining hayot yo‘li, ijodi, uning asarlaridagi ijtimoiy- iqtisodiy qarashlari tasviri tahlil qilingan. XIX–XX asrlarda jamiyatimiz hayotida yuz bergan jarayonlarning siyosiy-iqtisodiy jihatlari batafsil tasvirlangan. Bundan tashqari, o‘sha davrdagi ijtimoiy tuzum va iqtisodiy siyosat kabi tushunchalarning qay darajada noto‘g‘ri olib borilganligi va bugungi kunda ham ana shu muammolar mavjudligi talqin qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** *Muqimiy, Muqimiy ijodi, jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy ahvoli, davlat siyosati, iqtisodiy qarashlar, aholi turmushining farovonligi.*

Mustaqilikka erishgach hayotimizning har sohasida o‘zgarishlar bo‘lganidek, mumtoz adabiyotimizni ham o‘rganishga va uni ilmiy –ijodiy tahlil qilish orqali o‘zligimizni anglashga va o‘tmishimizning yopilgan sahifalarini qayta ochishga imkon yaratildi. Jamiyatimizning eng kata boylikalaridan biri, bu tarixda o‘zlarining o‘chmas izlarini qoldirgan byuk bobokalonlarimizning bizga qoldirgan asarlari desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Adabiyot ahli adabiy asarlari asosida ma’lum bir davrdagi jamiyatning dunyoqarashi, xoxishlari va nolalarini aks ettirish orqali , o‘sha davrdagi real hayotga asoslangan voqealarni jonlantirishga harakat qilganlar. Chunki, aynan mana shu asarlari xalqning har tomonlama rivojlanishiga, aholining ijtimoiy ongini oshirishga xizmat qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Boshqa hech qaysi omil adabiyotchilik jamiyat ongiga, uning dunyoqarashiga o‘zining kuchli ta’sirini o‘tkaza

olmaydi. Bu esa o'z navbatida bizdan adabiyotga bo'lgan qiziqishni oshirishni talab qiladi. Bizni butun dunyoga tanitishda o'zlarining hissslarini qo'shgan shunday buyuk ajdodlarimiz bor ekan, nega biz ularning hayoti va ijodini, asarlarini o'rganmasligimiz kerak? Nima ushun ularning hayot yo'llaridan ibrat olmasligimiz kerak? Albatta biz bularni qilishimiz, ularning asarlaridan, ruboiy- g'azallaridan o'zmizga kerakli xulosalarni chiqarib, o'sha xatolarni takrorlamaslikka xarakat qilishimiz darkor. Shuning uchun ham adabiy merosimizni nafaqat asrab- avaylash, balki undan oqilona fodalanish ham lozimdir. Bu orqali ayniqsa, yoshlarimizning ongiga ezgu go'yalarni singdirish va ulardagi ma'naviy bo'shliqni to'ldirishga ershishimiz mumkin.

Mustamlakachilik davrining ilk yillarida ravnaq topgan, millatning qalbidan joy olgan, ibratli hayot yo'liga ega, milliy uyg'onish adabiyotining yirik namoyondalaridan biri bo'lmish Muhammad Aminxo'ja Muqimiy o'n to'qqizinchi asr oxiri va yigirmanchi asr boshida jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga o'zning munosib xissasini qo'shgan adiblarimizdan biridir. Muhammad Aminxo'ja Mirzaxo'ja o'g'li Muqimiy 1850- yilda Qo'qon shahrining Bekvachcha mahallasida novvoy oilasida dunyoga kelgan. Muqimiy birinchi bo'lib, mahallasidagi mulla Abduhalil maktabida ta'lim oladi. So'ng, Qo'qondagi Hokim oyim madrasidasida tahsil oladi. 1872-1873- yillarda esa buxorodagi madrasada o'qiydi va uni tamomlagach Qo'qonga qaytib keladi. Qaytib kelganidan so'ng oila quradi. Ammo, bu uzoq vaqtga cho'zilmaydi. O'sha vaqtdagi qiyinchiliklar, yo'qchiliklar tufayli oilasi buziladi va natijada yana yolg'iz o'zi qoladi. Mustamlakachilik davrida Muqimiy egiladi, bukiladi, ammo, sinmaydi. Chunki u moddiy tomonlama boy inson bo'lmasada, ma'naviy o'ta kuchli shaxs sifatida tanilgan.

Muqimiyning ijodga, adabiyotga bo'lgan qiziqishi yoshlik paytidanoq bshlangan. Bunga asosiy sabab esa, uning validasi bo'lmish Oyshabibi aytib bergan ertaklari va hikoyalarning ta'siridir. Muqimiy butun hayotini mutolaa va ijod qilishga bag'ishlaydi. Xattotlikni o'rgangach esa bu uning asosiy tirikchilik manbayiga aylanadi. Bundan tashqari, u Qo'qonda Zavqiy, Furqat, Muhayyir, Nisbat,

Nasimiy, Mavlaviy kabi adiblardan tashkil topgan guruhlariga boshchilik ham qiladi. Muqimiy o'zining asarlaridagi lirikasi va davrning hukmron boshqaruvchilarini va ularning olib borayotgan siyostlarini kuchli tanqid ostiga olib bir qancha hajviy asarlar, yumorlari bilan jamiyat qalbiga kirib boradi va shuhrat qozonadi.

Muqimiydan bizgacha juda ko'plab asarlari yetib kelmagan bo'lsada, yetib kelganlarining orasida han taqsinga sazovorlari bir talaygina. U asosan she'riy janrda ijod qilgan bo'lsada, uning asarlari o'zining rang barangligi, badiiy-g'oyaviy fikrlarga boyligi, xalqning dardini gavdalantira olganligi bilan ajralib turadi. U adabiyotimizni faqatgina boyitibgina qolmay, uni yuksak darajalarga olib chiqdi, ya'ni yangiliklar ham yaratdi. Muqimiy she'riy tarzda yozgan qiziqarli sayohatnoma asari, u tufayli badiiy maydonga keldi. Lekin, afsuski uning "Majmua", "Devon", "Bayoz", kabi asarlari bizgacha to'liq yetib kelmagan. Buning sababi esa, Muqimiy o'z qo'lyozmalarini bir muqova ostida birlashtirmagan, ya'ni xar xil manbalarda uning adabiy merosidan parchalarni uchratishimiz mumkin.

Muhammad Aminxo'ja Muqimiy o'z asarlarida faqatgina badiiy talqinlarni keltirmagan, balki, bugungi kunda ham bizga o'rnak bo'lishga arziydigan hayot tarzi va hozirgi kunda dolzarb bo'lgan bir qancha iqtisodiy muammolarni, davlat boshqaruvidagi adolatsizliklar va ularning yechimlari borasida o'z qarashlarini bayon qilgan. Shuning uchun ham, uning asarlarini o'rganish davomida mustamlakachilik davridagi mamlakatning iqtisodiy ahvoli, ijtimoiy hayotini tahlil qilish mumkin va ana shu jihatlari bilan ham uning adabiy merosi boshqa mutafakkir allomalarimiznikdan farq qiladi. Muqimiy yashab, ijod etgan davr o'ta og'ir bo'lishoga qaramay u qo'rqmasdan xalqning faryodini, yuqori lavozimdagi rahbarlarning boshqaruv tizimini va mamlakatdagi soliq tizimini muhokama qila olgan va buni o'zining asarlarida hajviy tarzda tasvirlab bergan. Bundan tashqari yuqorida aytib o'tganimizdek uning "Sayohatnoma" asari orqali yangi ijod janri maydonga kelgan ekan, biz bu asarlarni o'qib o'sha davrdagi mamlakatning geografik tuzilishi, holati va joylardagi ijtimoiy muhitni o'rganishimiz mumkin.

Muqimiy bir qancha janrlarda ijod qilishiga qaramay, uni merosining asosiy qismini hajviy janrdagi she'riy tarzda yozilgan asarlar tashkil qiladi. Uning yashayotgan hayoti ziddiyatlarga to'la bo'lishiga qaramasdan, ana o'sha jamiyat hayotidagi asosiy muammolarni gavdalantirib berishga qodir bo'lgan. Ayniqsa, iqtisodiy talqinlarida mamlakatda soliq yuki juda yuqoriligini va aholi buni to'lashga layoqatsizligi hamda buning natijasida aholining turmush tarzi og'irlashib borayotganligini tanqid ostiga olgan. Agar jamiyatdagi siyosat sh tarzda davom etsa, mamlakat aholisi qashshoqlikka yuz tutishi haqida ogohlantirishlar bergan. Ajablanarlisi shuki, bugungi kunda ham aynan qashshoqlik butun dunyodagi global muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Muqimiyning asarlaridagi g'oyalarni bugungi kun bilan bog'lar ekanmiz, ularning o'zaro chambarcha bog'liq ekanligini ko'rishimiz mumkin. Soliqlardan tashqari u o'zining asarlarida korrupsiyani ham talqin qilgan. Bu esa hozirgi kunda ayniqsa bizning mamlakatimizda ham dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda.

Muqimiy hayoti davomida ana shunday qiyinchiliklar, adolatsizliklar, zulm-beshafqatliklarni ko'rganidan keyin, davlat ishida ishlamaslikka qaror qilgan va umrining oxrigacha halol, oddiy hayot kechirishni afzal ko'rgan. Qolaversa, Muqimiyning aynan mana shu yo'sinda ijod qilganiga yana bir sabab shuki, u oddiy, kamtar odamlarning hayotini o'rgangan va o'zi ham shunday hayot kechirgan. Uning asarlari hayotiy tasvirlardan olinganligi uchun ham hali –hanuz uning ijodi qiziqish bilan o'rganilmoqda va o'zining ta'sirini yo'qotgani yo'q. U o'zining asarlari orqali mavjud muammolarga yechim topishga harakat qilgan hamda shu yo'lda butun umrini sarflagan.

Xulosa qilib aytganda, Muqimiy asarlarini o'rganish orqali uni iqtisodiyotga ham befarq bo'lmaganligini sezishimiz mumkin. Ya'ni, u o'z asarlarida o'tgan og'ir davrdagi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini to'laqonligicha ochib bera olgan. Bundan tashqari, u shu darjada kamtar, saxiy, adolatparvar inson bo'lganki, o'zining hayotidan ham ko'ra ko'proq aholining tinchligi, farovonligi haqida qayg'urgan. Bu esa odamiylik fazilatlarining eng yuqori cho'qqisiga ega bo'lgan insonlarga tegishli

xususiyatdir. Shu bilan birga, uning hayot yo‘li o‘rnak bo‘lishga arziydi. Chunki, Muqimiy doimo adolat tarafdori bo‘lgan va jamiyat rivoji uchun o‘zining kata hissasini qo‘shishga uringan. U oddiy odam bo‘lishiga qaramasdan jamiyatning orasida o‘zining munosib o‘rnini topgan hamda hurmat qozongan buyuk shoirdir. Shu bois, Muqimiyning asarlarini faqatgina O‘zbekistonda emas, balki, butun dunyoga dong‘ini taratish lozim!

#### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. *Yoqubov H., O‘zbek demokrat shoiri Muqimiy, T., 1953.*
2. *Ahmedov S. O‘zbek adabiyotida “Sayohatnoma”. , 1986.*
3. *Qayumov A., “G‘oziy” , T. 1959-yil,24-bet .*
4. *arboblar.uz. Tarjimaiy hol*

## WORD-FORMATION OF ENGLISH LANGUAGE AND ITS ROLE IN ENLARGING LEXICAL RESOURCE

**Janabaeva Ayjamal Murat qizi**

Master student

Uzbek State University of World Languages

[janabaeva0626@gmail.com](mailto:janabaeva0626@gmail.com)

**Shevtsova Olga Vladimirovna**

Candidate of PhD, Uzbek State University of World Languages

### ANNOTATION

*Modern English is distinguished by its great ability to form new vocabulary units. Most new formations are created with the help of those word-building methods and means that a particular language has. This article will represent the main ways of word formation in modern English: affixation, conversion and compounding are used now and have been used in the language for many years. However, not all of them are used to the same extent, and the share of each method in the word-formation process is not the same.*

**Key words:** *vocabulary, word-formation, new formation, affixation, conversion, compounding.*

Language is a means of forming and collecting ideas as a reflection of reality and exchanging them throughout life. It has the quality of sociability, which is inseparably linked with people, and it develops due to society develops. The lexical resource of the word is constantly changing.



For knowledge of a foreign language, the richness of the vocabulary is no less important than the understanding of grammar. The more words a person owns, the freer he feels in a foreign language environment.

The variety of vocabulary is largely determined by the richness of word formation in the English language. The construction of new words is based on general principles. And the one who knows these principles feels much more confident among unfamiliar vocabulary.

Nowadays, the terms ‘word formation’ does not have a universally accepted usage and a clear meaning. It is sometimes referred to all processes connected with changing the form of the word by, for example, affixation, which is a matter of morphology.[2]

In its wider sense word formation denotes the processes of creation of new lexical units. Although it seems that the difference between morphological change of a word and creation of a new term is quite easy to perceive, there is sometimes a dispute as to whether blending is still a morphological change or making a new word. There are, of course, numerous word formation processes that do not arouse any controversies and are very similar in the majority of languages.

Problem of word formation in the English language was deeply studied by the authors of textbooks on the lexicology of the English language, such as G.B.Antrushina.V, I.V.Arnold, T.I.Arbekova, V.V.Eliseeva, S.G.Kibasova, A.N.Ilyina, Z.A. Kharitonchik.

New words are created in 3 basic ways in the English language:

- I. *Affixing*– word formation using prefixes and suffixes.
- II. *conversion*– the transformation from one part of speech to another.
- III. *compounding*– adding two or more roots.

I. According to V.V. Eliseeva, one of the most productive ways of word formation in modern English is *affixation*, which consists in attaching affixes to roots or stems[3].

The word-formation structure of a newly formed word presupposes the presence of three obligatory components: a root or stem, an affix, and a model by which the affix is attached to the generating stem. The derived word is the result of the interaction of these three components. It must be taken into account that the affix realizes its meaning not in isolation, but in combination with the base word. In terms of structure, word-formation bases are divided into free and connected.

Free stems coincide with the minimal structure of the word, and are characterized by the absence of derivational affixes. They can coincide with the root morpheme (day, wide, work), be derivative in structure (daily, widen, worker) or complex (brainstorm, businessman, teamwork). In all these cases, free stems coincide with morphological roots and may also coincide with word forms and phrases. Associated stems, unlike free stems, form the so-called word-building paradigms. For instance, in the words: *actor*, *active*, *activity*, *activate*, *action*, the free stem act is distinguished in the first four words and the associated stem act- in the word action [1].

In modern English affixation is represented in two ways: suffixation and prefixation. As a word-formation means, suffixation consists in attaching suffixes to roots and stems. There are quite a few criteria for describing and classifying word-forming suffixes.

The main types of their classification according to A.N. Ilina are the following:

1. Classification of suffixes depends on the part of speech to which the derived word belongs. When attached to the base word, it performs a categorical function, while transferring the derived word to another part of speech. In this classification, the following types of suffixes are distinguished:

- a) Nominal suffixes - suffixes that form nouns from different stems;
- b) Adjective suffixes - suffixes that form adjectives from different stems;
- c) Verbal suffixes - suffixes that form verbs from different stems;
- d) Adverbial suffixes - suffixes that form adverbs from different stems.

2. Classification of word-building suffixes depending on the part of speech to which the original word belongs:

- a) Nominative suffixes- suffixes that join the stems of nouns;
- b) Verbal suffixes- suffixes that combine with the stems of verbs;
- c) Adjective suffixes- suffixes that join the stems of adjectives.

3. Semantic classification based on the generality of the abstract categorical meaning inherent in the word-forming suffix. For example, among the nominal suffixes, the following semantic classes can be distinguished:

- a) Collective meaning suffixes: -age, -dom (luggage, freedom, boredom);
- b) Agentive suffixes -ant, -er, -ee, -ess, -eer (assistant, employer, player, employee, actress, engineer,);
- c) Suffixes, defining national or geographic attachment: -ian, -ese (Canadian, Chinese);
- d) Diminutive suffixes: -ie, -let, -ling, -ette (birdie, booklet, duckling, kitchenette).

4. There are also native English and borrowed word-building suffixes.

5. The classification of derivational suffixes in terms of their productivity distinguishes between "live" and "dead" suffixes. "Live" suffixes include those suffixes that can be easily separated from the stem. As for the "dead" suffixes, these suffixes are completely out of use and therefore are perceived as an indivisible part of the word. As academician V.V. Vinogradov notes, affixes that have lost their meaning, become unproductive and are perceived only as a sign of one or another part of speech, convey being affixes and only potentially retain the property of being distinguished.

There are some productive affixes:

Noun-forming suffixes	<b>-er</b> ( <i>trainer, leader</i> ), <b>-ing</b> ( <i>dying, building</i> ), <b>-ness</b> ( <i>coldness, fairness</i> ), <b>-ism</b> ( <i>materialism</i> ), <b>-ist</b> ( <i>impressionist</i> )
Adjective-forming suffixes	<b>-y</b> ( <i>angry, merry</i> ), <b>-ish</b> ( <i>oldish, lookish</i> ), <b>-ed</b> ( <i>learned</i> ), <b>-able</b> ( <i>capable</i> )
Adverb-forming suffixes	<b>-ly</b> ( <i>coldly, simply</i> )
Verb-forming suffixes	<b>-ize/-ise</b> ( <i>realize</i> )
Prefixes	<b>un-</b> ( <i>unhappy</i> ), <b>re-</b> ( <i>reconstruct</i> ), <b>dis-</b> ( <i>disappoint</i> )

There are some non-productive affixes:

Noun-forming suffixes	<b>-th</b> ( <i>growth</i> ), <b>-hood</b> ( <i>childhood</i> )
Adjective-forming suffixes	<b>-ly</b> ( <i>early</i> ), <b>-some</b> , <b>-en</b> , <b>-ous</b> ( <i>friendly</i> )
Verb-forming suffix	<b>-en</b> ( <i>shorten</i> )

II. Conversion (zero derivation, root formation, functional change) is the process of coining a new word in a different part of speech and with different distribution characteristics but without adding any derivative element, so that the basic form of the original and the basic form of derived words are homonymous. This phenomenon can be illustrated by the following cases: work – to work, love – to love, water – to water.

Referring to V.V. Eliseev, conversion is one of the main productive ways to replenish the vocabulary of modern English [3].

The reason for such a wide distribution of conversion is the almost complete absence of morphological indicators of parts of speech.

In other words, the root, stem and grammatical form of a word can match in form, sound and spelling. Only external indicators, such as the article, help determine the meaning and function of a word in a sentence. When a new word is created by conversion with the original root stem, the following changes occur:

Firstly, the new word receives all the endings that serve to form grammatical forms in the new part of speech;

Secondly, the new word acquires a different syntactic function and compatibility;

Thirdly, the new word acquires a new lexical and grammatical meaning.

The last change is due to the fact that in the process of forming a new word by conversion, the categorical meaning of the original stem changes.

In other words, a new word is included in a new paradigm and is characterized by new grammatical categories. In addition, the result of the conversion is the homonymy of the main forms of the derived word and the original word, that the appearance of language units that coincide in form, sound and spelling, but have different meanings and belong to different parts of speech.

There are some examples of conversion:

**Noun to verb:** Don't *butter* the bread for me. I prefer jam.

**Verb to noun:** He scored a *hit* in his first shot; He used some *cheats* in the computer game to make him win easier.

**Adjective to noun:** I am one of the *regulars* at the pubs; Stop shouting and running around like a *crazy*.

**Adjective to verb:** Can you *empty* the bin for me, please?

*III. Compounding*, also called *composition*, is when two or more words are combined together to form a new word. For example, the word *underground* is a combination of the words *under* and *ground*. In English, *compounding* is used to form words belonging to four common parts of speech: nouns, verbs, adjectives, and adverbs.

Most of the time, compounding creates a word or phrase that means something different than the meanings of the words used as "ingredients." For example, the word *bluebird* refers to specific species of songbirds whereas the separate words *blue bird* refers to any bird with blue feathers. As another example, the

adjective *old school* refers to supporting traditional methods or values and doesn't refer to ancient scholarly buildings.

In conclusion, there are diversity of word formation processes that were mentioned above. These processes create new words and puts them in different grammatical categories, as well as creates new meanings to some words.

We came to the conclusion that affix formations are the most productive, composition, conversion, since they have come a long way in the history of the English language.

### REFERENCES

1. Amosova N.N (1956) “*Etimologicheskie osnovi slovarnogo sostava sovremennogo angliyskogo yazika*” – Moscow, 35.
2. Antrushina G.B 2007 “*Leksikologiya angliyskogo yazika*” – Drofa, 8.
3. Eliseeva V.V (2003) “*Leksikologiya angliyskogo yazika*” *HomeEnglish*, 12-20.
4. Ingo Plag (2003) “*Word Formation in English, Word Formation*” –Cambridge University Press.
5. Karashuk P.M (1977) “*Slovoobrazovatel'naya kategoriya angliyskogo yazika*”.
6. Leonhard Lipca (2002) “*English Lexicology: Lexical Structure, Word Semantics & Word-formation, Lexicology*”.
7. Vinogradov V (1952) “*Slovoobrazovatel'nie v ego otnoshenii k gramatike i leksikologii*” .
8. [www.wikipedia.com](http://www.wikipedia.com)

## MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA UNING AHAMIYATI

**Qodirova Dilshoda Abdunabiyevna**

Fargʻona davlat universiteti oʻqituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Matematik model - tashqi olam hodisalarining ayrim sinfining matematik belgilarda ifodalangan taxminiy tavsifi hisoblanadi. Matematik tuzilmadan foydalanadigan barcha tabiiy va ijtimoiy fanlar, aslida, matematik modellashtirish bilan shugʻullanadi. Matematik modellashtirish - ob'ektni bilvosita amaliy yoki nazariy o'rganish bo'lib, unda bizni qiziqtiradigan ob'ekt to'g'ridan-to'g'ri o'rganilmaydi, balki mavjud ob'ekt bilan qandaydir ob'ektiv mos keladigan qandaydir yordamchi sun'iy yoki tabiiy tizim (model) o'rganiladi*

***Kalit soʻzlar:** model, matematik model, ehtimoliy usul, simulyatsiya, deterministik usul, strukturaviy model, funksional model, matematik munosabatlar, masofaviy diagnostika.*

## MATHEMATICAL MODELING AND ITS SIGNIFICANCE

### ABSTRACT

*A mathematical model is an approximate description of some class of phenomena of the external world expressed in mathematical symbols. All natural and social sciences that use mathematical structure are, in fact, engaged in mathematical modeling. Mathematical modeling is an indirect practical or theoretical study of an object, in which the object of interest is not directly studied, but some kind of objective correspondence with the existing object some auxiliary artificial or natural system (model) is studied*

**Keywords:** *model, mathematical model, probabilistic method, simulation, deterministic method, structural model, functional model, mathematical relationship, remote diagnostics.*

Matematik model - bu haqiqatning matematik tasviri, modelning tizim sifatidagi variantlaridan biri bo'lib, uni o'rganish boshqa tizim haqida ma'lumot olishga imkon beradi. Matematik model, xususan, haqiqiy ob'ektning harakatini bashorat qilish uchun mo'ljallangan, lekin har doim uning idealizatsiyasining u yoki bu darajasini ifodalaydi [1].

Matematik modellashtirish usuli - bu ob'ektni bilvosita amaliy yoki mavhum o'rganish mexanizmi bo'lib, unda qandaydir qo'shimcha sun'iy kelib chiqish yoki to'g'ridan-to'g'ri model to'g'ridan-to'g'ri tekshiriladi, u aniqlanayotgan ob'ekt bilan qandaydir ob'ektiv kelishuvda joylashgan; uni o'ziga xos jihatlarda almashtirish va o'rganish, natijada simulyatsiya qilingan ob'ektning o'zi haqida ma'lumot berish ehtimoliga ega. Modellashtirish uchun bilish uchun kerak bo'lgan asosiy matematik modellashtirish usullari ham mavjud.

Deterministik usul - har bir omil qiymati samarali ko'rsatkichning aniq belgilangan tasodifiy bo'lmagan qiymatiga mos keladigan usul;

Ehtimoliy usullar - tizimning chiqish xarakteristikalarini va tizimning kirish o'zgaruvchilari (parametrlari) o'rtasidagi bog'liqlikni tasodifiy omillarni hisobga olgan holda tavsiflash uchun ishlatiladigan usullar.

Matematik modellar analitik va simulyatsiyaga bo'linadi:

- analitik - standart matematik tildan foydalanadigan modellar (formulalar yoki tenglamalar);

- simulyatsiya - maxsus modellashtirish tili yoki universal dasturlash tili (maxsus algoritmlar yoki dasturlar) dan foydalanadigan modellar

Matematik modellashtirish ham faoliyatning o'zi, ham matematik modellarni qurish va o'rganish uchun qabul qilingan usul va usullarning yig'indisi deb ataladi.

Matematik tuzilmadan foydalanadigan barcha tabiiy va ijtimoiy fanlar, aslida, matematik modellashtirish bilan shug'ullanadi. Ular o'rganilayotgan ob'ektni uning



matematik modeli bilan almashtiradilar va keyin ikkinchisini o'rganadilar. Matematik usullar yordamida, qoida tariqasida, mazmunli modellashtirish bosqichida qurilgan ideal ob'ekt yoki jarayon tasvirlanadi. Matematik modelning voqelik bilan bog'lanishi empirik qonunlar, gipotezalar, ideallashtirishlar va soddalashtirishlar zanjiri yordamida amalga oshiriladi.

Matematik model - tashqi olam hodisalarining ayrim sinfining matematik belgilarda ifodalangan taxminiy tavsifi hisoblanadi.

Boshqa versiyalarda matematik model asl ob'ektning ba'zi xususiyatlarini o'rganishni ta'minlovchi ob'ekt o'rnini bosuvchi ob'ekt sifatida tavsiflanadi, ob'ektning "ekvivalenti" sifatida, matematik shaklda eng ko'p aks ettirilgan.

Shuningdek, matematik modellashtirish ilmiy-texnika taraqqiyotining ajralmas qismidir. Zamonaviy matematika ulkan va ta'sirchan tadqiqot vositalariga ega. Model, ob'ekt yoki o'rganilayotgan hodisani yaratishda, ba'zilarining fikriga ko'ra, ob'ekt haqida ko'proq yoki kamroq zarur ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, boshqalarga ko'ra, matematik rasmiylashtirishni ta'minlaydigan parametrlar va tafsilotlar kiritiladi. Ammo modellashtirish qanday amalga oshirilishini tushunish uchun matematik modellashtirish usuli nima ekanligini tushunish ham kerak.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Анищенко В. С. *Динамические системы // Соросовский образовательный журнал.* — 1997. — № 11. — С. 77—84.

2. Tuychiyeva, X. Z. qizi. (2023). *BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. INTERNATIONAL CONFERENCES, 1(1), 378–380. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1180>*

3. Tuychiyeva, X. Z. qizi. (2023). *O'SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH USULLARI. Educational Research in*

*Universal Sciences*, 2(1), 33–39. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1047>

4. Tuychiyeva, X. Z. qizi, & Turdibekov, M. (2023). *ANTROPOGEN MUHIT OMILLARI VA ULARNING HASHAROTLARGA TA'SIRI*. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 296–273. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1341>

5. Tuychiyeva, X. Z. kizi, & Turdibekov, M. (2022). *BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOPHORA JAPONICA*. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 146–151. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/852>

## JISMONIY RIVOJLANISH SOG‘LIQNI SALASH HOLATINI BAHOLASHDAGI O‘RNI

**Muhiddinov Abdubanob**

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

**Tuychiyeva Xilola Zokirjon qizi**

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

[tuychiyevafdu1993@gmail.com](mailto:tuychiyevafdu1993@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Jismoniy rivojlanish tug‘ilish, kasallanish va o‘lim bilan birga aholi salomatligi darajasining ko‘rsatkichlaridan biridir. Jismoniy va jinsiy rivojlanish jarayonlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, o‘sish va rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini aks ettiradi, ammo shu bilan birga ular ijtimoiy, iqtisodiy, sanitariya-gigiyena va boshqa sharoitlarga sezilarli darajada bog‘liq bo‘lib, ularning ta’siri asosan yoshi bilan belgilanadi.*

***Kalit so‘zlar:** genotipik potensial, fenotipik ko‘rinish, ontogenez, jismoniy rivojlanish, rekreatsion tadbirlar, geografik muhit, jinsiy rivojlanish, aqliy faoliyat.*

## THE ROLE OF PHYSICAL DEVELOPMENT IN HEALTH STATUS ASSESSMENT

### ABSSTRACT

*Physical development is one of the indicators of population health along with birth rate, morbidity and mortality. The processes of physical and sexual development are interrelated and reflect the general laws of growth and development, but at the same time they are significantly dependent on social,*

*economic, sanitary and hygienic and other conditions, and their the effect is mainly determined by age.*

**Key words:** *genotypic potential, phenotypic appearance, ontogenesis, physical development, recreational activities, geographical environment, sexual development, mental activity.*

Jismoniy taraqqiyot, genotipik potentsialning fenotipik ko‘rinishga aylanishi aniq bo‘lgan postnatal ontogenezning ayrim bosqichlarida (individual rivojlanish) organizmning o‘sishi va rivojlanish jarayonlarini aks ettiradi. Insonning jismoniy rivojlanishi va jismoniy xususiyatlari asosan uning konstitutsiyasiga bog‘liq.

Jismoniy rivojlanish deb doimiy biologik jarayonlar tushuniladi. Har bir yosh bosqichida ular organizmning bir-biri bilan va tashqi muhit bilan bog‘liq bo‘lgan morfologik, funktsional, biokimyoviy, aqliy va boshqa xususiyatlarining ma‘lum majmuasi va shu o‘ziga xoslik tufayli yuzaga kelgan jismoniy kuch zaxirasi bilan tavsiflanadi. Jismoniy rivojlanishning yaxshi darajasi yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlik, mushak va aqliy faoliyat bilan birlashtiriladi.

Jismoniy rivojlanish deganda organizmning kattaligi, shakli, strukturaviy va mexanik fazilatlari va inson tanasining uyg‘un rivojlanishini, shuningdek uning jismoniy kuchining zaxirasini tavsiflovchi morfologik va funktsional xususiyatlar majmuasi tushuniladi.

Jismoniy rivojlanish - bu aholi salomatligi darajasini belgilaydigan eng muhim belgilaridan biri. Ammo jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari rasmiy statistik tahlil uchun majburiy emas va hisobotda aks ettirilmaydi, bu butun respublika bo‘ylab aholining ayrim guruhlarining jismoniy rivojlanish darajasi va dinamikasini har joyda va doimiy ravishda kuzatib borishga imkon bermaydi.

Jismoniy rivojlanish darajasiga ijtimoiy-biologik, tibbiy-ijtimoiy, tashkiliy, tabiiy va iqlim omillari majmuasi ta’sir qiladi. Turli xil iqtisodiy-geografik zonalarda yashovchi aholining, turli millat vakillarining jismoniy rivojlanishida farqlar mavjud. Uzoq muddatli noqulay omillarning ta’siri ostida jismoniy rivojlanish darajasi

pasayadi, aksincha, sharoitlarning yaxshilanishi, turmush tarzining normallasishi jismoniy rivojlanish darajasining oshishiga yordam beradi.

Jismoniy rivojlanishni o'rganish quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1) aholining turli yosh va jinsiy guruhlarida jismoniy rivojlanish va uning qonuniyatlarini o'rganish va ma'lum vaqt oralig'ida siljish;

2) xuddi shu jamoalarda jismoniy rivojlanish va sog'lig'ini dinamik ravishda kuzatish;

3) bolalarning jismoniy rivojlanishini individual va guruhli baholash uchun mintaqaviy yosh-jinsiy standartlari tadbirlarini ishlab chiqish;

4) rekreatsion tadbirlar samaradorligini baholash.

Jismoniy rivojlanish ma'lum darajada irsiyat qonunlari bilan belgilanadi, ular insonning jismoniy rivojlanishiga ko'mak beradigan yoki aksincha, to'sqinlik qiladigan omillar sifatida hisobga olinishi kerak. Insonning qobiliyatlari va sportdagi muvaffaqiyatlarini bashorat qilishda, ayniqsa, irsiyatni hisobga olish kerak.

Jismoniy rivojlanish jarayoni ham yoshni belgilash qonuniga bo'ysunadi. Insonning jismoniy rivojlanishi jarayonida uni boshqarish uchun faqat turli xil yoshdagi davrlarda inson tanasining xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda aralashish mumkin: shakllanish va o'sish davrida, qarish davrida uning shakllari va funktsiyalarining eng yuqori rivojlanishi.

Jismoniy rivojlanish jarayoni organizm va atrof-muhit birligi qonuniga bo'ysunadi va shuning uchun mohiyatan inson hayoti sharoitlariga bog'liq. Turmush sharoitlari birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlarni o'z ichiga oladi. Hayot, mehnat, tarbiya va moddiy ta'minot sharoitlari insonning jismoniy holatiga sezilarli ta'sir qiladi va organizm shakllari va funktsiyalarining rivojlanishi va o'zgarishini belgilaydi. Geografik muhit jismoniy rivojlanishga ham ma'lum ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy mashqlarning biologik qonuni va organizmning o'z faoliyatidagi shakllari va funktsiyalarining birligi qonuni jismoniy tarbiya jarayonida jismoniy rivojlanishni boshqarish uchun katta ahamiyatga ega. Ushbu qonunlar har bir holatda jismoniy tarbiya vositalari va usullarini tanlash uchun boshlang'ich nuqtadir.

Jismoniy rivojlanishning asoslari bolalik davrida qo'yiladi, shuning uchun uni tavsiflovchi ko'rsatkichlar yosh avlodning sog'lig'ini baholashda majburiydir. Jismoniy rivojlanish odatda yangi tug'ilgan chaqaloqlarda, har xil yoshdagi bolalar va o'spirinlarda, shuningdek, katta yoshdagi populyatsiyada har xil tug'ilgan yil avlodlarini tavsiflash uchun o'rganiladi.

Turli xil iqtisodiy va geografik zonalarda yashovchi aholining, turli millat vakillarining jismoniy rivojlanishida farqlar qayd etiladi. Uzoq muddatli noqulay omillarning ta'siri ostida jismoniy rivojlanish darajasi pasayadi va aksincha, sharoitlarning yaxshilanishi, turmush tarzining normallasishi jismoniy rivojlanish darajasining oshishiga yordam beradi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI***

1. Tuychiyeva, X. Z. qizi. (2023). BIOLOGIYA DARSLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI. *INTERNATIONAL CONFERENCES*, 1(1), 378–380. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/cf/article/view/1180>
2. Tuychiyeva, X. Z. qizi. (2023). O'SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH USULLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(1), 33–39. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1047>
3. Tuychiyeva, X. Z. qizi, & Turdibekov, M. (2023). ANTROPOGEN MUHIT OMILLARI VA ULARNING HASHAROTLARGA TA'SIRI. *GOLDEN BRAIN*, 1(2), 296–273. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1341>
4. Tuychiyeva, X. Z. kizi, & Turdibekov, M. (2022). BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOPHORA JAPONICA. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 146–151. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/852>

5. Muhiddinov Abdubanob. (2022). THEORY OF INSTALLATION IN SPORTS ACTIVITY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact Factor: 7.429, 11(09), 144–147. Retrieved from <http://www.gejournal.net/index.php/IJSSIR/article/view/1000>

## XOTIRA, UNING TURLARI VA INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

**Axmatjonova Xurshida Komiljon qizi**

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiyali

“Psixalogiya” fakulteti Oila psixalogiyasi yo‘nalishi

### ANNOTATSIYA

*Maqola xotira mavzusiga bag‘ishlangan hisoblanadi. Maqolada xotiraning fizalogik asosining turlari haqida ma‘lumot berilgan. Xotiraning ruhiy faoliyatning turiga ko‘ra turlari klassifikatsiya qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** Xotira, fizologik asos, eslab qolish, obrazli xotira, hissiy xotira, so‘z- mantiq xotirasi, ixtiyoriy xotira, ixtiyorsiz xotira, unitish, qisqa muddatli xotira, uzoq muddatli xotira, mexnik xotira, operativ xotira, iz qolish, harakat xotira.

Biz sezgan, idrok qilgan narsalar iz qoldirmasdan yo‘qolib ketmaydi, balki ma‘lum darajada esda saqlanib qoladi va qulay sharoyitda yoki kerak bo‘lganda esimizga tushadi. Kundalik tajribamiz shuni ko‘rsatadiki, esda qolgan narsalarning hammasi ham esimizga tushavermaydi ularning bir qismi unitiladi. Unitish ham xotiraga oid hodisadir. Esda qolgan narsa xotira matiralini, esda saqlanib turadigan va esga tushiriladigan narsa esa xotiraning mazmunini tashkil qiladi. Ongimiz aks etirgan narsalarni mustahkamlash saqlab qolish va keyinchalik tiklashdan iborat aqliy faoliyat xotira deyiladi.

Psixalogik manbalarda ko‘rsatilishicha, psixikaning eng muhim hususiyati shundan iboratki, inson tashqi ta‘sirotlarning aks etirilishidan o‘zining keying faoliyatida, xatti-harakatlarida doimo foydalanadi va ijodiy yondashuvi natijasida ba‘zi bir o‘zgarishlar kiritadi. Insonda shaxsiy tajriba, ko‘nikma, malaka va bilim ko‘lami ortib borishi hisobiga faoliyat hamda xulq-atvor tobora murakkablashib, yangi mazmun, yangi sifat kasb eta boshlaydi. Ma‘lumki agar tashqi olamning bosh



miya katta yarim shariga hosil bo'ladigan obrazlari, timsollari va ularning izlari yo'qolib keraversa, tajribaning saqlanishi, bilimlarning boyishi, murakkablashishi muayyan tartibga kelishi, qaytadan jonlanishi mutlaqo mumkin bo'lmas edi. Modomiki shunday ekan, mazkur obrazlar bir-biri bilan o'zaro uzviy bog'lanib, asta sekin mustahkamlanib, miya qobig'ida puxta saqlanib qoladi, shu bilan birga, hayot va faoliyatning muayyan talablariga muvofiq ravishda qaytadan jonlanadi va avvalgi holatini boshqatdan namoyon qiladi.

Xotira shaxs ruhiy faoliyatining eng muhim tarkibiy qisimlaridan biri hisoblanadi. Shuni alohida takidlash kerakki, xotiraning bosh ro'li o'tmishda yuz bergan narsa va hodisalarni aks etirish bilan cheklanib qilmasdan, balki ham hozirda, ham kelajakda amalga oshirish rajalashtirilgan voqeylikning ro'yobga chiqishini taminlaydi. Tabiatda va jamiyatda namoyon bo'ladigan har qanday toifadagi ruhiy hodisa o'zinig tarkibiga kiruvchi har bir qismni muayyan tartibda o'zaro bog'langan holda saqlab qolinishini talab etadi.

Izlarning saqlanib qolishi xotiraning fizalogik asosi hisoblanadi. Xotiraning fizalogik asosi 3 turga bo'linadi.

#### 1.Asab tizimida izlarning saqlanishi.

Qo'zg'atuvchi ta'siri ostida hosil qilingan izlarning uzoq muddat saqlanish hodisasining hayvonot olamining taraqqiyoti jarayonida namoyon bo'lish hususiyati tadqiqotchilar tomonidan tekshirilgan va muayyan darajada ma'lumotlar to'plash imkoniyatiga ega bo'lganlar. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ko'p vaqt bir xil signalni takrorlab turish natijasida insonning unga moslashishi yani orientir refleksining so'nishiga, befarqlikka olib boradi ( E.N. Boyko, E.N. Sokolov va boshqalar). Psixolik E.N. Sokolovning fikricha, bunday odatlanish, ko'nikish hodisasini alohida olingan neyroning ko'p marotaba ta'sir etgan qo'zg'atuvchiga berayotgan javobini tekshirish orqali sezish mumkin.

#### 2.Izlarning "konsolidasiyalanish" jarayoni.

Yuqorida inson miyasiga ta'sir qilgan qo'zg'atuvchilarning izi esda olib qolinishini ko'rgan edik. Navbatdagi vazifa izlarning mustahkamlanish jarayoni

qanday kechadi, degan savolga javob topish hisoblanadi. Ko'pgina psixoliklar izlanishlariga qaraganda, insonning bosh miyasi jarohatlanganda, jarohatgacha bo'lgan qisqa vaqt ichida va jarohatdan keyin ma'lum vaqt oralig'ida ta'sir qilgan qo'zg'aluvchilar izi saqlanmaydi. Bosh suyagi og'ir jarohatlanib, odam hushdan ketganda, shikaslangungacha qanday voqea yuz berganligini va undan so'ng ro'y bergan hodisani sira eslay olmaydi. Bu hol anteregrad, retrograde va anteroretrograd amneziyasi degan nom olgan. Bu holat shuni ko'rsatadiki, asab tizimida ro'y bergan kuchli shok (ruhiy og'ir favquloddagi xastalanish)miya ma'lum muddatga unga yetib kelgan qo'zg'atuvchilarning izlarini saqlashga qobiliyatsiz qilib qo'yadi.

### 3. Xotiraning fizik va neyron iz qolish nazariyalari.

Fizik iz qolish nazariyasida neyronlardan nerv impulslarining o'tishi o'zidan keyin fizik iz qoladi deb taxmin qilinadi. Bu nazariya tarafdorlarining fikriga qaraganda, izlarning fizik aks etish sinapislarida yuzaga keladigan elektririk va mexanik o'zgarishlarda o'z aksini topadi.

Xotira insonning hayoti va faoliyatining barcha sohalarida qatnashishi tufatli uning namayon bo'lish shakillari, holatlari, shart-sharoitlari, omillari ham xilma-xil ko'rinishga egadirlar. Odatda xotiraning turlariga va ularni muayyan turlarga ajratishda eng muhim asos qilib, uning haraktiristikasini esda olib qolish, esda saqlash, qayta esga tushurish, tanish singari jarayonlar amalga oshiriluvchi faoliyatning hususiyatiga bog'liqligi olinadi. Umumiy psixalogiyada xotira 5 ta muhim mezonga (bizningcha) muvofiq ravishda turlarga, ko'rinishlarga ajratiladi:

I. Ruhiy faoliyatning faolligiga ko'ra xotira quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) harakat yoki motor-harakat xotirasi;
- b) obrazli xotira;
- v) his-tuyg'u yoki hissiyot xotirasi;
- g) so'z-mantiq xotirasi.

II. Ruhiy faoliyatning maqsadiga binoan;

- a) Ixtiyorsiz, b)ixtiyoriy, v)mexanik.

III. Ruhiy faoliyatning davomiyligiga ko'ra:

- a) qisqa muddatli xotira;
- b) uzoq muddatli ;
- v) operativ tezkor xotira.

IV. Ruhiy faoliyat qo‘zg‘atuvchisining sifatiga ko‘ra:

- a) musiqiy; b) eshitish xotirasi.

V. Ruhiy faoliyatning inson yo‘nalishiga ko‘ra:

- a) fenomenal, b) kasbiy.

Harakat xotirasi. Inson faoliyatining har bir turiga ruhiy faollikning u yoki bu turlari ustinlik qilishi kuzatiladi. Xotiraning boshqa turlariga qaraganda , harakat xotirasi bazi odamlarda aniq, ravshan ustunlik qilayotganligi uchrab turadi.

Obrazli xotira. Obrazli xotira tasavvurlar va turmush manzaralari, shuning bilan birga, tovushlar, tamlar, ranglar, shakillar bilan bog‘liq bo‘lgan xotira turi.

His-tuyg‘u yoki hissiy xotira. Bu xotira his-tuyg‘u, ruhiy kechinmalar, hissiyotlar bizning ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi narsa va hodisalarning xususiyatiga nisbatan munosabatlarimiz qay tarzda amalga oshirilayotganligidan doimo xabar berib turish imkoniyatiga ega. Shuning uchun har bir kishining hayoti va faoliyatida hissiy hotiya turi juda katta ahamiyat kasb etadi.

So‘z-mantiq xotirasi. So‘z-mantiq xotirasi mazmunini fikr va mulohazalar, aniq hukm hamda xulosa chiqarishlar tashkil etadi. Insonlarda fikr va mulohaza turli xil shakllar yordamida ifodalanishi tufayli, ularni ifodalash faqat o‘lashtirilayotgan materallarning asosiy manosini izuhlash, talqin qilib berish yoki ularni so‘zma so‘z ifodalanishini aynan aytib berishga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

Xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari xotira taraqqiyotida ikkita ketma-ket bosqichlarni tashkil etadi. Ixtiyoriy xotiraning turmushda va faoliyatda katta o‘rin egallashini har kim o‘z shaxsiy tajribasidan biladi. Ixtiyorsiz xotiraning muhim xususiyatlaridan biri mahsus maqsadsiz, aqliy, asabiy, irodaviy zo‘r berishsiz hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan keng ko‘lamdagi ma‘lumot, xabar, axbarot, taassurotlarining ko‘pchilik qismini aks etirishidir.

Xotira tufayli ongimizda faqat hozirgi paytdagi narsalar, hodisalar aks etib qolmay, balki o‘tmishda idrok qilingan narsan va hodisalar, kechirgan tuyg‘u , fikrlar ham aks etadi. Xotiraga ega bo‘lmaganimizda edi biz siz paytda idrok qilayotgan narsa va hodisalarni aks etirar edik, shu bilan birga, idrok qilinayotgan narsa va hodisalar hamma vaqt bizga yangi notanishdek ko‘rinar edi. Odam xotira tufayli bilim va malakalar hosil qiladi, bilimini boyitadi, savyasini kengaytiradi. Xotira boshqa psixik jarayonlarning faoliyati va taraqqiysi uchun katta ahamiyatga ega. Odamning tasavvurlari boyligi va xotirasida mustahkam o‘rnashib qolgan bilimlari qanchalik boy bo‘lsa, uning idroki ham shunchalik mazmundor to‘la aniq bo‘ladi. Xayol, tafakkur, nutq va irodasining faoliyati ham samarali bo‘ladi.

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. *”UMUMIY VA TIBBIYOT PSIXOLOGIYA” M.Fayziyev, E.H. Eshboyev. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi tomonidan tibbiyot kollejlari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan II nashr. Toshkent Abu Ali ibn Sino nomidagi tibbiyot nashriyoti 2003. 39-bet*

2. *” UMUMIY PSIXOLOGIYA” Ergash G‘oziyev. O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti TOSHKENT-2010 417-437-bet*

3. *” UMUMIY PSIXALOGIYA” P.I.Ivanov M.E.Zuzafarova O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti TOSHKENT- 2008 158-bet.*

**NEFT-KIMYO SANOATIDA QUVURLARDA BORADIGAN KORROZIYA  
MONITORINGINI O'RGANISH UCHUN QO'LLANILADIGAN  
VOSITALAR**

**Asrorova Zuhra Sarvar qizi**

Jizzax Politexnika Instituti 2-bosqich magistranti

**Erkinov Nodir Zufar o'g'li**

Jizzax Politexnika Instituti 2-bosqich magistranti

[asrorova96@list.ru](mailto:asrorova96@list.ru)

**Hamzayev Sherzod Shuhrat o'g'li**

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti 2-bosqich magistranti

[hamzayev92@list.ru](mailto:hamzayev92@list.ru)

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada korroziya monitoringi xizmat muddatini bashorat qilish va dala infratuzilmasining muhim qismi bo'lgan dala uskunalari va quvurlarning yaxlitligini boshqarishning samarali vositasi sifatida muhokama qilinadi. Bundan tashqari, monitoringning amaliy qo'llanilishi qo'llaniladigan korroziya inhibitörleri, bakteritsidlar, kislorodni tozalash vositalarining samaradorligini baholash va inhibitsion birligi narxini pasaytirish bilan bog'liq. Korroziyaga qarshi kurashning zamonaviy usullari stress-korroziya shikastlanishini aniqlashda etarlicha samarali emasligi ko'rsatilgan. Korroziyani nazorat qilish bloklarini korroziyani nazorat qilishning qo'shimcha vositalari bilan to'ldirish taklif etiladi: uch darajali ishlash printsipligiga ega namuna oluvchi va uchta plastinka ushlagichi - yog 'yig'ish tizimlariga o'rnatilgan uchun; bioproblar - konning suv o'tkazgichlariga o'rnatilgan uchun. Yog 'yig'ish tizimlariga namuna oluvchilar va ushlagichlarni o'rnatishning maqsadga*

*muvoftqligi konlarni ekspluatatsiya qilish jarayonida tashiladigan ommaviy axborot vositalarining suv kesilishining ko'payishi bilan bog'liq. Ko'pgina konlarda noxush korroziya holatining asosiy sababi sanoat oqava suvlarining sulfat kamaytiruvchi bakteriyalar bilan yuqori bio-kontaminatsiyasidir. Bioproblarning o'rnatilishi ob'ektning bioinfeksiyasi haqida to'liq tasavvur beradi. Taklif etilayotgan qurilmalar u yoki bu yo'nalishni inhi-be qilishning maqsadga muvoftqligi to'g'risida tezda qaror qabul qilish imkonini beradi. O'z navbatida, kimyoviy moddalarni etkazib berishni optimallashtirish korroziyaga qarshi chora-tadbirlarda qo'llaniladigan qimmat ingibitorlar uchun sezilarli xarajatlarni tejashga olib keladi.*

**Kalit so'zlar:** *korroziya monitoringi, korroziya inhibitori, sulfatni kamaytiruvchi bakteriyalar, tashilgan muhitda kesilgan suv, uch darajali namuna oluvchi, uch plastinka ushlagichi, biozond.*

## **CORROSION MONITORING IN PIPELINES IN THE PETROCHEMICAL INDUSTRY TOOLS USED FOR LEARNING**

### **ABSTRACT**

*The article deals with the corrosion monitoring as an effective means of predicting service life and controlling integrity of oilfield equipment and pipelines which are an important part of infrastructure of the oil field. Furthermore, practical application of the monitoring involves assessing the effectiveness of corrosion inhibitors, bactericides, and oxygen absorbent and reducing unit costs for inhibition. It has been shown that modern methods of corrosion control are not effective enough in detecting stress corrosion damage. Complete set of the units of controlling corrosion by additional means of corrosion control has been proposed. A sampler with three-level principle of action and a holder of three bars should be used for the corrosion control units installed on oil gathering systems. Biosensors should be used for the corrosion control units installed on water conduits of the oil field. Practicability of setting samplers and holders on oil gathering systems is connected*

*with an increase of water cut of fluids as developed fields. The main reason for the unfavorable corrosion situation in many fields is a high level of bioinfection with sulfur reducing bacteria in commercial wastewater. If biosounds are installed, a complete picture of the field bioinfection can be seen. The equipment proposed will allow making decisions on whether inhibiting one or another direction quickly. Whereas, optimization of chemical supply leads to significant cost savings on expensive inhibitors used in anti-corrosion measures.*

**Keywords:** *corrosion monitoring, corrosion inhibitor, sulfur reducing bacteria, water cut of fluids, sampler with three-level principle of action, holder of three bars, biosound.*

**Kirish.** Korroziya monitoringi xizmat muddatini bashorat qilish va asbob-uskunalar va quvurlarning yaxlitligini boshqarishning samarali vositasi - kon infratuzilmasining muhim qismidir.

Neft va gazni qazib olish va qayta ishlash korroziyaga qarshi yagona sanoatdir. Korroziya - bu muammo bo'lib, ularsiz neft koni uskunalarning normal ishlashini ta'minlash mumkin emas.

"Korroziya" atamasi metallning atrof-muhit bilan o'z-o'zidan sodir bo'ladigan kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik o'zaro ta'siri sifatida tushunilishi kerak, bu esa ushbu metall yoki undan yasalgan metall konstruktsiyalarning xususiyatlarining o'zgarishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish quduqlari uskunasi korroziyadan zarar etkazishning asosiy turi quvurlarning ichki yuzasi korroziyasidir. Natijada, germetiklik buziladi, bu esa qimmat er osti ta'mirlashga, ishlamay qolgan uskunalarni almashtirishga, shuningdek, atrof-muhitga zarar etkazishga olib keladi. Agressiv muhitlar (quvurlar, elektr dehidrotorlar, turli xil rezervuarlar va konteynerlar, reaktorlar va boshqalar) bilan aloqada bo'lgan asbob-uskunalar korroziya nuqsonlari ham katta moddiy xarajatlarga olib keladi, shuning uchun korroziyadan himoya qilishning muayyan turlari va usullarini qo'llash kerak.

Metallarning korroziyasidan katta iqtisodiy yo‘qotishlar. Misol uchun, Qo‘shma Shtatlarda, so‘nggi NACE ma‘lumotlariga ko‘ra, korroziyadan etkazilgan zarar va unga qarshi kurash xarajatlari YaIMning 3,1 foizini (276 milliard dollar) tashkil etdi. Germaniyada bu zarar YaIMning 2,8 foizini tashkil etdi. Turli mamlakatlar ekspertlarining fikriga ko‘ra, sanoati rivojlangan mamlakatlarda bu yo‘qotishlar yalpi milliy mahsulotning 2% dan 4% gacha. Shu bilan birga, metall yo‘qotishlar, shu jumladan muvaffaqiyatsiz metall konstruksiyalar, mahsulotlar, uskunalar massasi yillik po‘lat ishlab chiqarishning 10 dan 20% gacha.

2011-yilda “Rosneft Oil Company”dagi avariya soni 10,7 mingtani tashkil etgan bo‘lsa, atrof-muhitga 163 ming barrel neft chiqarilgan. Bu G‘arb korporatsiyalari - Shell, BP, ConocoPhillips, Chevron kompaniyalaridan ko‘p marta va o‘nlab marta ko‘pdir. Metallarning yo‘q qilinishi va asbob-uskunalarining ishdan chiqishi natijasida atrof-muhitning ifloslanishi, katta iqtisodiy zarar bilan birga keladi. 97% hollarda qochqinning asosiy sababi neft quvurlarining korroziyasidir.

Uskunaning korroziya holatini baholashning samarali usuli bu korroziya monitoringi - korroziyaning mumkin bo‘lgan nosozliklari haqida o‘z vaqtida ma‘lumot olish uchun ob‘ektning korroziya holatini kuzatish va bashorat qilish tizimi.


**Korroziyani nazorat qilish usullari.** Bugungi kunga kelib, intensivlikni baholash va korroziya shikastlanishining xarakterini aniqlash imkonini beruvchi bir qator usullar mavjud.

Amalda, eng keng tarqalgan vazn usuli, elektr qarshilik usuli va chiziqli polarizatsiya usuli.

- Vazn usuli

Korroziya inhibitörlerinin himoya ta‘sirini nazorat qilish guvoh namunalari yordamida RD 39-0147103-362-86 (neft konlarini rivojlantirish va rekonstruksiya qilish loyihalarini tayyorlashda korroziyaga qarshi choralarni qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatmalar) ga muvofiq amalga oshiriladi.





**1-rasm.** Detallar namualari.

Metall namuna ma'lum vaqt davomida tizimga ta'sir qiladi. Detal namunalari (1-rasm) ushlagichdan ajratilgan va quvurlarning ichki yuzasi bilan elektr aloqasi yo'q. Ta'sir qilishdan so'ng detal namunalari (1-rasm) vizual tarzda tekshiriladi (zararning hajmi / tabiati, korroziya mahsulotlari, tuzlar, kerosinlar, asfaltlar va boshqa konlarning mavjudligi). Ta'sir qilish davri uchun namunaning vazn yo'qotishini aniqlang. Korroziyani nazorat qilish blokida korroziya tezligini o'lchash uchun quvur po'latidan yasalgan bir juft tekis detal namunalari (2-rasm) ishlatiladi.




**2-rasm.** Ta'sir qilishdan oldin detal namunalari

- Elektr qarshilik usuli

Usul sezgir elementning geometrik o'lchamlari uning korroziyaga uchragan shikastlanishi paytida kamayib ketishiga asoslanadi, bu esa elektr energiyasini oshiradi.


element qarshiligi. Metallning yo‘qolishi o‘lchanadi va bu ma’lumotlarga asoslanib, korroziya tezligi matematik algoritm yordamida hisoblanadi. Shaklda. 3-rasmda BKNS-1 (blok-klasterli nasos stansiyasi) qabul qilishda suv aralashtirish liniyasida sezgir elementning (mm) metall yo‘qotilishini o‘lchash ko‘rsatilgan. Usul har qanday muhitda ishlaydi. ES sensoridagi elektr qarshiligini o‘lchash orqali ushbu tizim metall yo‘qotilishi bo‘yicha miqdoriy ma’lumotlarni olish va har qanday suyuqlik, gaz yoki qattiq muhitda korroziya tezligini aniqlash imkonini beradi. Datchiklar 540 °C gacha bo‘lgan haroratda va 41,3 MPa gacha bo‘lgan bosimlarda kimyoviy ta’sirning ekstremal sharoitida ishlashi mumkin.



**3-rasm.** Sensoring sezgir elementining metall (mm) yo‘qolishining quvur liniyasiga ta’sir qilish vaqtiga (kuniga) bog‘liqligi

- Chiziqli polarizatsiya usuli

Ushbu elektrokimyoviy usul bitta o‘lchovda korroziya tezligini elektrokimyoviy o‘lchash imkonini beradi. Elektr o‘tkazuvchan korrozion muhitda elektrodlar orasidagi tashqi oqimni o‘lchash bilan ularga kichik potentsial farqni qo‘llashdan iborat. 4-rasmda korroziya tezligi ko‘rsatilgan (mm/yil), bu chiziqli polarizatsiya usuli bilan o‘lchanadi, chiziqqlar UPN-1(neftni birlamchi qayta ishlashni o‘rnatish) obyektidagi artezion suvi. Tashqi tok oqimi qiymati korroziya oqimiga proporsional. Ushbu usulning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u suvsiz holda ishlamaydi va kam suvli (40% dan kam suv) muhitlarda ham ishlamaydi.



**4-rasm.** Korroziya tezligining (mm/yil) quvur liniyasidagi sensorning ta'sir qilish vaqtiga (kuniga) bog'liqligi.

**Muammoning bayoni va uning yechimi.** Standart korroziyaga qarshi bloklarni (CCM) to'ldirish va ularning paketiga quyidagi uskunalarni kiritish taklif etiladi:

1) uch darajali ishlash printsipiga ega bo'lgan namuna oluvchi (5-rasm, b) va uchta plastinka ushlagichi (5-rasm a) - neft yig'ish tizimlariga o'rnatilgan UKC uchun;

2) bioproblar (6-rasm) - konning suv o'tkazgichlariga o'rnatilgan UKC uchun.

Yog 'yig'ish tizimlariga namuna oluvchilar va ushlagichlarni o'rnatishning maqsadga muvofiqligi tashiladigan muhitda suv miqdori ortishi bilan bog'liq.

Kondan foydalanish jarayonida muhitdagi suvning kesish darajasi oshadi, bu neft yig'ish tizimini noqulay korroziya toifasiga aylantiradi:


- birinchidan, tarkibida erigan gazlar va tuzlar bo'lgan suvning o'zi agressiv muhit hisoblanadi;
- ikkinchidan, oqim rejimlari o'zgaradi.

Shu munosabat bilan, hozirgi vaqtda UKC ning standart konfiguratsiyasi bilan amalga oshirilgan datchikning pastki o'rnatilishi sizga faqat quyi suyuqlik qatlami quvur liniyasi yuzasi bilan aloqa qilganda korroziya tezligini nazorat qilish imkonini beradi, ma'lumki, metallning joylashishi. aloqa faqat suv fazasi bilan emas, balki faza

chegarasi bilan ham korrozivdir. Quvurning boshqa uchastkalarida korroziy aşınma darajasi nazoratdan tashqarida, biz uchta plastinaning gravimetrik ushlagichidan foydalanganda undan qochishimiz mumkin.

Uch darajali namuna oluvchidan foydalanish, uchta plastinka ushlagichiga oʻxshab, quvur liniyasining turli qismlarida suyuqlik tarkibini nazorat qilish imkonini beradi.

Hozirgi kunda neft konidagi noxush korroziya holatining asosiy sababi sanoat chiqindi suvlarining sulfat kamaytiruvchi bakteriyalar (RRB) bilan yuqori biokontaminatsiyasidir.



**5-rasm.** 3 ta kupon egasi va namuna oluvchi

Bakteriyalar tizimda yopishqoq shakllar, ham plankton shaklida boʻlishi mumkin. Neft konlari uskunasi metalliga yopishgan bakteriyalar koloniyalari mahalliy korroziya jarayonlarining kuchayishiga, poʻlatning gidrogenlanishiga va moʻrtlashishiga yordam beradi. Bundan tashqari, texnologik suyuqliklar oqimi bilan siljiydigan bakteriyalarning plankton shakllari butun neft ishlab chiqarish tizimini yuqtiradi. SRB ishtirokida korroziya tezligining oshishi poʻlat yuzasida sulfid plyonkalarining faol shakllanishiga va nozik mexanik aralashmalar miqdorining oshishiga olib keladi. Ikkinchisi, oʻz navbatida, emulsiyalar hosil boʻlishiga katalitik taʼsir koʻrsatadi.

Bakteriyalarning planktonik shakllari mavjudligini aniqlash uchun har bir korroziyani nazorat qilish punktining standart to'plamiga kiritilgan korroziyani nazorat qilish blokida uch darajali ishlash printsiptiga ega namuna oluvchidan foydalanish kifoya..

Bundan kelib chiqadiki, bakteriyalarning yopishgan shakllarini doimiy ravishda kuzatib borish uchun konning suv o'tkazgichlarida joylashgan korroziyaga qarshi bloklarni bioproblar bilan jihozlash kerak (6-rasm). Bioprob beshta namuna elementidan iborat bo'lib, ularning har biri 1 sm<sup>2</sup> o'lchamdagi frontal zonaga ega.



**6-rasm.** Biozond.


Agar kerak bo'lsa, ushbu elementlarni tahlil qilish uchun alohida ajratib olish mumkin.

### **Xulosa**

Shunday qilib, tizimli ravishda korroziyani kuzatish nuqtasi to'rtta tugunni o'z ichiga olishi kerak (7-rasm):

- 1) gravimetrik korroziyani nazorat qilish namunasi;
- 2) elektr qarshilik sensori / chiziqli polarizatsiya sensori;
- 3) biozond;
- 4) namuna oluvchi.

Konlarda neft va suvni tozalash va tashish tizimlarining muammoli joylarini erta bosqichda aniqlash korroziyani bartaraf etish bo'yicha profilaktika choralarini ko'rish imkonini beradi.



**7-rasm.** Korroziyani kuzatish nuqtasi: K - kupon; DK - korroziya sensori; B - biozond; P - namuna oluvchi

Taklif etilayotgan qurilmalar u yoki bu yo'nalishni inhibe qilishning maqsadga muvofiqligi to'g'risida tezda qaror qabul qilish imkonini beradi. O'z navbatida, kimyoviy reagentlarni etkazib berishni optimallashtirish korroziyaga qarshi choralarda qo'llaniladigan qimmat inhibitorlar uchun sezilarli xarajatlarni tejashga olib keladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Maxmotov E.S., Alekseev S.G., Aldiyarov T.K., Didux.

A.G., Nefedov A.N., Kudaybergenov S.E., Abdulin X.A. Neft quvurining ichki yuzasida korroziya jarayonlarining rivojlanishini baholash imkoniyati // Neft va gaz. 2013 yil. № 1.

45-50-betlar.

2. Baranov A.N., Guseva E.A., Krasnoperov A.N., Pobedash.

A.S., Yudin A.N. Korroziya jarayonlarini o'rganish

*alyuminiy ishlab chiqarish va yangi himoya usullarini ishlab chiqish metallar // Izvestiya vysshikh uchebnykh. muassasalar. rang metallurgiya. 2008. No 4. 10-bet.*

3. Yanyushkin A.S., Baranov A.N., Losev A.B., Yakimov S.A.

*Elektroolmos bilan ishlov berishda elektrolitlarni an'anaviy moylash-sovutish bilan almashtirish imkoniyatini o'rganish.*

*texnik muhitlar // Axborotnoma. Irkutsk. davlat.*

*texnik. universitet. 2007. V. 30. No 2. S. 25-30.*

4. Monaxov A.N., Trofimov P.N., Alyakritskiy

*A.L., Elizarov S.V. Integratsiyalashgan korroziya tizimi*

*birlamchi neftni qayta ishlash blokining monitoringi //*

*STA. 2006 yil. № 2.*

5. Markin A.N., Nizomov R.E., Suxoverov S.V. *Neft konlari kimyosi: amaliy qo'llanma. Vladivostok:*

*Dalnauka, 2011. 288 b.*

6. Rajagopal S., Gupta A.A., Singx M.P., Upreti M.K. *Neftni qayta ishlash zavodlari va quvurlarida mikrobiologik korroziya // Neftgazovye texnologiyalari. 2013 yil. № 4.*

## MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA REPERTUAR TANLASH XUSUSIYATLARI

**Mamashukurov Ozodbek Erkin o'g'li**

Namangan davlat universiteti

### ANNOTASIYA

*Ushbu maqolada madaniy tadbirlarni tashkil etishda repertuar tanlash xususiyatlar, uning ahamiyati va yoritiladigan mavzu ko'lami aks ettirilgan.*

***Kalit so'zlar:** Repartura tanlash, manzara, kam voqeali parcha, to'liq asar, murakkab parcha, adabiy kompazitsizya, ilmiy ma'ruza, ilmiy axborot.*

## ОСОБЕННОСТИ ПОДБОРА РЕПЕРТУАРА ПРИ ОРГАНИЗАЦИИ КУЛЬТУРНО-МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

**Мамашукуров Озодбек**

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье отражены особенности подбора репертуара при организации культурно-массовых мероприятий, его значение и масштабы освещаемой темы*

***Ключевые слова:** репертуарная подборка, декорация, малособытийное произведение, законченное произведение, сложное произведение, литературная композиция, научный отчет, научная информация*

## FEATURES OF REPERTOIRE SELECTION IN THE ORGANIZATION OF CULTURAL EVENTS MAMASHUKUROV IS THE SON OF



**Mamashukurov Ozodbek**

Namangan State University

### **ANNOTATION**

*This article reflects the features of repertoire selection in the organization of cultural events, its importance and the scope of the covered topic*

**Key words:** *repertory selection, scenery, low-event piece, complete work, complex piece, literary composition, scientific report, scientific information*

Teatrda qo'yiladigan spektakllar va yakka ijro etiladigan asarlar to'plamiga repertuar deyiladi. Repertuar tanlash va ijro etish uchun munosib asarni izlab topish demakdir.

O'quvchi va o'rganuvchilar bilan ishlash uchun repertuar tanlaganda butun diqqat e'tibor sistemali, muntazam o'rganish jarayoniga qaratilishi kerak. Buning uchun qilinadigan ishlarning oddiydan murakkabga, osondan – qiyinga tomon bo'lgan yo'nalishi va ana shu yo'ldagi izchillikka rioya qilinishi shart.

Shunga ko'ra, so'z ustida ishlaganda quyidagi bosqichlarni albatta o'tash kerak.

1. Manzara
2. Kam voqeali parcha
3. Ko'p voqeali parcha
4. Turli janrga oid parchalar
5. To'liq asar yoki murakkab parchalar.

Manzara ijrochilik faoliyatining dastlabki davriga oid bo'lib o'quvchida tabiiylik, ko'rish, muomala kabi xususiyatlarni tarbiyalashda qulaylik tug'diradi.

Manzara albatta biror yozuvchi asaridan tanlab olinishi shart. Shuningdek, tanlangan manzara aniq ko'z oldiga keltirilib (tassavur etib) bo'ladigan bir joy, narsa yoki shularga o'xshash ob'ektning tasviri bo'lsin. Unda qayg'uli voqealar daxshatli hodisalar yoki chalkash fikrlar bo'lmasligi kerak. Oddiy,

sodda, iloji bo'lsa biror kishi tomonidan gapirib beriluvchi yorqin manzara bo'lsin. Tanlangan parcha nasrda yozilgan bo'lsin. Shunisi ham borki, parcha qisqa bo'lsa ham tugallangan bo'lishi biror muayyan ob'ekt yoki hodisani tasvirlash bilan cheklanishi katta ahamiyatga ega.

Tanlanadigan manzara parchalari imkon boricha qiziqarliroq, o'quvchi – ijrochini ruhlantiruvchi yoki hissiyotini uchqunlantiruvchi xarakterda bo'lishi foydalidir. Shuningdek, o'quvchi ijrochini musiqa eshitish qobiliyati va musiqa takidlari (o'lchovi) ostida chinakam yashashga o'rgatish niyatida, keyinchalik kuy va qo'shiqlar kiritishga imkon beruvchi manzaralarni tanlash ham mumkin. Shuningdek, o'quvchi ijrochilarni shaxsiy xususiyatlari, xarakteri va intilishiga qarab, turli muallif, janr, davr va hajmdagi tasviriy (manzara) parchalarga murojaat etish lozim.

Kam voqealik parcha. Manzara bosqichi yaxshi o'zlashtirilgach, ya'ni o'quvchilar ko'rib muomala kabi zaruriy elementlarni o'zlashtirgach, vazifani bir oz og'irlashtirish mumkin. Agar manzaralar voqeasiz bo'lgan bo'lsa, endi olinadigan parcha chalkash yoki mashaqqatli bo'lmagan bir-ikki voqea sodir bo'lishi mumkin. Agar tanlangan parcha manzaradan boshlanib keyin voqeaga o'tadigan bo'lsa, yana ham yaxshi bo'ladi. Lekin, chalkash voqealardan chuqur psixologik vazifalardan holi bo'lishni ta'minlash kerak. Hozircha aniq va ravshan talaffuz, mustahkam nafas, jarangli ovoz, yaxshi muomala va ko'rish, shuningdek sodir bo'layotgan sodda voqealarga munosabat elementlarini tarbiyalovchi parchalar ko'zda tutiladi. Ularning hajmi (daftar qo'lyozmasi o'lchovida 1,5 – 3 bet o'rtasida) quyidagicha bo'linishi mumkin.

Dargoh sahargi salqin, yoqimli shamol, ochiq derazali harir pardalarini tortqilaydi. Boshimni yostiqdand ko'tarib, deraza orqali tongni g'ira-shira manzarasini kuzataman. Va yuragim burilib ketadi. Keng hovlini etagida rayhonlar tartib bilan qad rostlagan. Keyingi qatorlarda esa nozik, rang-barang pechat gullar mayin chayqaladi. Gullar ortidan sershox olma daraxtlari

tarvaqaylab turibdi. Ayniqsa Namangan olmasining qirmizi mevador shoxlari arzon.

Rayhon va olma bo'ylari qorishib uni hovlini yo'q-yo'q, butun dunyoni xush islarga to'ldirib yuborgan.

(Soliha Olimova "Dargoh" hikoyasi) Yoshlik jurnali. 2005-yil 6-son

Ko'p voqeali parchalar. O'quvchi endi ongli ravishda podtekslarni (tekst zamiridagi mazmunni) ocha olishi, qo'yilgan harakatlarini bajarishi, parchadagi ikkinchi darajali elementlarni asosiy maqsadga bo'ysindirish lozim.

Turli janrli parchalar. Bu bo'lim avalgi bosqichlardagi janr turlarini inkor etmaydi, albatta. Lekin bu bosqichda asosiy diqqatni o'quvchilarda janrni his etish, har bir janrga hatto janrlar tarkibidagi turlanishlarga (masalan, E.Vohidov komediyalari bilan S.Ahmad komediyalari o'rtasida juda katta farq bor, lekin ikkisi ham bir janr – komediyaga oid) to'g'ri "kalit" yo'l topa bilish tarbiyalashga intilish kerak. Endi ular biror asar yoki parchani qo'lga olishlari bilanoq uning barcha tomonlari haqida o'ylay boshlash va tahlil etishga qodir bo'lsinlar. Shuning uchun ham bu bosqichda turli janrdagi ikki-uch parcha ustida bir vaqtda ishlasa ham bo'ladi.

To'liq asar yoki murakkab parchalar. O'quv jarayonining yakunlovchi davrlarida o'quvchi o'z didi bilan tanlagan va montaj qilib ishga tayorlagan asar yoki murakkab syujetli, ko'p voqeali parchalar ustida ishlashga to'g'ri keldi. Bu davrda diqqat e'tiborni ko'proq yetuk va to'laqonli obrazlar yaratilishiga o'quvchining chinakam organika yo'lidan borishga erishmoq kerak. Agar o'quvchi iqtidorli bo'lsa, ijrochilik repertuari bo'lib qoladigan katta asarlar va hatto ayrimlari bilan adabiy kompozitsiyalar ustida ishlash mumkin.

Xullas, muntazam mashg'ulot davri uchun repertuar tanlaganda asosiy e'tiborni o'quvchilarda san'atning tabiiylik, chinakamiga yashash kabi xususiyatlarini tarbiyalashga qaratish kerak. Repertuar zikr etilganidek, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga tomon yo'nalishda tanlanishi kerak.

Muntazam o'qish, o'rganish bilan bog'liq bo'lmagan hollarda esa repertuar tanlashning quyidagi xususiyatlariga e'tibor berish kerak :

1. Yakka ijrochilar uchun repertuarining rang-barangligini ta'minlash lozim. Tenglovchilarni har doim g'oyaviy sog'lom ta'sirchan va jahon adabiyotining qimmatli namunalaridan bahramand qilish kerak. Bu narsa ularda, ijrochi oldiga qo'ygan maqsaddan tashqari, adabiyot va san'atga bo'lgan didni tarbiyalaydi.

2. Yubiley, bayram va shu kabi marosimlar uchun repertuar tanlagan paytda asosiy etiborni mavzu tanlashga jiddiy e'tibor berish kerak. Bunday paytlarda o'tkazilayotgan marosim mavzusi doirasidan chetga chiqmaslik lozim. Bu albatta, yozuvchi Said Ahmad yubileyida faqat Said Ahmadning asarlarini ijro eting yoki yangi yil kechasida faqat yangi yil haqidagi asarlarni ijro eting, degan gap emas. Biroq hamma narsa o'sha o'tkazilayotgan marosim mavzusiga, ruhiyatiga mos bo'lishi kerak.

Masalan, yozuvchi Said Ahmad hayoti va ijodiga bag'ishlangan tantanali kechadagi repertuar Said Ahmad ijodining turli tomonlarini ochib beradigan bo'lishi kerak.

- a) Said Ahmad – dramaturg:
- b) Said Ahmad – she'riyat kuychisi:
- c) Said Ahmad – satirik yozuvchi:
- d) Said Ahmad – komediyana vis va hajvchi adib.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, ijro etish uchun tanlangan asarning qimmatini uning g'oyaviy yuksakligi va badiiy yetukligi bilan o'lchanadi. Shuning uchun ham so'z san'ati uchun tanlanadigan repertuar g'oyaviy puxta, badiiy yetuk, san'at asarlarini egallash uchun qulay bo'lishi kerak. Tayanch repertuar milliy adabiyotdan bo'lishi (chunki o'quvchi uchun har tomonlama yaqin va tanish bo'ladi) jahon mumtoz san'ati va tarqqiyparvar adabiyotidan ham unumli foydalanish mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari.— Toshkent; Aloqachi 2008*
2. *Dushamov J. Ommaviy tadbirlar rejissurasi. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2002*
3. *Ahmedov F. Ommaviy tadbir va bayramlar rejissurasi va aktyorlik mahorati. – Toshkent: Cho'lpon 2007*
4. *Muhammedov M. Rejissura asoslari. Toshkent: O'DSI bosmaxonasi 2008*
5. *Djon Govard Louson. Теория и методика Playwriting и написания сценария*
6. *Rustamov V. Zamonaviy bayramlar rejissurasi muammolari. Toshkent : Fan va texnologiya 2013*
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.google.ru](http://www.google.ru)
9. [www.fikr.uz](http://www.fikr.uz)

## TARJIMANING TRANSFORMATSION MODELII

**Abdirasulov Bahodir Abdimal o'g'li**

SamDChTI o'qituvchisi

[bahodirabdimalovich@gmail.com](mailto:bahodirabdimalovich@gmail.com)

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqola tarjimaning transformatsiyalari: leksik, grammatik va stilistik transformatsiyalar haqida atroflicha misollar va ma'lumotlar berilgan. Tarjima transformatsiyalari tarjimaning transformatsion modeli orqali atroflicha tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *tarjima transformatsiyalari, transformatsion grammatika, yadroviy struktura, tahlil, o'g'irish va sintez bosqichlari, tarjimaning transformatsion modeli, vaziyatli – denotative modeli.*

Tarjimaning transformatsion modeli N.Xomskiyning transformatsion grammatika qoidalariga tayanadi. Transformatsion grammatika asosiy mantiqiy-sintaktik aloqa va leksemalarning o'xshashligi xususiyatiga ega sintaktik strukturalarning kelib chiqish qoidalarini o'rganadi. Transformatsion grammatikaga ko'ra, barcha sintaktik strukturalarning turlari chegaralangan, mantiqiy-sintaktik strukturalarning shaffofligi ko'zga tashlanadigan yadroviy strukturalarga birlashtirilishi mumkin.

Ma'lum transformatsion qoidalarga ko'ra yadroviy strukturalardan yasama, yuzaki strukturalar shakllanadi. A.D.Shveytser quyidagi misolni keltiradi, ingliz tilidagi John hit Bill gapini yadroviy struktura deb oladigan bo'lsak, bu gapdan qator transformalar yasalishi mumkin:

Bill was hit by John.

John's hitting Bill.

Bill's being hit by John. |

The hitting of Bill by John.

It was John who hit Bill.

It was Bill who was hit by John [5, 23].

Yana bir misolni ko‘rib chiqamiz. “Bola o‘qiyapti” gapini yadroviy struktura deb oladigan bo‘lsak, transformatsion grammatika qoidalariga asosan quyidagi yasama strukturalarni keltirib chiqarish mumkin: “Bolaning o‘qishi”, “O‘qiyotgan bola”, “Bola tomonidan o‘qilgan”, bu strukturlarda asosiy munosabat saqlanib qolmoqda “xarakat egasi - xarakat”. V.N.Komissarovning ta’kidlashicha, strukturani tashkil qiluvchi shakllarning turlichaligiga qaramasdan, ushbu transformatsiyalar sezilarli darajadagi mazmun va ma’no umumiylikiga ega [1, 56].

Yasama strukturalardan farqli ravishda yadroviy strukturalarda mazmun munosabatlari har doim aniq ifodalanganligini kuzatishimiz mumkin. Predmet har doim ot orqali ifodalanadi, jarayon esa – fe’l bilan, subyekt – ega, obyekt – to‘ldiruvchi bilan. Boshqacha qilib aytganda yasama strukturalarning yadroviy strukturalarga aylanishi – bu grammatik va semantik kategoriyalar orasidagi bir ma’noviy muqobillarning aniqlanishi usulidir.

Tarjimaning transformatsion nazariyasiga asosan, tarjima jarayoni uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tahlil bosqichi – original matn strukturalari original matn tilidagi tilidagi yadroviy strukturalarga aylanadi, ya’ni transformatsiya jarayoni avval original matn tili ichida ro‘y beradi;

2. O‘g‘irish jarayoni – original matn tilidagi yadroviy strukturani tarjima tilidagi yadroviy struktura bilan almashtirish [tillararo transformatsiya];

3. Sintez bosqichi [yoki qayta qurish] – tarjima tilida yaratilgan yadroviy struktura yasama strukturaga aylantiriladi, ya’ni tarjima matnining yakuniy strukturasi xosil qilinadi. Ushbu bosqichda transformatsiyalar perifrazaning bir necha variantini keltirib chiqaradi va ular o‘rtasida stilistik farqlar seziladi. Shu sababdan o‘g‘irilayotgan tildagi yadroviy strukturaning yasama strukturaga o‘tishi bosqichi stilistik xususiyatlarning e’tiborga olinishi bilan amalga oshiriladi.

A.D.Shveytser tarjimaning ushbu modeli xususida so‘z yuritar ekan, Yu.Naydaning tarjimonni sayyoxga qiyoslashini ma’qullaydi, ya’ni daryoning bir qirg‘og‘idan ikkinchisiga o‘tish uchun, oqimning xavfsiz joyini izlab topib, aylanma

yo'llar bilan narigi qirg'oqqa yetib oladi. A.D. Shveytser tomonidan keltirilgan misolni ko'rib chiqamiz:

The White House pressurized the Senate into reconsidering its decision.

Qayta transformatsiya natijasida quyidagi ikkita yadroviy strukturaga ega bo'lamiz:

The White House pressurized the Senate. The Senate reconsidered its decision [4, 20].

Bu bosqichda keyinchalik muxim ma'lumotni yo'qotish xavfi tug'iladi: ikki yadroviy gap o'rtasidagi mazmuniy aloqa yo'qolishiga olib kelishi mumkin ["sabab - natija"]. Bundan qutilish uchun yadroviy gaplarni murakkab gapga aylantirish lozim. Masalan:

1) The White House pressurized the Senate and it reconsidered its decision.

ëки

2) The White House pressurized the Senate so that it should reconsider its decision.

Tarjimaning keyingi bosqichi – o'g'irish bosqichida kontekstdan kelib chiqqan xolda ikkita variant yaratish mumkin:

1. Oq uy Senatga bosim o'tkazdi va u o'zining qarorini bekor qildi.

2. Oq uy Senat o'z qarorini bekor qilishi uchun unga bosim o'tkazdi.

Tarjimaning vaziyatli-denotativ modeli barcha til belgilarini mazmuni predmet, voqea, munosabatlarda ko'rinishini nazarda tutadi. Til belgilarida o'z aksini topgan real voqelik predmetlari denotat deb ataladi. Real voqelikdagi vaziyat bu barcha denotatlar o'rtasidagi munosabatlardir. Shu bois, nutqning tashkiliy qismlari o'zida real voqelikdagi ma'lum bir vaziyatni mujassam etadi.

Tarjimon ongida original matnda tasvirlanayotgan vaziyat haqida tushuncha xosil bo'lganidan so'ng [real voqelikni ma'lum bir kesimini tasvirlovchi o'ziga xos rasm], u ushbu tasavvurni o'zga til vositalari orqali bayon etadi.

Albatta tarjimaning yagona maqsadi original matnda to'liq yoki ba'zi sabablarga ko'ra to'liqsiz bayon etilgan vaziyatni aniq tasvirlab berishdan iborat.



Ushbu vaziyatda tarjimon o‘z tarjimasiga masalani to‘g‘ri anglagan holda u yoki bu o‘zgarishlar yoki qo‘shimchalar kiritadi va shu yo‘l bilan to‘liq, adekvat tarjimaga erishadi.

Vaziyat ro‘y bergan real voqelikni o‘rganib, tahlil qilish tarjima matnida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobil variantni qo‘llash joiz yoki joiz emasligini aniqlashtirib beradi. Shu o‘rinda V.N. Komissarov tomonidan keltirilgan qiziq misolga to‘xtalamiz. Ingliz tilidagi “X was baited by the right” gapi tarjimasida tarjimon to bait fe‘lining to‘g‘ridan-to‘g‘ri muqobili hisoblagan – qiynamoq, azoblamoq qo‘llashi mumkin, va gap tarjimasini qo‘yidagi ko‘rinishda berish mumkin “X o‘nglar partiyasi tomonidan azoblanmoqda”. Biroq agar X o‘rnida Ruzvel’t ismi tursa ushbu muqobil noo‘rin tusga ega bo‘ladi [V.N.Komissarovning fikricha katta mashhurlikka ega va mamlakatning prezidenti etib to‘rt marta saylangan odamning azoblanishi aqlga sig‘maydi]. Real voqelikni o‘rgangan holda bu vaziyatda tarjimon “yumshoqroq” tarjima variantini taqdim etishi mumkin – “qattiq ta’na ma’lomatlariga qoldi” [2, 48].

Tarjimaning vaziyatli-denotativ modelining ustunliklardan biri bu, tarjimonning real voqelikka murojaat qila olishi imkoniyatining mavjudligidir. Biroq bu model’ tarjimon nima sababdan ushbu voqelikka murojat qilishini to‘liq tushuntirib bermaydi. V.N.Komissarov tarjimaning ushbu modeli original matnda berilgan vaziyat tasvirini tarjima tilida tillararo kommunikasiyaning to‘liq amalga oshishiga yordam maqsadida o‘zgartirib berilganida tarjimonning hatti-harakatlarini tushuntirib berishda chegaralangan deb hisoblaydi, ya’ni tarjima matni mo‘ljallangan shaxs o‘zining boshqa madaniyatga tegishliligi sababli, vaziyat tasviridan kerakli xulosalar chiqara olmaydi. Bundan tashqari, vaziyatli-denotativ model’ tarjimada nafaqat vaziyatning tasvirlanishi, balki, original matnda bayon etilgan vaziyatni tasvirlash uslubini va tarjimada qo‘llanilgan til vositalarning asosiy qismi mazmunini ham talqin qilmaydi.

Biroq olimning ushbu fikriga to‘liq qo‘shila olmaymiz. Tushuniladiki, amaliyotda tarjimon har doim real voqelikka murojaat qiladi, ya’ni tasvirlanayotgan vaziyatning mohiyatini tushunmaslik faqatgina ba’zi hollarda to‘g‘ri tarjima bilan

yakunlanishi mumkin. Tarjimada til vositalarning ayrimlari va vaziyat tasvirining uslubining saqlanishi tarjimaning boshqa model' asosida qilinganligini e'tirof etmaydi. Tarjimon ushbu parchaning ikki tilda ham bir xilda tasvirlanishi mumkinligini sezishi [his qilishi] mumkin [My brother lives in Moskow – Mening akam Moskvada yashaydi], va bu xolda o'g'irishda boshqa metodlarni izlashga xojat qolmaydi.

Shu o'rinda I.I.Revzin va V.Y. Rozensveyglarning fikrlari xam qiziq, xam shubxali ko'rinadi. Ularning fikriga ko'ra real voqelikka bilvosita murojat qilmagan xolda bir tildagi ma'lumotni ikkinchi bir til vositalari orqali qayta yaratish aslida tarjimadir, va ushbu xolat tarjimaning barcha turlariga xos bo'lib, sinxron tarjimonlar foaliyatida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bir matnni bir tildan ikkinchi tilga o'g'irish jarayonida real voqelikka murojat aksar xollarda badiiy adabiyot tarjimasida seziladi. Shu o'rinda yuqoridagi fikrni takrorlagan xolda ta'kidlash joizki, xar qanday tarjima jarayoni qabul qilish, taxlil qilish, original matn mazmunini anglash bosqichlarini qamrab oladi. Original matn mazmunini anglash bu real voqelikni, uni ortida turgan til vositalarni idrok etishdir. Tub moxiyati tushunib yetilmagan matn tarjima ob'ekti bo'lib xizmat qilaolmaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Комиссаров. В. Н. Слово о переводе (Очерк лингвистического учения о переводе). - М.: Междунар. отношения, 1973. – 143с.
2. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
3. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи. – М.-Л.:ОГИЗ,1934.-223с.
Maktabda «Ona tili»ni o‘quv fani sifatida o‘qitishning ijtimoiy ahamiyati shundaki, jamiyatimiz, xalqimiz, millatimiz ravnaqining kelajagi, uning gullab-yashnashi bugun maktab partasida o‘tirgan yoshlarning mustaqil turmushga, nutqiy faoliyatga, yuksak madaniyat bilan so‘zlasha olishga qay darajada tayyorlashaniga

bogʻliq. Chunki soʻz qudrati insoniyat tarixida hamma vaqt yuksak qudratga ega boʻlgan.

Jamiyat rivojlangan sari xalqning madaniyat darajasi ortib boradi. Madaniy hayotning rivoji avvalo jamiyat aʼzolarining madaniy soʻzlashuvga boʻlgan ehtiyojining ortib borishi bilan belgilanadi. Yoshlarda yuksak nutq odobini tarbiyalash maktab ona tili kursi zimmasiga tushadi.

Ijtimoiy oʻzgarishlar, shaxs tarbiyasiga munosabat, jamiyatning shaxsga nisbatan talablari bilan birgalikda jahon tilshunosligi fani va ona tilining tadrisi ulkan yutuqlarni qoʻlga kiritdi; tilni imkoniyat, nutqni esa shu imkoniyatning sharoit va maqsadga mos ravishda yuzaga chiqishi deb oʻrganuvchi sistem tilshunoslik nazariyasi rivojlandi, ilgʻor davlatlarning koʻpida ona tilidan taʼlim mazmuni tubdan yangilandi. Ona tili mashgʻuotlari bolalarda mustaqil va ijodiy fikrlash, fikr mahsulini ogʻzaki va yozma shakllarda toʻgʻri va ravon ifodalash koʻnikmalarini shakllantirishning bosh omiliga aylantirildi. oʻrta umumiy taʼlim maktablarida ona tili oʻqitishning mavjud ahvoli taʼlim mazmuni yangilashni hayotiy zaruriyat qilib qoʻydi.

Yangi iqtisodiy munosabatlar har qanday faoliyatni uning beradigan pirovard iqtisodiy natijasi bilan baholashni talab etadi. Jumladan, taʼlimga sarflanadigan moddiy xarajatlar taʼlimning natijasi bilan qoplanib qolmay, balki sarf boʻlgan xarajatlardan koʻproq moddiy manfaat kelishi lozim. Bu-taʼlimning barcha boʻgʻinlari va sohalari, jumladan, ona tili taʼlimi uchun qoʻyiladigan umumiy, zamonaviy, iqtisodiy va maʼnaviy talabdir.

Maktabda ona tilini fan sifatida oʻqitish qanday moddiy manfaat berishi mumkin, qanday qilib ona tili taʼlimini moddiy jihatdan manfaatli, foydali qilish mumkin?

«Ona tili fani moddiy manfaat keltirmaydi» degan fikrga qoʻshilib boʻlmaydi. Chunki ona tili taʼlimi natijasida oʻquvchi DTS talablari darajasida muayyan malaka va koʻnikmalar hosil qiladi va bu koʻnikma hamda malakalarning davr talablariga

mosligi bevosita iqtisodiy ko'rsatkichlar-moddiy manfaat ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi. Ona tili fanining moddiy ko'rsatkichlari bolalaming imlo savodxonligi, so'z boyligi va undan foydalanish mahorati, mustaqil ijodiy fikrlay olishi, fikr mahsulini maqsadga muvofiq ravishda og'zaki va yozma shakllarda bayon qila olishi kabilarda namoyon boiadi.

Maktabda ona tilini fan sifatida o'qitmay turib, ma'naviy barkamol shaxsni tarbiyalab bo'lmaydi. Chunki ona tili fani o'quvchilarni milliy til va uning tarixi, boy madaniy o'tmishi bilan tanishtiradi, milliy qadriyatlarimiz, an'analarimiz, urf - odatlarimizni qadrlashga o'rgatadi.

Ona tili avlodlarni avlodlarga bog'iovcchi zanjirdir. Agar yozuv, yozma nutq bo'lmaganda edi, madaniy boyliklarimiz, fan, texnika va xalq xo'jaligining boshqa sohalarida qo'lga kiritilgan ulkan yutuqlarimizni avlodlardan avlodlarga o'tkaza olmagan bo'lardik.

«Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkuming ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy-ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, awalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir», - deb Prezidentimiz ona tilini ulug'laydi.

Til inson ruriy faoliyati maqsuli bo'lganligidan uning ham subuti (sistem tuzilishi)ni to'la va mukammal idrok qilish imisoni cheklangan. Shu bois ko'pchilik xalq o'z tilini asrlar osha tadqiq qilib keladi. Malomatli maraz bo'lgan mustamlakachilikdan qutulgan o'zbek ham bu ishga jiddiy kirishdi. Ishning samarali bo'lishi uchun *turkning sitamzarif yigitlari* (Navoiy) ruhni mustamlakachilik asoratidan xalos etmog'i darkor. Shunda *baxtsiz turkiy tilni* (Fitrat), *yarmiga arabiy, forsiy ulangani kamlig qilib, bir chetiga rus ipili ham yopishtirilgan tilimizni* (Abdulla Avloniy) ingliz tili soyasiga aylanib qolishidan asray olamiz. Ota-bobolardan meros, bebaho xazina bo'lgan tilimizning subutiy sifatlarini idrok qilishda bir qadam olg'a qo'yish imkoni tug'iladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Ahmadovich H. H. et al. *IJODIY TOPSHIRIQLAR O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 293-294.*

2. Ahmadovich H. H. et al. *BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 332-334.*

3. Ahmadovich H. H. et al. *O 'QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 343-345.*

4. Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. *O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 306-309.*

5. Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. *BOSHLANG 'ICH SINF O 'QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O 'YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 100-102.*

6. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. *RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 248-250.*

7. Ahmadovich K. H., Bahridinovna S. G. *Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – C. 141-145.*

8. Ahmadovich K. H., Zokirovna Z. A. G. *THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 25. – C. 133-137.*

9. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. *Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 7. – C. 130-133.*

10. Ahmadovich H. H. *Expression of Folklorisms in the Works of Ghafur Ghulam //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2022. – T. 14. – C. 101-105.*

11. Hayitov H. A. *Sharq mumtoz adabiyotida ohang talqini //Мировая наука. – 2019. – №. 8. – C. 3-5.*

## QADIM SHARQ MADRASALARIDA TA'LIM JARAYONINING TASHKIL QILINISHI VA DARSLIKLAR MASALASI

**Shodiyeva Nigora Soliyevna**

Buxoro davlat Pedagogika instituti

II bosqich magistri.

### **ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqolada qadim Sharq xalqlarining ta'lim-tarbiya va darsliklarga oid faoliyati tahlil qilingan.*

**Kalit soʻzlar:** *Movarounnahr, madrasa, tarbiya, milliylik, mudarris, rus sayyohlari, Xanikov, Markaziy Osiyo, Camarqand, Buxoro va hokazo.*

Movarounnahrda islom dini kirib kelishi bilan diniy ta'lim va u bilan bogʻliq ilmlar ham rivojlana boshladi. Ma'naviyatda hurfikrlilik, ilm-fanga hurmat-e'tibor va uning qadr-qimmatini yuksak baholash ustunlik qildi. Ayniqsa, diniy va dunyoviy ilmlar uzviy holda taraqqiy etib, qadimgi yunon, hind va boshqa xalqlarning ilmiy salohiyatidan keng foydalanildi. Aynan shu davrdan hududlarda maktablar va madrasalar paydo bo'la boshladi. Madrasalar qadimdan Yaqin va O'rta Sharq mamladatlari alohida nufuzga ega o'quv maskani sifatida katta obro-e'tibor qozongan. Bunda Buxoro ham o'zining ko'p sonli madrasalari bilan nom taratgan. U turli yerlardan ilm tahsili uchun talabalar tashrif buyuradigan shahar hisoblangan. Bu an'ana keyingi asrlarda ham davom etgan. Shu sababli aksariyat mualliflar Buxoro haqida so'z ketganda avvalo uning shu jixati bilan ta'riflaganlar. Xususan ashtarxoniyalar davri muarrix Maxmud ibn Vali (XVII asr) Buxoroning ilm tarqatuvchi markaz sifatidagi xizmatini shunday baholaydi. XIX asrda Buxoroga kelgan Y.K. Meyendrov esa Buxoroning islom olamida tutgan o'rnini quyidagicha ta'riflaydi: «O'zining ko'plab maktablari, olimlari hamda muqaddas qadamjolari



sababli musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol shuning uchun u «sharif» nomiga sazovor bo'lgandir»<sup>1</sup>. Rus sayyoxi N.Xankov o'z esdaliklarida Buxoroni yirik ilm-fan va ma'rifat, diniy bilimlar markazi sifatida ta'riflab: «Buxoro ilm tarqatuvchi markaz xisoblangan va xisoblanadi», deydi. J.Kunits ham Buxoroni «arab-eron madaniyati-ning qal'asi», Markaziy Osiyoning yuz yillik tarixidagi «Islomning yuragi», 250 masjid va madrasalar markazi deya atagan<sup>2</sup>.

Madrasa - arabcha «darasa» («o'rganmoq») ekidan olingan bo'lib, «o'rganish joyi» degan ma'noni anglatadi. Ilk islom davridanoq masjidlar bunyod etila boshlandi. Dastlab ilm majlislari masjidlarda olib borilgan bo'lsa, keyinchalik madrasalarda taxsil olish yo'lga qo'yildi. Narshaxiyning fikricha, 937 yilgi yong'indan zarar ko'rgan «Forjak» madrasasi Markaziy Osiyodagi dastlabki madrasalardandir<sup>3</sup>. K.Kattaevning fikriga ko'ra, Samarqanddagi Raboti G'oziyon madrasasi yana ham qadimiyroq bo'lib, unda Imom Moturidiy, Abulqosim Hakim kabilar Muxammad ibn Fazl Balxiydan (vaf. 931 y.) tahsil olganlar.

Madrasa o'quv dasturining umumiy jihatlari X-XII asrlarda ishlab chiqilib, keyinchalik takomillashib borgan. O'rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Movarounnahrda, balki musulmon sharqida ham mashhur edi.

Amir Temur va temuriylar davrida madrasalar oliy ma'lumot beruvchi markaz vazifasini o'tagan. Movarounnahr hamda Xurosonda asosan davlat va davlatmand shaxslarning mablag'lari hisobiga ko'plab madrasalar qurilgan. Shu tariqa madrasalar ko'payib, oliy o'quv dargohi sifatida diniy soha vakillari, siyosiy arboblardan hamda olimlar yetishtiradigan oliy o'quv yurtiga aylanib borgan. Madrasalar asosan xon, amaldor, badavlat kishilar va ziyoli shaxslarning tashabbusi bilan barpo etilib, nomi o'sha shaxslar ismi, ba'zan Madrasa joylashgan mahalla, guzar nomi bilan atalgan<sup>10</sup>. Madrasalar xolis xususiy mulk hisobidan qurilishi shart bo'lib, xon va

<sup>1</sup> Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. - М.: 1975. -С. 93.

<sup>2</sup> Куниц Ж. Дауновер Самарканд. Тхе ребиртх оф Сентрал Асиа. - Нью Ёрк, 1935. - П. 23.; Джурабаев Д.Х. Изучение политической истории Бухарского эмирата в советский и постсоветский периоды. //Историография, исторически источники, методы исторического исследования. — С. 18.

<sup>3</sup> Abu Bakr Muxammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. - T.:Kamalak, 1991. —B. 161. (Bundan keyin: Narshaxiy. Buxoro tarixi.).

amirlar, yirik amaldorlar tomonidan bunday inshootlarni davlat mulkidan bunyod etilishi shariatga xilof hisoblangan.

Madrasalarning asosiy daromadi vaqf mulklaridan bo‘lgani uchun yaxshi hosil olinmagan yillari qiynalgan talabalar va mudarrislar muammosini hal qilish maqsadida Mirzo Ulug‘bek madrasalarni davlat hisobiga kiritgan va ularga davlat byudjetidan mablag‘ ajratilgan. Madrasalarda nafaqat boylar, balki kambag‘allarning bolalari ham o‘qish huquqiga ega bo‘lgan va nafaqa, kiyim-bosh bilan ta‘minlangan. O‘quv yili sakkiz yilga qisqargan va haftada besh kun ta‘lim berilgan.

XX asrning boshlarida Buxoroda madrasalar sonini o‘sha davrda yashagan Abdurauf Fitrat va Sadridin Ayniy 200 ta, Sadr Ziyoyev 204 ta, Muxammad Ali Baljuvoni esa 400 ga yaqin, Turkiston general-gubernatorligi hisoboti bilan bog‘liq arxiv hujjatlardan birida 1914 yilda Buxoro amirligida 350 ga Madrasa faoliyat ko‘rsatayotgani qayd etilgan<sup>1</sup>. O‘zR MDAda saqlanayotgan «Qushbegi» fondidagi hujjatlarga tayanib, Buxoro shaxrining o‘zida 160 tadan ortiq Madrasa faoliyat yuritganini keltirib o‘tish mumkin<sup>2</sup>. Bundan tashqari, XIX asrning 40-yillari, rus sayyoxi N. Xanikovning ko‘rsatishiga ko‘ra, Buxoroda amir ro‘yxatida ko‘rsatilgan 103 ta Madrasa bo‘lib, ulardan 60 tasi eng katta Madrasa hisoblangan. Ingliz sayyoxi A. Byorn shaharda madrasalar soni 366 ta, P. Ivanov esa 150 dan ortiq Madrasa faoliyat yuritgan va o‘quvchilarning soni 30 mingtaga yetgan deb ko‘rsatadi. JI. Klimovich amirlik poytaxtida 103 ta Madrasa, talabalar soni 20 000 ta deya ta‘kidlaydi. Xullas, turli ma‘lumotlar umumlashtirilganda Buxoro amirligi-da 200 dan 400 ga yaqin Madrasa mavjud bo‘lgan<sup>3</sup>.

Madrasada turli soxadagi malakali mutaxassislar tayyorlangan. Bu ilm dargoxini bitiruvchilarining aksariyati mudarris, olim, adabiyotchi, amaldor, elchi, xarbiy, imom, rassom, musikasunos va xatto ma‘rifatparvar bo‘lib yetishgan.

<sup>1</sup> O‘zR MDA. I-Z-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 361-yig‘majild

<sup>2</sup> O‘zR MDA. I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 1995, 930, 1994, 1996 va boshqa yig‘majildlar.

<sup>3</sup> Qarang: Ocherki po istorii Sredney Azii (XVI-seredina XIX vv.). - M.: Izd. vostochnoy lit.ri, 1958. - S. 107-108.; Ivanov P.P. Ocherki po istorii Sredney Azii (XVI-seredina XIX vv.). - M.: Izd. vostochnoy lit.ri, 1958. — S. 107-108.; Klimovich L. Islam v sarskoy Rossii. Ocherki.— M., 1936.; Safaraliev B.S. Narodnoe obrazovanie kak pokazatel' sosiokul'turnoy situatsii v istorii Sredneaziatskogo obshestva. - S. 99.; Gafurov U. XIX asr Toshkent madrasalari.; Rempel L.I. Dalekoe i blizkoe. Buxarskie zapisi. — T.: 1981. — S.4.; Ergashev B. Ideologiya nasion.

Shuni xam qayd etish lozimki, madrasalarning moliyaviy xarajati vaqf daromadi hamda davlat xazinasidan ajratilgan qo‘shimcha mablag‘ hisobiga qoplangan, har bir madrasaning o‘z qakf mulki va vaqfnoma xujjati bo‘lgan. Vaqfnomada madrasaning chiqimi, undagi xizmatchilar: mutavalli, mudarris, xofiz, muxri, na-yib, farrosh, oshpaz va boshqalar, shuningdek, talabalarsoni, ularga berilgan maosh va nafaqalar aniq, ko‘satilgan.

Sho‘ro hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlab musulmon maktablari-maktabxona, otin oyi maktabi, qorixonona, daloilxonona va madrasalar ta‘lim va tarbiya maskani emas, balki din va xurofot o‘chog‘i sifatida talqin etila boshlangan. O‘zbekiston ShIJ Xalq Maorifi komissari Rahim Oxunjon o‘g‘li Inog‘omov 1925-yil oktyabr oyida bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqi Markaziy qo‘mitasining yalpi majlisida qilgan maruzasida musulmon maktablarini Sho‘rohokimiyatiga qarshi ish yurituvchi muassasa ekanligini ta‘kidlab: “ular (musulmon maktablari – R.Sh, BR) aksilinqilobiy bir madaniy kuch bo‘lib, bizning yuksalishimizga to‘siq bo‘lg‘usidirlar... shunday bir yo‘l topaylikkim bu eski maktablar o‘z-o‘zlaridan yo‘q bo‘lsinlar” -deydi. 1926-yilda O‘zbekiston Xalq maorifi Komissari etib tayinlangan Davlat Rizo o‘g‘li “O‘zbekistonda maorif va madaniyat masalalari” to‘plamida e‘lon qilgan maqolasida bu masalada shunday yozadi:

...Nasllarimizning tarbiyasi ko‘p joylarda o‘sha xurofotchilik markazi bo‘lgan eski maktabga bog‘liqdir. Eski maktab quchog‘ida minglarcha ishchi-dehqon bolalari qurbon bo‘ladilar”. Bunday fikrlar boshqa Sho‘ro rahbarlari tomonidan ham tez-teztilga olindi. 20-yillarda arab imlosida nashr qilingan Sh.Rahimning “O‘zbek maorifining o‘tgandagi va hozirgi holi” asarimusulmon maktablari, ayniqsa, jadidmaktablarining faoliyatiga bir qadar xolisona, ilmiy baho berishga urinish bo‘lgan. Biroq bolshevistik siyosatning ustun kelishi oqibatida bu asar tezdagina chetga surib qo‘yildi va uzoq vaqt tadqiqotchilarning diqqat e‘tiboridan chetda qoldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *Abu Bakr Muxammad ibn Ja'far Narshaxiy. Buxoro tarixi. - T.:Kamalak, 1991. —B. 161. (Bundan keyin: Narshaxiy. Buxoro tarixi.).*
2. *O'zR MDA. I-Z-jamg'arma, 1-ro'yxat, 361-yig'majild.  
H H Akhmadovich Khoja nasriddin afandi as people's hero . *AKADEMICIA : AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL* 11(2).1562.*
3. *T. Khoja o'g'li, K H Ahmadovich Advanced Characteristiks of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature. *Amerikan Journal of Social and Humanitarian Research* 3 (9).1-4.*
4. *K K Akhmadovich, NS Ubaydullayevna THE PRACTICAL SIGNIFICANCE OF EDUCATIONAL INTEGRATIONS IN THE FORMATION OF INDEPENDENT WORK IN PRIMARY GRADES. *Conferencea*, 66-75..*
5. *K K Akhmadovich, O B Togmurodovich NEW STAGES AND PRACTICAL CONDITIONS FOR CREATING NATIONAL TEXTBOOKS AND ALPHABET BOOKS. *Conferencea*, 54-58.*
6. *K K Akhmadovich, SG Badriddinova THE CONCERT OF READING, SPECIAL FEATURES OF CHILDREN'S READING E *Conferencea*,28-33.*
7. *KK Akhmadovich, N O Alisherovna THE AESTHETIC VALUE OF LINGUISTIC FLORIONYMS IN WORKS OF ART IN AROUSING LAUGHTER 59-63.*
8. *K K Akhmadovich, O B Togmurodovich THE ISSUE OF THE CONTENT OF EDUCATION IN THE HISTORY OF THE PEOPLES OF THE EAST *Conferencea*, 95-101.*
9. *K K Akhmadovich, S G Badriddinova HISTORICAL GENESIS OF UZBEK CHILDREN'S READING, PRINCIPLES OF DEVELOPMENT AND AESTHETIC EXPE=RESSION OF NATIONALITY IN THEM E *Conference Zone*, 47-51.*
10. *K K Akhmadovich, N O Alisherovna THE PROBLEM OF AROUSING LAUGHTER IN UZBEK PROSE BASED ON LINGUISTIC FAUNIMS *Conference* 90-94.*
11. *Ahmadovich K. H., ZokirovnaZ A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE // *Gospodarka i Innowacje*. – 2022. – T. 25. – C. 133-137.*

## BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI TA'LIMY O'YINLARDAN FOYDALANISH METODLARI

**Jo'rayeva Mahliyo Mirzoyevna**

Buxoro davlat Pedagogika instituti

II bosqich magistri.

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarini ta'limiy o'yinlar asosida tashkil qilish masalalari ilmiy-nazariy tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** ona tili darslarida kompetensiyalar, ta'lim, zamonaviy texnologiya, metod, tafakkur, taraqqiyot, fenomen, interfaol va hokazo.*

Yangilangan ona tili ta'limi mazmuniga asoslangan, zamonaviy ona tili o'qitish metodikasi quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi: so'z boyligini oshirish va boyitish, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, nutqiy mahoratni shakllantirish, mustaqil matn yaratish malakasiga ega bo'lish. Ta'lim tizimida kuzatish, taqqoslash, til hodisalarini guruhlash, umumlashtirish, ular orasidan nutqiy vaziyatga mosini tanlash va o'z nutqida qo'llash kabi aqliy faoliyat usullari o'quvchidagi diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy fikrlash kabi ruhiy xususiyatlarni shakllantiribgina qolmay, qiyinchiliklardan qo'rqmaslik, uni mustaqil bartaraf etish, madaniy muloqot kabi ijobiy xislatlarning paydo bo'lishida ham muhim ahamiyatga ega ekanligi e'tirof etildi. Ona tili ta'limi mazmunining yangilanishi, til o'qitish metodikasining oldiga ham dolzarb masalalarni qo'ydi. Ona tili darslarida til va tafakkur munosabati haqida ma'lumot berish o'quvchilarning til haqidagi bilimlarini kengaytirishga, zarur bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, innovatsion va interfaol ta'lim texnologiyalari ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o'qituvchi, o'quvchilar guruhi, shuningdek,

jamo'a o'rtasida o'zaro hamkorlikni qaror to Bugungi kunning o'qituvchisi yosh avlodni tarbiyalashda zamon bilan hamnafas ish olib borishi, ta'lim jarayoniga yangicha pedagogik texnologiyalarni qo'llab yosh avlodni muloqot madaniyati shakllangan, tanqidiy - tahliliy fikrlovchi ruhda tarbiyalashi kerak bo'ladi. Ushbu maqsadlardan kelib chiqqan holda biz, mazkur maqolamizda o'quvchi yoshlarni muloqot hamda muomala madaniyatini shakllantirishda, ularni o'z fikrlarini erkin tarzda bayon qilishda, „kommunikativ kompetensiya“ ning o'rni, uning ta'limdagi ahamiyati haqida so'z yuritmoqchimiz.

Kommunikativ kompetensiya, birinchi navbatda, shaxsning rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonida shakllanadigan o'quvchining shaxsiy sifati; ikkinchidan, nutqiy muloqot maqsadlari, mohiyati, tuzilishi, vositalari, xususiyatlari to'g'risida o'quvchining xabardorligi ko'rsatkichi; tegishli texnologiyani bilish darajasi; mutaxassisning individual psixologik fazilatlarini; aloqa faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishga intilish; inson shaxsiyatiga yo'naltirish, asosiy qadriyat sifatida, shuningdek, nutqiy muloqot jarayonida yuzaga keladigan muammolarni nostandart, ijodiy hal qilish qobiliyati. Nutqiy muloqot o'quvchining kommunikativ kompetensiyasining asosiy qismidir, u har doim hamjamiyatni, o'xshashlikni, o'zgalarni anglash va qabul qilishga bo'lgan o'zaro intilishni, nafaqat oqilona o'lchash va javob berish, balki hissiyot bilan hamdard bo'lishni nazarda tutadi. Ona tili ta'limining samaradorligi mustaqil turmushga qadam qo'yayotgan yoshlarning nutqiy taraqqiyot darajasi va kamoloti uning jamiyatda muloqot qilishi hamda tanqidiy - tahliliy fikrlashi bilan baholanadi. Hozirgi vaqtda mana shu masalaga alohida e'tibor berilmoqda. Zeroki yoshlarda ijodiy tafakkur, ijodiy izlanish, ko'pgina imkoniyatlardan eng maqbulini tanlay olish ko'nikmalari hamda og'zaki va yozma nutq malakalarini shakllantirish va rivojlantirishda, ularni milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashda ona tili fanining tutgan o'rni va imkoniyatlari benihoya kattadir. Ayniqsa, mustaqil respublikamiz uchun tadbirkor va ijodkor insonni tayyorlash masalasi ko'ndalang bo'lib turgan bir paytda bu fanning o'qitilishi yanada muhimroq ahamiyat kasb etadi. Mana shunday vazifalarni amalga oshirishda fanga oid

kompetensiyalarni shakllantirishdan tashqari tayanch kompetensiyalarni ham qaror toptirish muhim hisoblanadi. G'oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta'lim oluvchi (o'quvchi)ning ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega. Ona tili va adabiyot fanlari dastur va darsliklarini tahlil qilar ekanmiz, umumta'lim tizimida o'qitiluvchi barcha fanlar xronologiyasi bir-biriga mutanosib ekanligini kuzatdik. Bu esa o'z navbatida o'qitishga yangicha yondashuvni tatbiq etishga monanddir. Ona tili va adabiyot fanining uzviy aloqadorligi bois o'qitilayotgan mavzular ham mutanosib bo'lishi lozim. Milliy dastur talabiga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanidan o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar uch yo'nalishdagi ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi va aniqlanadi.

Birinchi ko'rsatkich o'qish texnikasi bo'lib, bu orqali o'quvchining notanish matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi.

Ikkinchi ko'rsatkich o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bo'lib, bu talab bolaning og'zaki bayon qilinayotgan fikrni hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan.

Uchinchi ko'rsatkich esa fikrni yozma shaklda bayon etish malakasidir. Ta'kidlash lozimki, ona tili ta'limining maqsadi shu yo'nalishda mujassamlashadi. Darsni darslikka asoslanib tashkil etish degani darslikda berilgan o'quv topshiriqlaridangina foydalanishni anglatmaydi, albatta. O'qituvchi darslikdan ijodiy foydalanishi, ya'ni zarurat tug'ilganda mashq shartiga qo'shimcha shartlar kiritishi, berilgan shartni yangi shart bilan almashtirishi, lozim topsa, darslikdagi mashq o'rnida o'zi tuzgan mashqdan foydalanishi mumkin. Darslik materialiga yordamchi vosita sifatida turli jadvallardan, rasmi albomlar va tarqatma materiallardan, diapozitiv va diafilmlardan, ovozni yozib olish vositalaridan foydalanish mumkin. Bolalarning individual xususiyatlarini, ularning jamoa o'yinlari davomida kuzatish qulaydir. O'z o'yinlarida bolalar kattalarning predmetlarga munosabatinigina emas, balki ko'proq ularning o'zaro munosabatlarini ham aks

ettiradilar va ularga taqlid etadilar. Shuningdek, jamoa o‘yinlarida bolalar bir guruh odamlarning murakkab hayotiy faoliyatlarini aks ettiradilar. Masalan, «poezd» o‘yinini olaylik. Bunda mashinist, parovozga ko‘mir yoquvchi, provodniklar, qontrolyor, kassir, stansiya xodimlari va yo‘lovchilar bo‘ladi. Bolalarning mana shu kabi jamoa o‘yinlari artistlarning faoliyatiga o‘xshaydi. Chunki, jamoa o‘yinidagi har bir bola o‘z rolini yaxshi ado etishga intilishi bilan birga, o‘yinning umumiy mazmunidan ham chetga chiqib ketmaslikka tirishadi. Bu esa, har bir boladan o‘zining butun qobiliyatini ishga solishni talab etadi. Ma’lum rollarga bo‘lingan jamoa o‘yini, bolalardan qat’iy qoidalarga bo‘ysunishini va ayrim vazifalarni talab doirasida bajarishni taqozo etadi. Shuning uchun bolalarning bunday jamoa o‘yinlari psixologik jihatdan katta ahamiyatga ega. Chunki, bunday o‘yinlar bolalarda irodaviylik, xushmuomalalik, o‘yin qoidalariga, tartib-intizomga bo‘ysungan va shu kabi boshqa ijobiy xislatlarni tarbiyalaydi va rivojlantiradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ahmadovich H. H., Amrulloevna S. D. *RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 248-250.*
2. Ahmadovich K. H., Bahridinovna S. G. *Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 6. – C. 141-145.*
3. Ahmadovich K. H., Zokirovna Z. A. G. *THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 25. – C. 133-137.*
4. Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. *Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – T. 3. – №. 7. – C. 130-133.*



5. *BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O'QUVCHILAR O'ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O'RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – С. 415-417.*
6. *Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/8. – С. 49-52.*
7. *Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.*
8. *Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.*
9. *Khoja o'g'li T., Ahmadovich K. H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.*
10. *Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.*
11. *Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O 'QUVCHILAR O 'ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.*
12. *Axmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA'RIFIY YODGORLIKLARNI O 'RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 281-285.*
13. *Ҳайитов Х. А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 679-687.*
14. *Akhmadovich H. H. Khoja nasriddin afandi as people's hero //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1562-1565.*
15. *Akhmadovich K. K. Symbolism of Birds in Uzbek Literature //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 4. – С. 59-63.*

## MAKTABDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA MEHNAT AN'ANALARI MAZMUNI

**Umurboyeva Xilola Jo'raboyevna**

Xovos tumani 14-maktab psixologi

### ANNOTATSIYA

*Shu maqsadda muayyan yosh guruhlarida tegishli uslub va usullar suhbat va ma'ruzalar ilmiy siyosiy ma'lumotlar, o'quvchilar konferensiyalari, ekskursiyalar ko'rsatmalari materiallar bo'yicha mavzuli ko'rgazmalar, jamoa bo'lib muzey va kinolarga borish maqollar va hikmatlar, so'zlar asosida mehnat mavzusida ertaklar yozish, mehnat mavzusidagi xalq ertaklarini inssenirovka qilish, xalq topshiriqlari bo'yicha savol-javob kechalari, munozara va muhokamalar, viktorinalar, o'yinlar uyushtirish o'quvchilarning katta avlod tashkil etgan mehnat bayramlarida faol qatnashuvchi foydalanish mumkin.*

***Kalit so'zlar:** mashg'ulot, ekskursiya, mehnatsevarlik, an'analar, topishmoq, maqollar, xalq, qadr, urf-odatlar.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash vazifasi faqat ta'lim-tarbiya jarayonida emas, balki sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar yordamida amalga oshiriladi. Pedagogik jihatdan to'g'ri tashkil etilgan sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning bilim doirasini kengaytiradi va chuqurlashtiradi, dastur materiallarini puxta o'zlashtirishga yordam beradi. Shuningdek, sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarni mehnat an'analari orqali mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash, eng avvalo, mehnatni sevishga o'zgar mehnatini qadrlashga, xalqimizning milliy qadriyatlarini e'zozlash ruhida tarbiyalaydi.

Jumladan, suhbat uslubi o'quvchilarning mehnat haqidagi tushuncha va tasavvurini boyitish ularga xalqning mehnatga oid urf-odatlar va an'analari vujudga kelishi inson xayotidagi o'rni xususida batafsil ma'lumot berishning maqbul vositasi. Bunda mehnat haqidagi xalq maqollari, hikmatli so'zlari, topishmoq va ertaklarni qo'llash. O'quvchilarning mehnat haqidagi bilimi ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchi "An'analar va ularning urf-odatlaridan farqi", "An'analarning jamiyatdagi ro'li", "Jamiyatda mehnat an'analari", "Ilg'or an'analarga bog'liq og'zaki ijodi namunalar", "O'zbek xalq ertaklarida mehnat mavzulari", "Mehnat to'g'risida maqollar va hikmatli so'zlar", "Hunar va mehnat quro'llari haqidagi topishmoqlar" singari mavzularda suhbatlar uyushtirish uchun hikoya va tushuntirish uslublaridan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ko'rsatmalilik va amaliyot uslublaridan foydalanib, yuqorida aytilgan mavzular bo'yicha ishlarni amalga oshirish mumkin. Masalan, darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli kasblar, ishlab chiqish, mazkur filmlar asosida suhbatlar o'tkazish, tushuntirishlar berish va hikoyalar qilish o'quvchilarga xalqning mehnat xaqidagi tarixiy me'rosidan tegishli ma'lumotlar berishga xizmat qiladi.

Maktab amaliyotida mehnat obyektlariga va ishlab chiqarishga ekskursiyalar uyushtirish, o'quvchilarni joylardagi turli kasb egalarining ishlari bilan tanishtirish yoki ularning mehnat an'analari madx etiladigan xalq bayramlarida faol qatnashishlariga erishish, o'quvchilarga mehnat va mehnatsevarlik mavzusidagi xalq og'zaki ijodi namunalari to'plashni topshirish, mazkur materiallar asosida albom va stendlar tayyorlash, ko'rgazmalar tashkil etish, jurnallar chiqarish kabi tadbirlardan foydalanish badiiy havaskorlik to'garaklari repertuarlariga mehnat haqidagi qo'shiqlarni, mehnat mavzusidagi xalq spektakllari va drammalarini kiritish boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan "Xalqning ilg'or mehnat an'analari barxayot", "O'talarimizning mehnat xaqidagi fikrlari", "Mehnat to'g'risidagi baytlar va topishmoqlarni kim ko'p biladi" singari mavzularda musobaqalar, savol javob kechalari o'tkazish shuningdek, viktorinalar, ishlab chiqarish ilg'orlari bilan uchrashuvlar o'tkazish, turli xalq an'anaviy kasblari buyicha to'garaklar tashkil qilish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'quvchilarni mehnat an'analari, urf odatlari va fikrlari bilan tanishtirish hamda shu asosda ularda mehnatsevarlikni tarkib toptirishning shakl va uslublari turli bo'lib, asosiy masala ulardan muntazam ravshda, ishni ko'zini bilib, o'z o'rnida foydalanishdir. Bu sohada pedagogik jamoa zimmasida katta vazifa turadi. O'zbek xalqining mehnatga oid urf odatlari, udumlari, an'analari va g'oyalari asosida o'qituvchilar o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash ishida maktabning boshlang'ich sinf o'quvchilar va o'quvchilar jamoalarining o'quvchilar o'zini-o'zi boshqarish organlarining, maktabdan tashqari muassasalar (o'quvchilar uylari va saroylari)ning faol yordamida tayanish kerak. Mazkur tarbiya o'choqlari bir-biri bilan yaqin aloqa o'rnatib, xalqning mehnatga oid, udumlari, urf-odatlari, an'analari va g'oyalari saqlashda tashabbuskorlik, faollik ko'rsatgan o'quvchilarni rag'batlantirish ularda ilg'or urf-odat, udum va an'analarga muhabbat hissini shakllantirishda o'ziga hos o'rin tutadi.

Sinfdan tashqari tadbirlarda (o'quv jarayonidagi singari) tegishli ko'rsatmali qo'llanmalardan, shuningdek, audivizual va ommaviy axborotlardan (masalan: gazeta materiallaridan, urf-odatlar va an'analarga bag'ishlangan radio hamda televideniye eshittirishlaridan) keng ko'lamda foydalanish kerak.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. *Ahloq odobga oid hadis namunalari. -Toshkent: Fan, 1990- 72 b.*
2. *Abramyan E.T. Istokov kulturnoy tradisii - Tashkent: Fan, 1988 - 127 s.*
3. *Almetov N.Sh. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish. -Olma-Ota: Chimkent, 1993 – 89 b.*

**TABLE OF CONTENTS**

Sr. No.	Paper/ Author
1	<b>Шокиров Лазиз Бахтиёрович, &amp; Хасанов Баходир Кимсанович. (2023). СИНТЕТИК ПОЛИМЕРЛАР КОНЦЕНТРАЦИЯСИНИНГ КАЛАВА ИПЛАР ФИЗИК-МЕХАНИК ХУСУСИЯТЛАРИГА ТАЪСИРИ. GOLDEN BRAIN, 1(4), 4–9. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7629634">https://doi.org/10.5281/zenodo.7629634</a></b>
2	<b>Abdumo'minova Dildora Oybek qizi. (2023). IQBOL MIRZONING "BONU" ROMANIDA O'ZBEK AYOLI OBRAZI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 10–12. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7629657">https://doi.org/10.5281/zenodo.7629657</a></b>
3	<b>Abdumo'minova Dildora Oybek qizi. (2023). ARMONGA AYLANGAN BOLALIK. GOLDEN BRAIN, 1(4), 13–15. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7629671">https://doi.org/10.5281/zenodo.7629671</a></b>
4	<b>Akmal Tajiddinovich Khalikov. (2023). TOPIC: PHYSICAL CULTURE AND SPORTS. GOLDEN BRAIN, 1(4), 16–19. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7629688">https://doi.org/10.5281/zenodo.7629688</a></b>
5	<b>Aminova Mohinur Normurod qizi, Nurmatov Abdurauf Choriyevich, &amp; Xudoyberdiyev Javoxir Esonqul o'g'li. (2023). BUYRAKNI VAZIFASI, TEKSHIRISH USULLARI, SHAMOLLASH BELGILARI VA UNI DAVOLASH USULLARI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 20–24. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7629700">https://doi.org/10.5281/zenodo.7629700</a></b>
6	<b>Shaykulov Xamza Shodievich, &amp; Boboqandova Mexriniso Fazliddinovna. (2023). ICHAK O'TKIR YUQUMLI KASALLIKLARI BILAN KASALLANGAN BOLALARDA SHARTLI PATOGEN ENTEROBAKTERIYALARINING UCHRASHI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 25–33. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7629711">https://doi.org/10.5281/zenodo.7629711</a></b>
7	<b>Khalmuratova Manzura Khoshmatova. (2023). MAIN PROBLEMS CAN BE FOUND WHILE TRANSLATING LITERARY TEXTS. GOLDEN BRAIN, 1(4), 34–40. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7629717">https://doi.org/10.5281/zenodo.7629717</a></b>
8	<b>Tovbekova Durdona. (2023). O'ZBEK XALQI MILLIY URF-ODATLARIDA MEHMON KUTISH ODOBI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 41–44. <a href="https://doi.org/10.5281/zenodo.7633513">https://doi.org/10.5281/zenodo.7633513</a></b>

9

**Beknazarova Nozima Rustam qizi, Xidirova Durдона Olim qizi, & Abdushukurova Ma'mura Abdulla qizi. (2023). CHIGITLI PAXTANI YIRIK VA MAYDA IFLOSLIKLARDAN TOZALASH. GOLDEN BRAIN, 1(4), 45–48. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7633525>**

10

**SH.SH.Mirzanova. (2023). TALABALARNI ISTISNOLARNI QAYTA ISHLASHNI O'RGATISHDA JAVA DASTURLASH TILIDAN FOYDALANISH. GOLDEN BRAIN, 1(4), 49–53. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7633540>**

11

**Aminova Mohinur Normurod qizi, Soatmurodova Hamida Baxtiyor qizi, & Shukurova Barchinoy Abdulhofiz qizi. (2023). EYFORIYA KASALLIGI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 54–57. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7633544>**

12

**Jo'rayeva Mehriniso. (2023). TILSHUNOSLIKDA MATN MUAMMOSI VA UNING O'RGANILISHI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 58–61. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7633552>**

13

**M. Xudayarova, & Usanova Qademay Muratbay qizi. (2023). O'ZBEK, RUS VA QORAQALPOQ TILLARIDA OTLARNING KELISHIK KATEGORIYALARI. CHIQISH KELISHIGI QIYOSI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 62–66. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7633569>**

14

**Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi. (2023). MUHAMMAD AMINXO'JA MUQIMIY. GOLDEN BRAIN, 1(3), 67–71. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7633573>**

15

**Janabaeva Ayjamal Murat qizi, & Shevtsova Olga Vladimirovna. (2023). WORD-FORMATION OF ENGLISH LANGUAGE AND ITS ROLE IN ENLARGING LEXICAL RESOURCE. GOLDEN BRAIN, 1(4), 72–78. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7639404>**

16

**Qodirova Dilshoda Abdunabiyevna. (2023). MATEMATIK MODELLASHTIRISH VA UNING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 79–82. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7639799>**

17

**Muhiddinov Abdubanob, & Tuychiyeva Xilola Zokirjon qizi. (2023). JISMONIY RIVOJLANISH SOG'LIQNI SALASH HOLATINI BAHOLASHDAGI O'RNI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 83–87. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7639860>**

18

Axmatjonova Xurshida Komiljon qizi. (2023). XOTIRA, UNING TURLARI VA INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 88–92. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7639964>

19

Asrorova Zuhra Sarvar qizi, Erkinov Nodir Zufar o'g'li, & Hamzayev Sherzod Shuhrat o'g'li. (2023). NEFT-KIMYO SANOATIDA QUVURLARDA BORADIGAN KORROZIYA MONITORINGINI O'RGANISH UCHUN QO'LLANILADIGAN VOSITALAR. GOLDEN BRAIN, 1(4), 93–103. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640191>

20

Mamashukurov Ozodbek Erkin o'g'li. (2023). MADANIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA REPERTUAR TANLASH XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 104–109. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640257>

21

Abdirasulov Bahodir Abdimal o'g'li. (2023). TARJIMANING TRANSFORMATSION MODEL. GOLDEN BRAIN, 1(4), 110–114. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640312>

22

Boltayev Komil Sultanovich, & Xoljigitov Xushnud Toshtemir o'g'li. (2023). TERI OSTI MIKOZLARIGA LABORATOR TASHHIS QO'YISH USULLARI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 115–123. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640317>

23

Назарова Гулчехра Шухратджановна, & Мелимуродова Маъсума Гиёсиддиновна. (2023). ДИАГНОСТИКА И ПРОФИЛАКТИКА ПРИ ПОДАГРЕ. GOLDEN BRAIN, 1(4), 124–128. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640401>

24

Sindarova Iroda Keldiyorovna, Saidov Ulug'bek Xudoyberganovich, & Tulayeva Madhiya Berdimuradovna. (2023). PRACTICAL SIGNIFICANCE OF CONDUCTING TECHNIQUE. GOLDEN BRAIN, 1(4), 129–132. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640428>

25

Ko'chiyeva Shabnam. (2023). ABDULLA ORIPOVNING HAYOT FALSAFASIGA YO'G'RILGAN SHE'RLARI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 133–136. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640461>

26

Surayyo Nuritdinova, & Amonov Navruz. (2023). O'TMISH, KORRUPSIYA VA YAQIN KELAJAK. GOLDEN BRAIN, 1(4), 137–140. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640480>

27

Bazarbayev Sanjar Xamzayevich, & Babayev Shoxrux Esanboyevich. (2023). JAMIYAT IJTIMOIIY HAYOTIDA AYOLLAR IJTIMOIIY FAOLLIGINI OSHIRISH. GOLDEN BRAIN, 1(4), 141–146. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640491>

28

O'roqova Zilola Salomovna. (2023). NOAN'ANAVIY DARSLARNI TASHKIL ETISHDA INTERFAOL METODLARNI O'RNI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 147–151. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640523>

29

Abdumannopov Anvarjon Abdulhamidovich. (2023). МАТЕМАТИКА FANINI O'QITISH TEXNIKASI VA PEDAGOGIKASI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 152–156. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640541>

30

Якубова Нафосатхон Абдуллаевна, Сотволдиев Азизбек Абдуллажон ўғли, & Иброхимов Мухаммадали Мирзарахим ўғли. (2023). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ БЎШ ВАҚТЛАРИНИ ТЎҒРИ ТАШКИЛ ҚИЛИШ. GOLDEN BRAIN, 1(4), 157–162. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640565>

31

Ibrokhimov M.U. (2023). THE ADVANTAGES USE OF PARALLEL COMPUTING IN SOLVING PROBLEMS OF FILTRATION PROCESSES. GOLDEN BRAIN, 1(4), 163–165. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7640595>

32

Мамадова Салимачон Турдибоевна. (2023). МОҲИЯТИ ИСТИФОДАБАРИИ МАШҚҲОИ ЭҶОДӢ ДАР МАШҒУЛИЯТИ ЗАБОНИ АНГЛИСӢ ДАР ФАКУЛТИЕТҲОИ ҒАЙРИТАХАССУСӢ. GOLDEN BRAIN, 1(4), 166–173. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7641242>

33

Odilova Dilshoda Shuxrat qizi. (2023). ТЕХНОЛОГИИ ЭФФЕКТИВНОГО ОБЩЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ РУССКОГО ЯЗЫКА. GOLDEN BRAIN, 1(4), 174–179. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7641296>

34

Sotvaldiyeva Xilola Musinovna, & Toshmirzayeva Dilshoda Odiljonovna. (2023). TILSHUNOSLIKDA KONSEPT TUSHUNCHASINING MOHIYATI HAMDA NAZARIYALARI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 180–183. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7641311>

35

Rajabov Shahzod Oqbo'ta o'g'li, Daminova Marjonaxon Iskandar qizi, & Jurakulova Durдона Shuxratovna. (2023). MIKOZLARGA MIKROBIOLOGIK MIKROSKOPIK TASHXIS QO'YISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 184–188. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7641325>



36

Maxmudjonova Fariza. (2023). PRAGMATIK ATAMALAR VA TUSHUNCHALARINING ILMIIY ASOSI VA ZAMONAVIY TALQINI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 189–195. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7641342>

37

Khalilova Laylo Ravshanovna. (2023). LEXICAL GENDER IN WRITTEN BUSINESS ENGLISH: A CORPUS-BASED APPROACH. GOLDEN BRAIN, 2(4), 196–199. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7641398>

38

Abdumajidova Muniraxon Habibullayevna, & Mamarasulova Mamlakatxon Abdusamatovna. (2023). ZAMONAVIY REZUME, CV VA MALUMOTLARINI YARATISH. GOLDEN BRAIN, 1(4), 200–204. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7641441>

39

Mamayusupova Shakhina Ulugbek qizi. (2023). THE IMPORTANCE OF AGRO-INDUSTRY IN THE ECONOMY. GOLDEN BRAIN, 1(4), 205–208. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7643132>

40

Narziyev Toshpolat Narziyevich. (2023). EDUCATION OF HIGH CLASS STUDENTS IN AN AESTHETIC SPIRIT THROUGH LYRIC MUSIC. GOLDEN BRAIN, 1(4), 209–215. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7643801>

41

Sayidova Azima Mubin qizi. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY KOMPITENTLARNI CHET TILINI O'RGATISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH METODLARI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 216–219. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7647030>

42

Murodova Saodat Uyg'un qizi. (2023). ONA TILI DARSLARIDA O'ZBEK TILINI XORIJIY TILLAR BILAN QIYOSLASHDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 220–223. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7647054>

43

Shodiyeva Nigora Soliyevna. (2023). QADIM SHARQ MADRASALARIDA TA'LIM JARAYONINING TASHKIL QILINISHI VA DARSLIKLAR MASALASI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 224–228. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7647063>

44

Jo'rayeva Mahliyo Mirzoyevna. (2023). BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMIY O'YINLARDAN FOYDALANISH METODLARI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 229–233. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7647068>

45

**Umurboyeva Xilola Jo'raboyevna. (2023). MAKTABDAN TASHQARI MASHG'ULOTLARDA MEHNAT AN'ANALARI MAZMUNI. GOLDEN BRAIN, 1(4), 234–236. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7650388>**